

**RAKMONOV AZAMAT
RUZVONOVICH**

IJTIMOIY PEDAGOGIKA ASOSLARI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TALIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

RAXMONOV AZAMAT RUZVONOVICH

IJTIMOIY PEDAGOGIKA ASOSLARI
(O'QUV-QO'LLANMA)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV TALIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

CHIRCHIQ – 2023

A.R.Raxmonov / Ijtimoiy pedagogika asoslari / O'quv-qo'llanma - Chirchiq: «**Yangi chirchiq prints**», 2023. – 252 bet.

Tuzuvchi:

A.R.Raxmonov Umumiy pedagogika kafedrasi katta o'qituvchisi

Taqrizchilar:

X.Libragimov - Qori Niyoziy ilmiy tekshirish instituti direktori
professori, pedagogika fanlari doktori
G.O.Ernazarova - Chirchiq davlat pedagogika universiteti
"umumiy pedagogika" kafedrasi professori,
pedagogika fanlari doktori.

O'quv qo'llanmada berilgan ko'rsatmalar ijtimoiy pedagogika fanining yuzaga kelishi, uning o'tmish tarixi, ijtimoiy pedagogika fanining metodikalari va texnologiyalari bilan izohlanadi. Shu singari, ijtimoiy pedagogning sohadagi asosiy faoliyat qirralari ochib berilgan. O'quv qo'llanma 60110100- «Pedagogika va psixologiya» ta'lim yo'nalishining talabalariga mo'ljallangan.

Mazkur o'quv-qo'llanma 2023 -yil "29" "may" dagi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining №232 -sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan o'quv reja va dastur asosida tayyorlandi.

ISBN 978-9910-751-34-9

© A.R.Raxmonov, 2023
© «Yangi chirchiq prints», 2023

1.	Kirish.....	9
2.	Ijtimoiy pedagogika va pedagogik sotsiologiyaga ehtiyoj va zamonaviy jamiyat rivojining zaruriy shartlari.....	12
2	O'zbekistonda ijtimoiy pedagogika va pedagogik sotsiologiya fanining paydo bo'lishining madaniy-tarixiy, ijtimoiy-huquqiy shart-sharoitlari.....	28
3	Xorijda ijtimoiy pedagogikaning rivojlanish tarixi.....	30
4	O'zbekistonda ijtimoiy pedagogikaning rivojlanish tarixi..	51
5	O'zbek xalq pedagogikasi va islom ta'limotida ijtimoiy pedagogik g'oyalar.....	69
6	Ijtimoiy pedagogika fan va amaliy faoliyat sohasi sifatida. Ijtimoiylashuv–ijtimoiy-pedagogik jarayon.....	76
7	Ijtimoiy pedagogika va pedagogik sotsiologiyada "me'yor" va "me'yordan og'ish" tushunchasi. Me'yordan og'ishish tiplari.....	81
8	Ijtimoiy pedagogning kasbiy faoliyati.....	84
9	Ijtimoiy pedagogikaning tamoyillari.....	99
10	Ijtimoiy pedagogikaning kategoriyalari va mexanizmlari..	106
11	Ijtimoiylashuv omillari va vositalari.....	109
12	Bolaning sotsiunda rivojlanishi.....	112
13	Makallalar–ijtimoiy o'z-o'zini boshqarish organi.....	118
14	Ijtimoiy-pedagogik tadqiqotlar.....	122
15	Deviant xulq– ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida.....	130
16	Ijtimoiy-pedagogik faoliyat metodikasi va texnologiyasi...	135
17	O'zbekistonda faoliyat olib boruvi ijtimoiy reabilitatsion muassasalar.....	141
18	Oliida olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat.....	145
19	Vasiylik va homiylik.....	151
20	Yetim bolalar bilan olib boriladigan faoliyat.....	153
21	Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat.....	159
22	Ijtimoiy pedagogning maktab yoshidagi bolalar bilan olib boriladigan faoliyati.....	183
23	Spiriti ichimliklar iste'mol qiluvchi o'smirlar bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik.....	207

24	Гуноҳвандлик–deviant xulq shakli sifatida.....	213
25	Imoyatchilik bolalarda g'ayriqonuniy hatti-harakatning namoyon bo'lish shakli sifatida.....	216
26	Ijtimoiy-pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqishning nazariy asoslari.....	220
27	Ijtimoiy-pedagogik texnologiya strukturasi va mazmuni..	228
	GLOSSARIY.....	239
	Foydalanilgan adabiyotlar.....	250

ОГЛАВЛЕНИЕ

1.	Войти.....	9
2.	Необходимость социальной педагогики и педагогической социологии и необходимые условия развития современного общества.....	12
2	Культурно-исторические, социально-правовые условия возникновения науки социальной педагогики и педагогической социологии в Узбекистане.....	28
3	История развития социальной педагогики за рубежом.....	30
4	История развития социальной педагогики в Узбекистане.....	51
5	Социально-педагогические идеи в узбекской народной педагогике и исламском учении.....	69
6	Социальная педагогика как область науки и практической деятельности. Социализация – социально-педагогический процесс.....	76
7	Понятие «норма» и «отклонение от нормы» в социальной педагогике и педагогической социологии. Виды отклонений от нормы.....	81
8	Профессиональная деятельность социального педагога.....	84
9	Принципы социальной педагогики.....	99
10	Категории и механизмы социальной педагогики.....	106
11	Факторы и средства социализации.....	109
12	Развитие ребенка в обществе.....	112
13	Районы – это органы общественного самоуправления.....	118
14	Социально-педагогические исследования.....	122
15	Девiantное поведение как социально-педагогическая проблема.....	130
16	Методология и технология социально-педагогической деятельности.....	135
17	Учреждения социальной реабилитации, действующие в Узбекистане.....	141

18	Социально-педагогическая деятельность, проводимая в семье.....	145
19	Опека и покровительство.....	151
20	Деятельность с сиротами.....	153
21	Социально-педагогическая деятельность с детьми дошкольного возраста.....	159
22	Деятельность социального педагога с детьми школьного возраста.....	183
23	Социально-педагогическая работа с подростками, употребляющими алкоголь.....	207
24	Наркомания как форма девиантного поведения.....	213
25	Преступность как проявление противоправного поведения у детей.....	216
26	Теоретические основы разработки социально-педагогических технологий.....	220
27	Структура и содержание социально-педагогической технологии.....	228
	ГЛОССАРИЙ.....	239
	Использованная литература.....	250

TABLE OF CONTENTS

1.	Enter.....	9
2.	The need for social pedagogy and pedagogical sociology and the necessary conditions for the development of modern society.....	12
2	Cultural-historical, social-legal conditions of the emergence of the science of social pedagogy and pedagogical sociology in Uzbekistan.....	28
3	History of development of social pedagogy abroad.....	30
4	Development history of social pedagogy in Uzbekistan.....	51
5	Social pedagogical ideas in Uzbek folk pedagogy and Islamic teaching.....	69
6	Social pedagogy as a field of science and practical activity. Socialization is a social-pedagogical process.....	76
7	The concept of "norm" and "deviation from the norm" in social pedagogy and pedagogical sociology. Types of deviations from the norm.....	81
8	Professional activity of a social pedagogue.....	84
9	Principles of social pedagogy.....	99
10	Categories and mechanisms of social pedagogy.....	106
11	Factors and means of socialization.....	109
12	Child development in society.....	112
13	Neighborhoods are social self-governing bodies.....	118
14	Socio-pedagogical studies.....	122
15	Deviant behavior as a socio-pedagogical problem.....	130
16	Methodology and technology of socio-pedagogical activity.....	135
17	Social rehabilitation institutions operating in Uzbekistan.....	141
18	Social-pedagogical activities conducted in the family.....	145
19	Guardianship and patronage.....	151

20	Activities with orphans.....	153
21	Social-pedagogical activity with children of preschool age	159
22	Activities of a social pedagogue with school-aged children.....	183
23	Social-pedagogical activities with teenagers who consume alcohol.....	207
24	Addiction as a form of deviant behavior.....	213
25	Criminality as a manifestation of illegal behavior in children.....	216
26	Theoretical foundations of the development of socio-pedagogical technologies.....	220
27	Structure and content of socio-pedagogical technology.....	228
	GLOSSARY.....	239
	References.....	250

Kirish

Mamlakatimizda "ijtimoiy pedagogika" ga ehtiyojni yuzaga kelishiga asosan kishilarni ijtimoiylashuvdagi ba'zi muammolarni yuzaga kelishi sabab bo'ldi. Respublikamiz istiqlolni qo'lga kiritganidan keyingi davr ayniqsa ijtimoiy pedagogika sohasini sezilarli tarzda ko'rsata olishga kirishdi. ¹Bu yo'lda O'zbekiston Respublikasining prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o'z faoliyati davomida jamiyatni ijtimoiylashtirish yo'lidagi say harakatlari bunga asos bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi ta'lim to'g'risidagi qonun o'zgarishlari xamda ta'limni islohati yuzasidan qabul qilingan farmon va dasturlarni qabul qilinishi sohadagi faoliyatni yanada takomillashtirishga xizmat qildi. ²"Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz birga quramiz!" nomli kitobida Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanadachuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatni rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirishda biz, ilgirigidek, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari mahallalar, shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlar, erkin va xolis ommaviy axborot vositalari faol o'rin egallaydi, deb ishonamiz.

«**Kuchi davlatdan - kuchi fuqarolik jamiyati sari**» degan muhim tamoyilni amalga oshirishda biz avvalo ana shu ijtimoiy institutlarning kuch va imkoniyatlariga tayanamiz.

Mazkur siyosiy faoliyatdagi dasturilamal vazifalarni amalga oshirishdagi say harakatlar samarasi ijtimoiy pedagogikada keng imkoniyatlarni ochib bermoqda. Shu o'rinda takror va takror aytishimiz joizki prezident Sh.M.Mirziyoyev³ni davlatimizda ijtimoiy pedagogika fanini rivojlantirishiga navbatdagi asoschi sifatida anglash mumkin. Ma'lumki ijtimoiy pedagogika jamiyatdagi barcha sohani rivojlantirishda o'zini hamkorlik mexanizmlarini o'rnatdi hamda ta'lim sohasi uchun o'z qonunchiligida barchani mas'ulligini, javobgarligini oshirishni ham asoslay oldi. Ammo shuni yodda saqlashimiz kerak garchan azal-azaldan yurtimizda "ijtimoiy tarbiya", "ijtimoiy reabilitatsiya", "ijtimoiy himoya", "ijtimoiy ko'mak berish" "ijtimoiy talim", "ijtimoiy adaptatsiya", "ijtimoiy agent",

¹ Sh.M.Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston strategiyasi" kitobi 116 b

² Sh.M.Mirziyoyev "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz birga quramiz!" 120 b

³ Sh.M.Mirziyoyev 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi 194/40-sonli Farmoni

"Ijtimoiy faol harakatlar" ko'rinishida mavjud bo'lgan bo'lsada, pedagogikaning azaliy bilim sohasida va mustaqil fan sifatidagi tarkibida dolzarbligicha hisoblanib keldi. Respublikamizda XX asrning 90-yillaridan boshlab oliygohlarida ijtimoiy pedagogika fani o'qitiladi. Ammo Respublikamiz istiqloqga erishgungacha ijtimoiy pedagogikani mustaqil fanga aylannaganligini O'zbekistonning tarixiy davrida kuzatilgan qarama-qarshiliklar va ba'zi tushunmovchilik holatlar asosida izoxlash mumkin. Ijtimoiy pedagogikaning yuksalishiga o'z ta'sirida salbiy ifodalangan hodisalar esa asosan 20 asrning 30-yillarida boshlangan ijtimoiy tarbiyaning ayrim ishonchsizliklarga yuz tutishi, mahalliy ilm kishilari tarafidan va pedagoglarning xorijlik kasbdoshlaridan o'rgangan ilmiy tadqiqot ishlari "temir parda" yuzaki qarash, uzoq o'tgan davr davomida saqlangan insoniy qadriyatlarini tabaqalashgan qadriyatlarga almashish, ijtimoiy muammolar haqida "tinchlikni saqlash" siyosiy bilimdonlik, vatanparvarlik mehribonlik, muruvvatlik an'analarning e'tibordan chetda qolishi kabi har yaqol misol bo'lishi tabiiy. Hozirgi kunda mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalari talabalari tomonidan ijtimoiy pedagogika sohasiga bo'lgan munosabat yanada ijobiy tus olmoqda. Shu singari har bir mahallabay tizimlar faoliyatini yuritish uchun ham jamiyat taraqqiyotining zaruriyatlari va buyurtmasini e'tiborga olish lozim. Hozirda mamlakatimizning barcha jabhalarida bo'lgani singari, ta'lim borasida ham katta ulkan isloxlarning olib borilishida yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev o'zining siyosiy mavzulardagi ma'ruzalarida ko'p takrorlayotgan tushuncha xalqimiz ongi-tafakkurini 4Yangi O'zbekiston tarkibida birlashtirish va ezigulik xarakatlarini rivojlantirish. Ijtimoiy soha tuzilmalarini kishilik jamiyatining rivojlanishidagi yangi tamoyillari, bozor iqtisodiyotini muqobillashirish munosabati qonunlari, mafkuraviy va axloqiy talablarni o'zgartirishlardagi bir vaqtda ishsizlikka chek qo'yish borasida aholi tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, moddiy ta'minotdagi kamchiliklar ya'ni kambag'allikni cheklashda qishloqlar va chekka ovullarda foydalanish uchun yer berish, bu esa ayni damda pandimiya shoraitlarida aholini yashash turmushi uchun oliy xizmat sifatida tan olindi. Yana bir tushunchaga alohida

e'tibor qaratishimiz kerak ya'ni bolalarning qarovsizligini va yomon holatlarda ota-ona, yaqinlar rolini oshirish, oilalarning arziyas sabablarga ajralib ketishi yokim moddiy ta'minotdagi say-harakatlarga sustkashliklar, g'ayri ijtimoiy hodisalar—spirtili maxsulotlar istemol qilishlari, narkobiznesga va uning savdo-sotiq yo'llariga tasodifiy kirishlar, turli xildagi jinoyatchiliklar sabablari, fohishabozlik kabi ijtimoiy dolzarb muammolarni yechish o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Bu singari ijtimoiy yordam va muhofazaga birinchi navbatda bolalar, lekin shu bilan birga kattalar ham muhtojliklari kuzatilmogda. Mazkur shart-sharoitlarda jamiyatning ijtimoiylashuvida shaxsning muammolari bilan bog'liq pedagogik masalalarda yordam beruvchi mutaxassislar, ijtimoiy pedagog extiyojini ortishi sabab ekanligi ko'rilmogda. Ijtimoiy-pedagogik faoliyatni bajarish, asosan jamiyat orasida eng birinchi navbada insoniylik, fuqarolarning huquqini qonuniy muhofaza qilishni ta'minlashga asoslangan yangi demokratik qadriyatlarini vujudga keltirish asosida tarflanadi. Bu masalaning ahamiyati davlatimizning boshqaruv tizimlarida ko'p marotaba anglangan bo'lib, buni quyidagilar bilan izoxlash mumkin:

1. Kuchli ijtimoiy siyosatni Respublika taraqqiyotining ustuvor yo'nalishi sifatida bilish.
2. Mahallaning temir dafarda turuvchi qatlamlariga ko'mak berish va kambag'allikdan qutqarish bo'yicha bir qator qarorva farmoishlarning ciqarilishi;
3. Mamlakatda ijtimoiy himoya reabilitatsiya muassasalarining moddiy-texnik bazasini yaxshilanishi va yangilarining faoliyatga tatbiq qilinishi.

O'zbekiston fuqarolari hayotida ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash masalasi prezident 5Sh.M.Mirziyoyev asarlarida va chiqishlarida ham muhim o'rin tutayotganligini alohida aytish joiz. "Ularning ichida odamiylik va mexr-shavqatlik o'zbek xalqining ajralmas xususiyati ekanligi ta'kidlanadi hamda ijtimoiy hususiyatidagi muammolarni o'rganilishida: sog'liqni saqlash, oila, mahalla va ta'lim muassasa hamkorlik muassasalarining moddiy-texnik bazasinishakllantirish, sport inshoatlari faoliyatini yanada

⁴ Sh.M.Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston strategiyasi" 167b

⁵ Sh.M.Mirziyoyev "Erkin va farovon demokratik o'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz". "O'zbekiston" 2021

takomillashtirish, ko'p farzandli oilalarga ko'mal berish sog'lom farzandni dunyoga keltirish va boshqa shu singari masalalar muhkama qilinib kelimogda." Yana eng quvonarlisi, har bir soha uchun yo'l xaritasi tuzilib, unda ijtimoiy rivojlantrish maqsadlarnalga oshirilgan. Jumladan quyidagilar qatorida keltirish mumkin, hamkorlik asosida klasterni ho'jalik sohasi bilan bir qatorda ta'lim sohasida ham qo'llash yagona vazifaga aylantirildi. Barcha ta'lim dargoxlarida pedagogik ta'lim innovatsiyon klasteridan foydalanish davlat manfaatini amalaga oshirishda yagona mexanizm sifatida ko'riladi. Bu bo'yicha qayd etish joiz hozirgi kunda ta'lim mazmuniga nisbatan shaxsni ijtimoiylashuvini zarur g'oya sifatida qo'shlgani ijtimoiy pedagogikani fan sifatida mavqeyini yanada uzogroq yondoshishni taqozo etmogda. Buning uchun esa mazkur fanning mazmun-mohiyatini yetqazib beruvchi darsliklarni zamonaviy mazmunda ishlab chiqish hamda o'quv qo'llanmalarni zaruriyat exityojini qondirish lozim. Quyidagi keltirilgan qator omillar mamlakatimizda fanni rivojlantrishga hamda yangi tushunchlar sirasida ijtimoiy pedagogikaga oid o'quv qo'llanmalarining yaratilishiga imkoniyat berdi.

IJTIMOIY PEDAGOGIKA VA PEDAGOGIK SOTSIOLOGIYAGA EXTIVOJ VA ZAMONAVIY JAMIYAT RIVOJINING ZARURIY SHARTLARI

«Ijtimoiy pedagogika» o'qitish, talabalarning pedagogik savodhonlik darajasini ko'tarish birga, ularni jamiyatdagi turli ijtimoiy munosabattar, ma'naviy-madaniy omillar, shu singari, ushbu fanning ob'ekti, predmeti, vazifasi, uning atrifdagi fanlar bilan aloqadorligi, kategoriyalari, ijtimoiy pedagog kasbining xususiyatlari kabi muammolar ustida bosh qotirishga undaydi.⁶
Fanni oqitishdan asosiy maqsad–yosh avlodni ijtimoiylashtrish davomida ijtimoiy ta'lim-tarbiya qonuniyatlarini o'rganish.

⁷**Fanning muhim vazifasi**–gumanitar bilim sohasida ijtimoiy pedagogika, fanning ob'ekti, ilmiy tadqiqot predmeti va asosiy

⁶ K. Turg'unboyev, M. Tolipov, I. Oxunov "Ijtimoiy pedagogika asoslari" nomli o'quv qo'llanma 76bet

⁷ N. Egamberdiyeva "Ijtimoiy pedagogika" darslik. 97b

kategoriyalari bilish va nazariyalarni berish; talabalarda ijtimoiy-pedagogik ilmiy tadqiqotga oid ko'nikmalarni shakllantrish asosida amalga oshiriladi.

⁸"Ijtimoiy pedagogika"ni o'qitish davomida bajariladiga amaliy ishlar sirasida bakalavriyatura yo'nalishida:

- ijtimoiy-pedagogikaning madaniy va tarixiy an'analari;
- ijtimoiy pedagogik faoliyat rivojining azaliy omillari;
- pedagog boshqaruv, ijtimoiy-pedagog va ijtimoiy xodimning kasbiy faoliyatidagi farqlar;
- ijtimoiy-pedagogning kasbiy faoliyati tuzilishi;
- ijtimoiy-pedagog asosan vazifalari;
- ijtimoiy-pedagogning kasbiy tayyorlanishda ta'limning yangi bosqichi;
- O'zbekistonda ijtimoiy pedagogik faoliyatining o'ziga hos hususiyatlari;
- Maktabgacha yoshdagi bola shaxsini rivojlanishida ijtimoiy ta'lim mohiyati;
- Bola shaxsini ijtimoiylashtrishda mikro va makro muhitning roli;
- Rivojlanishida kamchiligi bor bola, imkoniyati cheklangan bola, nogironligi bor bola tushunchalarining tavsiloti;
- Imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiylashtrishdagi muammolar;
- imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiylashtrishning shartlari va xuquqiyo me'yorlari;
- ijtimoiy-pedagogik kategoriyalar;
- ijtimoiy pedagogikaning tamoyillarini bo'lishi kerak;
- Ijtimoiy pedagog faoliyat metodikasi va texnologiyasi;
- asotsial oilaga ijtimoiy-pedagogik yordam ko'rsatish;
- Pedagogik ko'maklashish shakllari va turlari;
- Ijtimoiy pedagog faoliyatida ishontrish metodikalari, korreksiyalash imkoniyati, bunga oid mashqlarini qollash;
- ijtimoiy pedagogik faoliyatda sotsiologik metodikalarni qo'llash;
- Ijtimoiy pedagogik texnologiyalardan foydalanish;
- Notinch oila ijtimoiy maqomini o'rganish;
- Notinch oila bilan faoliyavat olib borish metodlarini qo'llash ko'nikmalarini egallash kerak;

⁸ N. Egamberdiyeva "Ijtimoiy pedagogika" darslik. 120b

-Ota-ona qaramog'idan mahrum, yetim bolalar bilan ijtimoiy-pedagogik faoliyat tashkil qilish;

-Deviant(xulqi og'ist) xulqli bolalar bilan ijtimoiy-pedagogik ishlarni tashkilloshirish va uni olib borishning yuksak malakalariga ega bo'lish zarur.

Ijtimoiy pedagogika fanining nazariy qismida mutaxassislikhaqida ma'lumotlar berilib, asosan 5-6-semestrlarda o'qitiladi. Eng muhimi fan dasturni bajarish o'quv rejasini bo'yicha gumanitar va ijtimoiy sohalarda(O'zbekiston tarixi, davlat va huquq asoslari, iqtisodiy nazariya, politologiya, madaniy antropologiya), tabiiy va aniq fanlar (yosh fiziologiyasi va gigiena), umumkasbiy (pedagogika nazariyasi, pedagogika tarixi, oila pedagogikasi, xalq pedagogikasi, umumiy psixologiya, yosh va pedagogik psixologiya), ixtisoslik (pedagogik konfliktologiya, pedagogik valeologiya) fanlari bilan o'zaro aloqada hisoblanadi.

Kelajakda O'zbekistonni taraqqiyotida faqat iqtisod bilanagina emas, balki yuksak bilim bilan, ma'naviy tarafdin yetuk avlodlari bilan hamdunyoni lol qoldira olishi kerak bo'ladi.


Ijtimoiy pedagogikada yetuk salohiyatli va takomillashgan kadrlarni tayyorlash;

Ijtimoiy pedagogika modeli va dasturlarini talab va zaruriy shartlar asosida ishlab chiqish o'quv faoliyatida muhim hal qiluvchi rol oynaydi.

Ijtimoiy pedagogika modeli va dasturlarini yangicha talab va maqsadni amalga oshirish o'z Vataniiga fidokor, jonkuyar-sadoqati mexnatsevar, halol, huquqiy bag'rikenglik va demokratiya g'oyalariiga sodiq shaxsni shakllantirishga yordam beradi.

Ijtimoiy-siyosiy hayotda ongli ravishda qatnashadigan, ijtimoiy jarayonlarga faol ta'sir ko'rsatadigan. O'z mamlakatni taqdiri uchun mas'ul bilgan shaxsni tartibyalash-masalasi "Ta'lim to'g'risidagi qonun"ning asosiy bosh maqsadlaridan biri raqobatbardosh kasb egalariini yetqazish eng oliy vazifalardan biri sifatida qaraladi. Bu esa mustaqilligimizdan keyingi 30 yillikdan keyin yanada takomillashtirishga inson omilini qadrlashga bo'layotga ehtiyojlar

bilan izohlendi. Yurtimizda "inson qadri-eng oliy qadriyat"⁹, "Yangi O'zbekistonda el aziz, inson aziz" kabi shiorlarda turli tantanali marosimlar tez-tez ko'zga tashlanayotgani ham yuqoridagilarni isbotlab beradi. Milliy istiqlol g'oyasi, o'z mohiyatidan insoniylikni va ijtimoiylashuvni, xalqimizning asosiy maqsadlariniifodalangan, uning azaaliy urf-odatini va kelajagini bog'laydigan, uning uzozq asriy orzu-umidlariiga erishishga xizmat qiladigan g'oyalar tizimidir.



1-rasm Ijtimoiy pedagogika bilimlarning integral sohasi sifatida.

- Biz mustqillikdan so'ng milliy istiqlol g'oyasining mohiyatida:
- O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, umummilliy va umuminsoniy qadriyatlarga, demokratiya tamoyillariga asoslanish;

⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz bir yilligiiga bag'ishlangan marosim tabiriga Toshkent: 2022 yil 1 sentabr

- Xalqning uzoq asrlar mobaynida ulug'lab kelgan ma'naviyatini, uning an'analari va urf-odatlarini, ajdodlarimizning azaliy merosini o'z ichiga olishi;
- Ezgulik, adolatparvarlik, mustaqillik g'oyalari, jamiyat ishonchi va e'tiqodini ifodalaydi;¹⁰
- Vatanning yuksalishiga, Vatanda tinchlik ta'minlanishiga, xalq farovonligi el-yurt ishonchi o'sishiga xizmat qilishi;
- Jamiyatning barcha a'zolarini, keng aholi qatamlarini milliy g'oya-Yangi-O'zbekistonda taraqqiyot strategiyasi maqsadlariga erishishga safarbar qilinishi;
- Millatidan, tili va dinidan qat'iy nazar, har bir fuqaroda milliy iftixor va qadr – qimmat tuyg'ularini, Vatanga muhabbatni, o'zaro hurmatni, mustaqillik g'oyasi va demokratiyaga sadoqatni tarbiyalashi;
- Ta'lim orqali keng omma ongida ijtimoiy taraqqiyot, ozodlik, vatanparvarlik va milliy iftixor tuyg'ularini shakllantiradi. Milliy iftixor tuyg'usi-har bir hamyurtimiz, ularning oilasi, butun jamiyat uchun Vatan oldidagi burch va majburiyatini bajarishning ma'naviy mezonidir. Milliy iftixor tuyg'usi ana shu talablarga javob berganidagina quyidagi asosiy vazifalarini bajarishga qodir bo'ladi:
 - Fuqarolarning begona g'oyalardan mustaqil dunyoqarashini va hur tafakkurini,¹² progressiv ijtimoiy ongni shakllantirishi;
 - Ijodiy, erkin fikrlaydigan, o'z bilimlari va kuchlariga ishonadigan shaxsni tarbiyalashi;
 - Insonlarning, ayniqsa yoshlarning, davlat mustaqilligi va taraqqiyot idealiga ishonchini mustahkamlash, haqiqiy insonparvarlik e'tiqodlarini mustahkamlash uchun xizmat qiladigan yuksak axloqiy muhitni yaratish;
 - Yurtdoshlarimizning o'zligini anglashi, ayniqsa milliy g'urur va qadr-qimmat tuyg'ulari, tarixiy xotiraga sadoqat, Vatanparvarlik, muqaddas qadriyatlarimizga ayaylab munosabatda bo'lish tuyg'ulari o'sishiga ko'maklashish;
 - Xalqda vijdonlilik va halollik, sahovatpeshalik, vazminlik va shu kabi axloqiy fazilatlarni shakllantirishi;

¹⁰ A. Minavayev "Ijtimoiy pedagogika" darslik qo'llanma 90b

¹¹ O'z dissertatsiya ishi "Talabalar milliy iftixor tuyg'usi shakllanishida klaster metodidan foydalanish mexanizmlari" 2022 yil CHDPU'uz

¹² Progress (lot. progressus — oldinga harakatlantirish) — rivojlanishning quyidan yuqoriga boradigan yo'nalishi

- Baynalmilal xalqimiz ongida "O'zbekiston-yagona Vatanimiz", "Vatanimiz tinchligi qalbimiz iftixori" degan dunyoqarashni yuksaltirish.

Mamlakatimizning "Ta'lim to'g'risidagi" qonuni va undagi o'zgartirishlarda belgilangan islohatlar juda muhim ahamiyatga ega. Bu esa Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ta'limni rivojlantirishga oid farmonlar va dasturlarda bajarish lozim vazifalarga javobgarligi ta'lim sohasi vakillari oldiga mas'uliyat yukladi. Ta'lim tizimida mazkur vazifalarni qanday bajarilayotganini dastlabki natijalari chuqur taxlil etilib, ta'lim andozalari, o'quv rejalari va dasturlari mazmuniga islohatlarning bosh maqsaddan kelib chiqqan holda yangi avlodni kamol toptirishga qaratilgan zarur tuzatishlar kiritildi.¹³ Ana shu vazifalarni bajarish ijtimoiy munosabatlarni uyg'unlashuviga xizmat qiladi, davrning tobora oshib borayotgan talablariga javob berishga qodir bo'lgan mutlaqo yangicha tipdagi shaxsning shakllanishini ta'minlaydi. Milliy g'oyani ong taraqqiyotida shakllantirish davomida ta'limni, ko'proq xalqning bola tarbiyasidagi yondashuvlarida, xalqning og'zaki ijodida, milliy o'yinlarda va jumladan qadriyatlarda o'z aksini topgan.

Xalqimiz orasida¹⁴ progressiv milliylik, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va¹⁵ etnografik o'timishni qadriyatini qayta tiklash, rivojlantirish hamda hozirgi hayotga, ta'lim-tarbiya ishlariga joriy etish bilan chambarchas bog'lash kerak.

Zero unutmazlik kerak har qanday insonning shaxsi ta'lim va ijtimoiy muhit asosida rivojlanadi. Yakunda u ijtimoiy jihatdan muhim bo'lgan vazifalarni bajaradi, ijtimoiy o'rnini o'zlashtirib oladi, o'zining qiziqishi, layoqatini ijodiy fikr qilib ko'radi, jamiyatning boshqa a'zolari bilan erkin munosabatga kirishadi va shu tariqa shaxsning ijtimoiylashuvi yuz beradi. Ijtimoiy pedagogika ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning alohida sohasi sifatida uning ommaviyligi, barcha aholi o'rtasida milliy istiqbol g'oyalarini targ'ibotini keng olib borish imkoniyatini beradi. Ijtimoiy pedagogika predmeti badiiy

¹³ Sh.M.Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston strategiyasi" 2021 yil 63b

¹⁴ Progress (lot. progressus — oldinga harakatlantirish) — rivojlanishning quyidan yuqoriga boradigan yo'nalishi

¹⁵ Etnografiya (grekcha: etno- xalq va ... grafia - yozaman), etnografiya — talabalar barcha xalqlarning, etnik birlikning turli tiplari, ularning kelib chiqishi (etnografiya) o'zgarishlarini, ularning ma'naviy taraqqiyot darajasidan qat'iy nazar, teng holda o'zaro talabalar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganuvchi maxsus fan sohasi.

ijodiyotdan shaxsga ta'sir etadigan hissiy -g'oyaviy vositalar jamlanmasidan keng foydalanish bilan farqlanib turadi. Ijtimoiy pedagogika Respublikamizda ham, yer yuzidagi boshqa mamlakatlarda ham o'z milliy va chuqur an'analarga ega. Shunga qaramay rus-sovet davrida ijtimoiy pedagogika yutuqlari e'tiborga olinmadi. Ana shunday muammolarni shaxsga, hamdo'stlik an'alariga, rahm-shavqatga, umummilliy an'analarga befarq bo'lish holatlari bilan izohlash mumkin. Bu esa Ijtimoiy sohadagi pedagoglar oldidagi vazifalarni qiyinlashtirib yuboradi. Shuning uchun ham ijtimoiy pedagogikani rivojlantirish va mazkur yo'nalishda mutaxassislar tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada ijtimoiy pedagogika yangi soha sifatida faqat ijtimoiy-pedagogik mutaxassislar davlat va nodavlat organlari boshqarmalarinigina emas, balki mutaxassislar tayyorlaydigan tizimni, shuningdek, ijtimoiy-pedagogik faoliyatining ilmiy-tadqiqot bazasini ham qamrab oladi.

Ijtimoiy pedagog so'ngi o'n yillikda tibbiyot xodimi kabi ommaviy kasbga aylandi desak yangilishmagan bo'lamiz. Chunki ba'zi kishilarda ijtimoiy kasallikni oldini olish va ma'naviy-axloqiy og'ishishini davolash «ijtimoiy epidemiya»ga **16**vaktsinatsiya bilan ishlashdan osondir.

Ijtimoiy pedagogikani fan sifatidagi imkoniyatlarini anglash uchun uning tadqiqot ob'ekti xossalari ko'rib chiqish lozim. Bu esa fanda ilmiy tadqiqot ob'ekti va predmeti tushunchasi mavjudligini ko'rsatadi va amalda ifodalaydi. Ijtimoiy pedagogikaning tadqiqot ob'ekti va predmetini tahlil qilishdan avval ijtimoiy pedagogika sohasiga atamalarini ko'rib o'rganib chiqish zarur. Bu uning atamalar bilan bog'liq izohli lug'atdan ko'rish maqsadga muvofiqdir. Ijtimoiy pedagogika "ijtimoiy" va "pedagogika" so'zlaridan tashkil topib ularni ma'nosini o'zida mujassamlashtirgan. Bu birlik fanda **17****differentatsiya** va integratsiya xodisalari bilan birgalikda namoyon bo'ladi. Yangi bilimlarni rivojlanishi ilmiy fikrlarni hayotga hayotga tatbiq etilishi, yangi muammolarni yuzaga kelishi jamiyatni

ilimga ehtiyojini yuzaga keltirish darajasi fanning farqlash va maxsuslashtirish an'anasi kuzatiladi. Sababi, asosiy fan maxsus fanlardan farqli mustaqil rivojlanuvchi xususiy tarmogga ajratiladi. Tizimli muammolarni hal etishda to'plam jihatidan bir ob'ektni o'rgatuvchi mustaqil fan birligini o'zida ifodalovchi integratsiya hodisasi kuzatiladi. Misol: pedagogikani boshqa turdosh fanlar bilan aloqasida tadqiqotning ob'ektlari ajratib ko'rsatiladi: texnologiya fani bilan birgalikda ta'limda chizmachilik bilan o'zaro munosabatlarda chizmachilik grafikasi, muhandislik texnologiyalari bilan birlikda uchratilishi tabiiy. Bunday misollarni ko'p uchratish mumkin. Ijtimoiy pedagogikada keyingi vaqtda farqlash xodisasi sezilarli darajada kuchaydi. Pedagogikaning fan sifatidagi kichik tarmoqlari ham o'z navbatida maktabgacha pedagogika, kichik maktab yoshidagi bolalar pedagogikasi, maxsus pedagogika, professional pedagogika tarmoqlari o'z navbatida tadrifiy rivojlanib, takomillashib bormoqda.


Ijtimoiy pedagogikaning ilmiy tadqiqot ob'ekti "pedagogika", o'rganadigan jarayon va voqelik bo'lib, u masalani muayyan, o'ziga xos aspektida quradi. Uning o'ziga xosligi esa «ijtimoiy» degan so'zda ifodalangan. Ijtimoiy pedagogikaning ob'ekti insonning ijtimoiylashuv jarayonidir. Xalqning boy merosi, pedagogikasidan, fan, madaniyat, jamiyat yutuqlaridan foydalanib, ijtimoiy pedagogika o'z nazariyasini, metod va texnologiyasini ishlab chiqadi. Ijtimoiy pedagogika davlat va jamiyat institutlarining ma'naviy ma'rifiy markazlari faoliyati sohasidir, bu yerda yangi qadriyatlar san'ati shakllantiruvchi va birlashtirib turuvchi faoliyat jamlanadi. «Ijtimoiy» tushunchasida insonlarning birga hayot kechirishi bilan bog'liq jarayonlar ifodalangan, ammo ularning muomalasi va o'zaro mulqotlari turli shakllarda bo'ladi.

Shunday qilib, pedagogika yosh avlod ta'lim-tarbiyasi to'g'risidagi fan bo'lib, ijtimoiy pedagogika jamiyat a'zolarini ijtimoiy tarbiyalash va ijtimoiy ta'lim beriladigan fandir. Pedagogik bilimlarning bu yangi tarmog'i mutaxassislikda «ijtimoiy» sozida namoyon bo'ladi. Umminsoniy tushunchalar esa insonlarning hayotiy faoliyati, ularning o'zaro mulqot» formalari bo'lgan narsa-xodisalarni o'zida birlashtiradi. Pedagogika yosh avlodni tarbiyalovchi va ta'lim beruvchi fan asoslari sifatida nomoyon bo'lsa, ijtimoiy pedagogika

¹⁶ Vaktsinatsiya - yuqorilarning va atrofdagilarning sog'lig'i haqida qayg' urish va e' amxo' rlik degani. Jamiyat hayotiga xavrixtob munosabatlarning bir belgisi, ta'bir jo'z bo'lsa, vatanparvarlik, demak...

¹⁷ Differentatsiya (frans. differentiation, lat. differentia — farqlanish, farq), xisossalashtirish — dastlab bir xil elementlardan iborat bo'lgan sistemaning sifat jihatidan farq qildigan bir qancha qismlarga ajratib ketishi.

ta'lim-tarbiya jarayonida bolaning jamiyat hayotiga kiritishni ta'minlaydigan va ijtimoiylashtirish aspektini tadqiq etadi.¹⁸ Insonni o'rta turgan atrofdagi muhit bilan o'zaro aloqasi va ta'sirlar asosida rivojlanishini uning ijtimoiylashtirish jarayoni sifatida ko'riladi. Zero, ijtimoiy



2-rasm Ijtimoiy pedagogik tizim strukturasini.

norma-ijtimoiy og'ishishlar, ma'naviyat, madaniyat qadr-qimmatlar egallash uchun zid hisoblanadi. Shuningdek, bu jamiyatda insonni o'z qobiliyatlarini realizatsiya qilish, nazorat qilish ijtimoiy tajribani egallash (bilimlar qadr-qimmat xulq-atvor qoidalarini jarayoni ijtimoiy hodisa deb nomlanadi).

Bolani ijtimoiylashtirish murakkab va davomli hodisadir. Bir tomondan har qanday jamiyat o'zining rivojlanish bosqichida ma'lum ijtimoiy, ma'naviy qadrlarini, o'zini tutishini, axloqiy qonun-qoidalarini, normalarni ishlab chiqadi. Jamiyat orasida yagona avlod shu jamiyatdagi qonun-qoidalarini egallab uning teng huquqli a'zosi sifatida yashab, faoliyat ko'rsatishni ko'zda tutadi. Buning uchun jamiyat ta'lim-tarbiya normasi orqali shaxsga ta'sir ko'rsatadi. Ikkinchi tomondan, atrofdagi olamda sodir etilayotgan turli hodisalar uning shakllanishiga ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Jamiyat o'zaro munosabatda bo'lgan o'zaro harakatlanadigan xilma-

xil ijtimoiy institutlarni o'zida namoyon qiladi. Shular orqali bola tomondan ijtimoiy normalarni egallash jarayoni amalga oshadi. Bulardan ba'zilar bolani rivojlanishi va ijtimoiy shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi, boshqalari esa uning shaxsiy sifatlarini shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday ijtimoiy ob'ektlar qatoriga oila, ta'lim, madaniyat va diniy muassasalar kiritish zarur. Oilada ota-ona va farzandlarni tarbiyalash uchun ulardagi o'zaro izzat-iktromni amalga oshirishda baholalanadi. Ijtimoiy pedagogik faoliyatni asosan otaning mas'uliyatli vazifalarida belgilangan.

O'z qobiliyatini inson jamiyatda ko'plab quyidagi jarayonlarda amalga oshirishini ko'rish mumkin;

A) Kishini jamiyat bilan ¹⁹**stixiyali** o'zaro munosabatlarda va uning hayotiy jabhalariga stixiyali ta'lim jarayonida o'zini tutishi;

V) Inson rivojlanishi, uni tarbiyalash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

G) Inson o'zini-o'zi tarbiyalashi va rivojlantirish jarayonida yetuk qobiliyatni ko'ra olish mumkin. Shunday qilib, rivojlanish insonni shakllanish jarayoni, ijtimoiylashtirish konkret ijtimoiy sharoitlar asosida rivojlantirishdir.²⁰ Inson tarbiyasi asosan oilada amalga oshiriladi. Oila muqaddas hisoblanib barcha ijtimoiy tarbiyaga belgilangan istaklar amalga oshirilishi rejalashtirilgan.

Ijtimoiy pedagogika insonlarning butun egalayotgan, davom etayotgan, amalga oshiradigan ijtimoiy tarbiyani tadqiq etish va ta'sir ko'rsatish jarayonida yuzaga keladi. Bu xolatda biz oilaviy pedagogika ob'ekti bo'lgan oilaviy xususiy tarbiyalarida mulohaza yuritamiz. Tarbiyalash diniy idoralar orqali amalga oshadi. Bunda konfessional tarbiyaga duch kelamiz. Tarbiyalash asosan davlat va jamiyat tomondan mutassadi tashkilotlartomonidan olib boriladi. Bu ijtimoiy pedagogikaning ilmiy tadqiqot ob'ekti bo'lgan ijtimoiy tarbiyalash jarayoni xususida fikrlashga keltiradi. **Ijtimoiy tarbiyalash** siyosatshunoslik va sotsiologik qarashlar, ijtimoiy yo'nalishlar, ijtimoiy ongni rivojlanishiga oid jarayonlarning tarkibiy qismi hisoblanadi. Ijtimoiy pedagogika o'z mazmunida ijtimoiylashtirish oldida o'rganadi ya'ni, koinot, mamlakat

¹⁸ **Stixiyaga** - kishilar-ning irodasidan, xohishidan tashqari tabiiy kuchlar ta'siri ostida yuzaga keladigan.

¹⁹ Ushnimgan, to'g'ri tashkili e'timagan, idora qilib bo'lmaydigan.

²⁰ A. Muminov "Ijtimoiy pedagogika" darslik 92b

maktablaridagi inson tarbiyasiga ijtimoiy omillar orqali ta'sir etish, ishlab chiqarish tarbiyasida oila, ommaviy axborot vositalari, atrofda odamlar bilan mulqot o'rini ko'rib chiqadi.

Shu o'rinda quyidagi savolni keltirish tabiiy: Ijtimoiy pedagogikani nima uchun o'rganish lozim?

Ijtimoiy pedagogika-fanning shunday tarkibiy qismi hisoblanadiki uning vositasida:

Birinchidan inson hayotda ma'lum sabablar asos ichida yuzaga kelgan xodisalarini o'rganish;

Ikkinchidan insonning rivojlanishi uchun qillay sharoitlar yaratilishini ko'zda tutish;

Uchinchidan ta'sir etuvchi xodisalarini oldini olish kabilarini keltirib o'tish mumkin. Ijtimoiy pedagogika o'quv predmet sifatida ijtimoiy pedagogik faoliyat tasvirini belgilaydigan vazifasini amalga oshiradi. Bu vazifani amalga oshirish ijtimoiy pedagogikani o'rganish jarayonida talabalar tomonidan bir qator maqsadlarni amalga oshirishni ko'zda tutadi: ma'lum doiradagi nazariy bilimlarni egallash va bularni amalda qo'llash muammoni oldindan ko'rish va yechishga sub'ektiv va ob'ektiv ijtimoiy jarayonga ko'ra ijtimoiy gumanistik munosabatlarni shakllantirish.

Asosan ijtimoiy pedagogika ijtimoiy mustaqil tarbiya muammosini o'rganadi. Bu ijtimoiy pedagogika fani bo'yicha o'quv kursini tuzilishini o'zida aks ettiradi. U ijtimoiylashtirish jarayonini ijtimoiy pedagogik xodisa sifatida o'rganadi. Ijtimoiy pedagogika pedagogikaning bir bo'laki bo'lib u kishilar jamoasi hamda alohida shaxslarga ta'lim tarbiya jarayonidagi ijtimoiy muammolar ularning kelib chiqish sabablari hamda bu muammolarning bartaraf etilishining nazariy va amaliy jihatlarni o'rgatadi. Ijtimoiy pedagogika fani ijtimoiy shaxsning o'ziga xos milliylik tomonlarini tarbiya jarayonida o'rgatib boradi.

Pedagogika va ijtimoiy pedagogika bir-biriga juda bog'liq, lekin ularning farqi shundaki, pedagogika fani ijtimoiy shaxsning faqat ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanadi. Ijtimoiy pedagogika esa bola shaxsini va uning bolaligini himoya qiladi.

Ijtimoiy pedagogika fanining maqsadi va vazifasi. Ijtimoiy pedagogika fanining maqsadi jamiyatdagi har bir shaxsning hayotida uchraydigan ijtimoiy muammolarni bartaraf etish va hal

qilishdan iborat. Ta'lim-tarbiya masalalari bilan shug'ullanish, kelesalar, qariyalar, kasal va boquvchisini yo'qotganlar, mehirbonlik uyida tarbiyalanayotgan bolalar xolidan xabar olish. Shu jumladan to'xtashbozlik, narkomaniya va qonunbuzarlikka qarshi kurashish. Bu illatlardan jamiyatni, ayniqsa kelajak avlodni himoya qilish zarur.

Ijtimoiy pedagogika faning vazifasi quyidagi to'rt bosqichni o'z ichiga oladi.

1. Bolani va o'smorni to'g'ri so'z qilib tarbiyalash va voyaga yetkazish;

2. Shaxsning erkin fikrlashi, muammoga duch kelganida erkin halqila olishi va munosabatini erkin bildirishi;

3. Atrofdagi kishilar bilan erkin va madaniy holda muomalani o'rgatish;

4. Hayotdagi maqsad va vazifalarini ongli ravishda tushunishga o'rgatish;

Respublikamizda ijtimoiy pedagogikani qayta tiklash va uni zamon talabiga mos yangi bosqichga ko'tarish uchun xorij mamlakatlarning tajribasini o'rganish, bu sohadagi ilmiy qarashlarni va milliy tadbirlarni rivojlantirish bu jarayon davomida yuzaga keladigan muammo va qiyinchiliklarni tashkil qilish ham katta rol o'ynaydi. Ijtimoiy pedagogika va ijtimoiy ishlarining rivojlanish tarixi juda yaqin davrlarga taqaldi. Eng avvalo, ularni odamlarga alohida g'amxo'rlik va e'tibor talab etadigan madaniy-tarixiy an'ana birlashtirib turadi. Ijtimoiy pedagogika va ijtimoiy ishlarida "raxm-shavqat", "xayriya", "yordam" kabi tushunchalar juda ko'p ishlatiladi. Ammo ularning aniq ifodalangan o'ziga xos jihatlari ham bor, mamlakatimizning dastlabki rivojlanish bosqichida ular rasman tan olingan institut sifatida namayon bo'ldi, masalan, ijtimoiy ishlar aholini ijtimoiy himoyalash sohasida rivoj topdi, ijtimoiy pedagogika esa, yuqorida ta'kidlangandek, ta'lim tizimida va yoshlar ishlari biyicha qo'mita muassasalarida rivojlandi. Ijtimoiy pedagogik va ijtimoiy xodimlar faoliyati asta-sekin kengayib, biri ikkinchisini to'ldira bordi. Ishlarini uzviy ravishda kishi, ya'ni ma'naviy-mafkuraviy faoliyatini pedagogika bilan birga olib borish uchun zarur sharoit yaratish lozim. Bu ijtimoiy pedagogika sohasidagi yangi ijtimoiy buyurtma hisoblanib, tadqiqot ishlarini yo'lga qo'yishda xaqiqiy shijoat talab etadi.

Ko'pgina mustaqil fanlarning birlashishida bir ob'ektni har xil nuqtai nazardan o'rganganda integratsiya muammosi kuzatiladi. Ijtimoiy pedagogika alohida fan va faoliyat sifatida bolaning ijtimoiy muhitida rivojlanish(sotsiialda rivojlanishi) bilan shug'ullanadi. Sobiq sho'rolar davrida ijtimoiy pedagogika tushunchasi deyarli qo'llanilmadi. Ijtimoiy pedagogikani ijtimoiy falsafada inson, muxit va tarbiya, shaxsning shakllanishi, o'qitish, insonning tug'ilganidan to umrining oxirigacha faqat tashqi omillar ta'sirida bo'ladi deb tushintirildi. Ijtimoiy pedagogik tarbiyalash jarayonini, shaxs sotsiologiyasini amaliy va nazariy tomonidan ko'rib chiqadi. U inson xulq-atvorining tashqi muxit ta'sirida o'zgarishini yoki mos kelishini o'rgatadi, bu shaxsni ijtimoiylashtirish deyiladi.

Xozirgi davrda ijtimoiy pedagogika – «bu barcha yoshdagi va ijtimoiy tabaqadagi odamlarni, maxsus ushbu maqsad uchun tashkil qilingan muassasalarda ijtimoiy tarbiyalashni o'rganadigan pedagogikaniing soxasi xisoblanadi» (A.V.Mudrik).

zIV.D. Semyonov ta'kidlashicha, «ijtimoiy pedagogika yoki muxit pedagogikasi yondosh fanlarning ilmiy yutuqlarini o'zaro bog'laydigan va ularni ijtimoiy tarbiya amaliyotida foydalanadigan ilm sohasi xisoblanadi».

Ijtimoiy pedagogika yosh davrlar pedagogikasi, pedagogika tarixi, ijtimoiy falsafa, ijtimoiy psixologiya fanlari bilan chambarchas ravishda rivoj topmoqda. «Ijtimoiy pedagogika» ta'lim-tarbiya sotsiologiyasi va xozirgi davrdagi jamiyatdagi tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishni o'z ichiga oladi. Mustaqillikdan so'ng ijtimoiy pedagogikaniing ijobiy xususiyati shundaki, uning insonparvarlik yo'nalishida bo'lishi, bolalarga bo'lgan xurmatning birligi, ya'ni birga faoliyat yuritish xisoblanadi. Shaxsga ko'mak berish, xar-xil qiynoqlar ko'rsatmaslik ijtimoiy pedagogikaniing insonparvarligi hisoblanadi. Ijtimoiy pedagogikaniing ijtimoiy tarkibining qiyinchiligi tushgan insonlarga yordam berish, oilada bolaga o'z o'rnini (xayotda) topishda o'z ko'nikma va malakalari asosida yordamlashish. Shuningdek, axloqiy munosabatlarning shakllanishiga imkon yaratadi. Demak, ijtimoiy pedagogika–ijtimoiy tarbiya va bilim berish reaksiyasini oshirishga, o'ziga xos aloxida usullarga ega bo'lgan pedagogikaniing bir qismi

hisoblanadi. Ijtimoiy pedagogika usullari shaxsga uning o'z-o'zini shakllantirishga, tarbiyalashga, tashkil qilish va mustaxkamlashga qaratilgan bo'ladi. Xaqiqiy tarbiya bolaning ruhiyatini, bilim, tajriba va qiziqishini teran tushunishni talab qiladi. Muayyan yutuqqa erishish uchun bolani o'rgatish, nazorat qilish xarakterlariga tanqidiy ko'z bilan qarash, uning yashayotgan sharoitini bilish atrof-muxitning unga ta'sirini bilish zarur bo'ladi.²¹ Ijtimoiy tarbiya kishiga, uni shaxs sifatida shakllanishiga muayyan turmush sharoitlarida yutuqqa erishishda, ijtimoiy munosabatlardagi yo'nalishlarini ko'cha-kuyda va maktabdan tashqari maktabdan tashqari muassasalarida faoliyat bajaradi.

"Ijtimoiy ish" atamasi kishilarga, jamoaga, ularning ijtimoiy sharoitlarini yaxshilashga yordam beradigan kasbiy ishchanglikni anglatadi.

Ijtimoiy pedagogika ishchanglik- bola (o'spiringa) o'zining psixik xolatini tashkil qilishni, oylada, maktabda, jamiyatda yaxshi munosabatlarni joriy etishga yordamlashishga yo'naltirilgan.

Xozirgi davrda bolani (o'spirinni) ijtimoiylashtirish amalga oshirilmoqda. Uni jamiyatda azob berishga, xuquq buzishga, yolg'ochilikka alkogolchilikga, narkomaniyaga, ota-onaning qattiq qo'lliliga qarshi turishga yordam berish kerak. Shuningdek, jamiyatda o'zini yaxshi tomonidan ko'rsatishga, o'z-o'zini tarbiyalashga, axloqiy munosabat odobini bilishga o'rgatish kerak.

Shunday qilib, ijtimoiy pedagogika asosida shaxsni tarbiyalash (jamiyatda va jamiyat uchun) bo'lar ekan, ijtimoiy pedagogikaniing vazifasi erkin, ijodkor, isonlar bilan yaxshi munosabada bo'lishga moyil, o'z sog'ligi va vaqti uchun javobgarchilik xissini sezadigan fuqorani shakllantirishdan iboratdir. Ijtimoiy pedagogikaniing ob'ekti davlat, ijtimoiy va shaxsiy ta'lim muassasalaridagi ta'lim va tarbiyadir. Xozirgi sharoitda bu ijtimoiy pedagogikaniing nazariy va amaliy munosabatlari: bolalarni ijtimoiy tomonidanmuxofaza qilish xar xiltarbiya va ta'lim muassasalari, oyla, pedagogik jamoalarning bolalar bilan olib boriladigan ijtimoiy ishchangligining nazariy va metodik masalalari hisoblanadi.

²¹ B.D.Семёнов «К вопросу о сущности педагогического процесса»

²² B. [img] uniboyev, M. To'ldirov, I.Oxunov "Ijtimoiy pedagogika asoslari" o' quv qo'llanma 123b

Ijtimoiy pedagogika tarbiya jarayonida oila tarbiyasining o'ziga xos xususiyatini, milliyligini, diniy qarshilarini va jamoa tarbiyasining o'ziga xosligini xisoblaydi.²³ Ijtimoiy pedagogikaning faoliyatining tuzilishi (funktseysiyasi):

1. Bolaning(o'spirinning) axvolini, oiladagi, maktabdagi, maxalladagi, jamoadagi munosabatini ziddiyatli sharoitlarini o'rganishdan iborat.

2. Qiyin sharoitda yashayotgan bolaga ko'mak berish. Inqirozdan chiqish yo'lini, variantlarini topish, og'ir sharoitlarida uni qo'llab-quvvatlash.

3. Bolani o'rab turgan muhit va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning axvolini bilish, talqin qilish.

4. Ijtimoiy pedagogika va ijtimoiy tarbiyani talqin qilish umumiy lashtirish va tashviqot qilishni amalga oshiradi.

5. Ijtimoiy pedagog bolaning muammolari bilan mashxur bo'lgan mutaxassislar tashkilotlarning xarakatlarini yo'naltiradi.

6. Ijtimoiy pedagogika xar xil ijtimoiy tarbiya muammolarini tadqiqot qilishni va xar-xil pedagogik markazlarining ishlarini talqin qiladi va tashkillashtiradi.

Shunday qilib, ijtimoiy pedagogika funksiyalari (faoliyati) quyidagilardan iborat:

-tarbiya asosida;

-ijtimoiy qonunlar asosida;

-ijtimoiy-sog'lomlashtirish asisida;

Tarbiya asosida bolani o'rganan atrof-muxitga kiritish uni ijtimoiylashtirish jarayonidandir. Uning ta'lim-tarbiya jarayonida moslashishidan iborat bo'ladi.

Ijtimoiy qonunlar asosida-davlatning bolalarga gamxo'rligini, ularni qonuniy xaq-xuquqlarini ximoya qilishni anglatadi.

Ijtimoiy - sog'lomlashtirish asosida majruh bolalar, jismoniy yoki psixik jixatdan kamchiligi bor bolalar bilan o'tkaziladigan ta'lim- tarbiyaviy ishlar bo'lib, bunda pedagog asosiy ijtimoiy faoliyatini bajaradi. Ijtimoiy pedagogikaning faoliyat masalalariquyidagilardan iborat:

1. Bola ongida saxovatlilik, adolatlilik yaqinlariga barchaga xurmat-izzatda bo'lish tushunchalarini tarbiyalash;

2. Yosh krizisdan chiqish(mustaqil ravishda), xayotning maqsadi va mazmunini aniqlash;

3. Tevarak-atrof muxitini, odamlarning jismoniy va diniy o'zgachaligini, jamiyatdagi xuquq va vazifani xis qilishni rivojlantirish;

4. O'zining obrusini erkinligini ishonchini rivojlantirish;

5. Bolaga katta kishilar bilan va o'z tengqurlari bilan qanday munosatda bo'lish kunikmasini shakllantirish;

6. Insonlar o'rtasidagi qarama-qarshilikni shaxs va jamiyatdagi ziddiyatlarini yechishda axloqiy va xuquqiy qonuniyatlarga asoslanish kerakligini tushuntirish;

Mazkur amaliy vazifaning mazmuni shundan iborat xar bir narsaga xurmat bilan qarash, o'z xayotini tashkil qilishga o'rgatish, bilish qiziqishlarini rivojlantirish, o'zining shaxsiy imkoniyatlaridan foydalanishga o'rgatish.

MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Ijtimoiy pedagogika fanining asosiy tushunchalari nimalardan iborat?

2. Ijtimoiy pedagogika fanining asosiy faoliyati nimadan iborat?

3. Xozirgi davrda ijtimoiy pedagogika fanining mavqeyi xaqida nima bilasiz?

ADABIYOTLAR:

1. Shul'gin V.N. «Osnovnie voprosi sotsial'nogo vospitaniya» M-

1994

2. Shurkova «Novie texnologii vospitatel'nogo protsesssa» M-1994

3. Galaguzova M.A. i dr «Sotsial'naya pedagogika» M-1994

4. M.V. Firsov Antologiya sotsial'noy raboti M-1994

5. Klayberg Yu.A. Sotsial'nie normi i okklyucheniya M-1997

O'ZBEKISTONDA IJTIMOY PEDAGOGIKA VA PEDAGOGIKA SOTSIOLOGIYA FANINING PAYDO BO'LISHINING MADANIY TARIXIY, IJTIMOY-HUQUQIY SHART-SHAROITLARI

Ijtimoiy pedagogika bundan 230 ming yil oldin ham o'z tushunchalarini kishilar orasida amaliy ifodalab kelgan. Faqat unda bu fanning tushunchalari pedagogikaning tushunchalarida ifodalanib kelgan. Asosan Ijtimoiy pedagogikaning ilk kurtaklari Evropa va Osiyoda yozilgan. Mazkur fan asosan 820-829 yillardan boshlab rivojlangan, albatta fan bo'lib emas balki fanni ob'ektiivi sifatida falsafiy qarashlarda asolangan. Birichi qo'llash jarayoni pedagogik sotsiologiya fani sifatida qabul qilingan. Pedagogik sotsiologiya fanning integratsiyon bo'limi sifatida qaraldi. Har bir fan anq bir xaqiqatdanajralib chiqadi, uning negizini asoslaydi.

Ammo unitmasilik kerak hech qachon ilmiy bilimlar amaliy faoliyatidan alohida rivojlanmaydi. Aynan amaliyot istalgan fanning nazariyasida manbaa hisoblanadi. Boshqa tomondan, barcha amaliyotlar ham agar ilm-fan yutuqlariga asoslangan bo'lsa samarali kechadi. Ijtimoiy pedagogikaning mustaqil fan sifatida ham, amaliy faoliyat muhiti sifatida ham ajratadilar, unutmasilk kerak aslida ular bir-biri bilan o'zaro chambarchas bog'liq.

o'qali oshadi. Mashq qilishi va ishonitirish metodlari o'zaro chambarchas bog'liq. Ijtimoiy pedagogik metodlar orasida muhim guruhni korreksiya metodlari tashkil qiladi, unga rag'batlantirish va jazolash metodlari kiradi. Ijtimoiy pedagogika fan sifatida ajralib chiqishida tarix guvohlik beradiki, rag'bat va jazolash bola shaxsiga ta'sir qilishining murakkab usullaridir. Rag'batlantirish va jazolash bir maqsadga yo'naltirilgan, ya'ni ma'lum axloqiy sifatlarni bola harakterida shakllantiradi. Lekin bu maqsad turli yo'llar bilan amalga oshiriladi: rag'batlantirish harakati va xolatni ma'qullaydi. Jazolash esa noto'g'ri harakat va faoliyatni qoralaydi.

Ijtimoiy pedagogning amaliy faoliyatida bu metodlarning turli xil turlari qo'llanilishi mumkin. Modomiki bolalarda adashish va xato qilish xos ekan, qayta ishonitirish, ogoxlantirish, qiziqishlarini o'zgartirish va jazolash metodlarni qo'llash mumkin. Qayta ishonitirish bola ongidan noto'g'ri tasavvurlar, xatto hayotiy rejalarini aqliy tasavvurlar va qarashlar o'qali surib chiqarish. Bu ishonitirish metodining bir turidir. Ogoxlantirish ijtimoiy pedagog va pedagog faoliyatiga keng qo'llaniladi va u bola noto'g'ri harakatni oldini oladi va noto'g'ri faoliyatga yo'l qo'ymaydi. Yuqorida ko'rib chiqilgan metodlar ijtimoiy pedagogikada alohida emas balki bir-biri bilan bog'liq holda qo'llaniladi.

MUSTAXKAMLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. Ijtimoiy pedagogikaning metodlari qaysilar?
2. Ijtimoiy pedagogika fanida suxbat metodi qanday tushunchaga ega?
3. Ijtimoiy pedagogikada sotsiyometrik metod nima?
4. Ijtimoiy pedagogik metodologiya qaysilar?

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi ta'lim to'g'risidagi qonuni va milliy dasturlari. T.1997 y. Ta'lim to'g'risida qonunga qo'shimcha va o'zgarishlar. 2020 y 23 sentabr T.
2. I.A.Karimov. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T.1999 y.
3. I.A.Karimov. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T.1999y.
4. A.Munavvarov. Pedagogika. T. 1996 y.

5. Maktab ta'limining ijtimoiy - pedagogik boshqaruvi. Sh.Qurbonov.Xalq ta'limi 46-50bet. Xalq ta'limi.No1.98y.

O'ZBEKISTONDA FAOLIVAT OLIB BORUVCHI IJTIMOIV REABILITATSION MUASSASALAR

Maxsus statistika va sotsiologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ko'plab mamlakatlarda bolalar va o'smirlar nochor axvolda yashamoqdalar. Bu nochorlik ularning:

- psixologik va fiziologik sog'lig'ining susayishida;
- xaq—xuquqlarining buzilishida;
- ularga nisbatan kuch ishlatilishda;
- alohida pedagogik faoliyat talab etiladigan hamda ijtimoiy kelib chiqish past oila farzandlarining maktablardan siqib chiqarilishida;
- ishga joylashtirishda umumdavlat tizimining ish olib bormasligida;

• defektor, aqliy yoki jismonan zaif yoshlarni ish bilan ta'minlash muammolarning nazardan chetda qolganligida namoyon bo'lmoqda.

Bu masalalar balog'atga yetmagan bolalar orasidagi jinoyatchilik sonining ortib borishiga sabab bo'lmoqda. Shuning uchun ham:

1. Bolalar va yoshlarning ijtimoiy hayotini sog'lomlashtirishga;
2. Ularning ichki ma'naviy dunyosini sog'lomlashtirishga doir chora-tadbirlar kerak bo'ladi. Buning uchun:

- bolalar va o'smirlar rivojlanishining buzilish sabablarini aniqlash, ularni hal etish usul va vositalarini aniqlash;
- normal shaxsni rivojlanitirishga qaratilgan tarbiya jarayonini adekvat tahlil etish.

Voyaga yetmagan yoshlarning psixologik inqirozini bartaraf etish faqatgina jamiyatni (iqtisodiy, ma'naviy va siyosiy) sog'lomlashtirish va umuminsoniy qadriyatlar asosida shaxsni rivojlanitirishni ta'minlaydigan tarbiya tizimini yaratish asosida amalga oshiriladi. Bunda eng asosiy vazifalardan biri bolalar va o'smirlarga yordam ko'rsatish tizimini tubdan islox qilishdir. Bu

tizim bolalar va o'smirlarning ma'naviy—axloqiy sog'lig'ini, konstitutsion xaq—xuquqlarini himoya qilishga qaratiladi. Bulardan biri bolalar xuquqini himoya qilish xaqidagi konventsiyadir.

Bolalar va o'smirlarga yordam ko'rsatish xizmati strukturasi va tuzilish tamoyillari

Yordam ko'rsatishning reabilitatsion xizmati bolalar va o'smirlarga ijtimoiy—

xuquqiy, psixologik, tibbiy va pedagogik jixatdan qo'llab quvvatlashni ta'minlashga qaratilgandir. Bu xizmat ularning:

- turmush sharoiti va tarbiyasini jadallashtrishga ko'mak berish orqali;

- shaxsiy mol-mulka egalik xuquqlarini himoya qilish orqali;

- voyaga yetmagan yoki ekstremal(masalan halokatga uchragan) xolatlarga tushgan, sharoiti og'ir oila farzandlariga turli xil yordam berish orqali;

- qaltis guruxdagi oilalar va voyaga yetmaganlarga yordam berish orqali;

- kashandachilikka ruju qo'ygan oilalarning, ekstremal xolatlarning qurbon bo'lgan, yoki ota—onasiz qolgan voyaga yetmagan bolalarga turli xil yordam berish orqali amalga oshiriladi. Ijtimoiy xuquqiy, psixologik—tibbiy va pedagogik yordamlar quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- qonunga muvofiqlik;

- insonparvarlik;

- adolatparvarlik;

- demokratiya;

- tashkilotchilik va nazorat;

- differentsial va individual yondashish;

- o'z vaqtida yordam berish;

- yordamning yetarli va kompleksli bo'lishi;

ilmiy asoslanganlik va xizmat ko'rsatishda xududni hisobga olish. Xududiy tamoyildan kelib chiqqan holda xizmat ko'rsatish ma'lum davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi. Xizmat tajribalarini umumlashtirish, ilmiy metodik tavsiyalar berish, xizmat ko'rsatish xodimlarining malakasini oshirish uchun shahar, viloyat, tuman va Respublika ilmiy metodik markazlarini tashkil

etiladi. Ularning eng asosiysi tuman ijtimoiy xizmat ko'rsatish tashkilotidir. Bolalar va o'smirlarga yordam ko'rsatishning tuman xizmat bilimlari quyidagi strukturadan tashkil topgan:

1. Psixologik-tibbiy, pedagogik yordam ko'rsatish;

2. Kasb tanlash biyicha maslaxat berish bo'limi;

3. Tashkiliy axborot bo'limi;

4. Metodik ishlar bo'limi;

5. Oilaviy hayotning uyg'unligini ta'minlash va jinsiy tarbiya bo'limi;

6. O'qituvchi va tarbiyachilar bilan maslaxat berish ishlarini olib borish bo'limi;

Ta'lim tizimidagi xududiy reabilitatsiya xizmati bir xudda bolalar va o'smirlarga ijtimoiy yordam ko'rsatish xizmati ma'lum kontingent asosida xududni inobatga olish tamoyilidan kelib chiqib amalga oshiriladi. Ta'lim tizimining reabilitatsiya xizmati—bu har bir bolaning yaxshi rivojlanishini va ijtimoiylashuvini ta'minlovchi, ularni kompleks holda reabilitatsiya qilishda qaratilgan elitar, adaptiv tashkilotlar (maktablar), profilni (kesim) tashkilotlarning umumiy xizmatidir. Reabilitatsiya qilish xizmatining asosiy maqsadi bolalarning rivojlanishidagi, xulq — atvoridagi, faoliyatidagi kamchiliklarni oldini olib profilaktika qilish va qayta tiklashdan iboratdir.

Reabilitatsiya qilish xizmatining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- bolalar va o'smirlarning rivojlanishidagi o'zgarishlarning (deformatsiyalanish) sabablarini aniqlash;

- ularni bartaraf etishning vosita va usullarini topish;

- ta'lim—tarbiya va yashash sharoitini jadallashtrish;

- normal shaxsning shakllanishiga qaratilgan adekvat(bir xil) pedagogik jarayonni vujudga keltirish;

- maxsus reabilitatsiya xizmatga maqsad bolalarga korreksiya rivojlantiruvchi maxsus dasturlar asosida har tomonlama yordam berish va x.k.

Reabilitatsiya qilish tamoyillari:

- xuddagi iktisodiy, ijtimoiy, xududiy uziga xosliklarni inobatga olish;

- reabilitatsiyey tadbirlarning xilma — xilligi;

- pedagogik, ijtimoiy pedagogik va biologik metodlarning birligi;

- bosqichlilik, individuallik, gumanistik yondoshish.

Reabilitatsion xizmat ko'rsatishning ahamiyati:

- bolaning sog'ligini, qiziqishi va xuquqlarini himoyalashdan;
- deviatziya xolatidagi rivojlanishni oldindan profilaktika qilishdan;

- pedagogik jarayonni insonparvarlashtirishni tashkil etishdan iboratdir.

Reabilitatsiya qilish ob'ektlari va sub'ektlari:

1. Ijtimoiy-pedagogik jihatdan qarovsiz qolgan bolalar;

2. Voyaga yetmagan xuquqbuzarlar, deviant, dezadaptatsiya qilingan bolalar va yetimlar.

3. Psixosomatik va asabiy-ruxiy kasallangan bolalar;

Reabilitatsion xizmatni boshqarish modeli va uni amalga oshirish mexanizm» xuddagi ijtimoiy madaniy vaziyatlarning o'ziga xosligi reabilitatsion xizmatning ma'lum modelini yaratish imkonini beradi. Bu model bola va o'simirlarning:

1. Umumorganizmini reabilitatsiya qilish (tibbiy);

2. Shaxs sifatida reabilitatsiya qilish (psixologik);

3. Ijtimoiy sub'ekt sifatida reabilitatsiya qilish (ijtimoiy);

4. Faoliyat sub'ekti darajasiga ko'tarishga qaratilgan reabilitatsion xizmati bo'lishi kerak. Bu quyidagi shakldagi ko'rinishga ega bo'ladi:

Bolalar va o'simirlarni kompleks reabilitatsiya qilish modeli tibbiy reabilitatsiya, pedagogik reabilitatsiya, sub'ektiv t'lim faoliyati, sub'ektiv tarbiyasi og'ir bola. Ijtimoiy sub'ekt reabilitatsiya psixolog xuddiy reabilitatsion xizmati xodimlarining faoliyati samarali kechadi, agarda ular quyidagi mexanizm asosida faoliyat yuritarsalar:

- reabilitatsion xizmat kirsatishda muassasalararo umumshamkorlik;

- reabilitatsion xizmat ko'rsatishni ilmiy metodik tao'minlash reabilitatsiya xizmatda kadrlar masalasi;

- reabilitatsiya qilish ob'ektlarini tanlash va diagnostika qilish reabilitatsiya sub'ektlarining kelishuvi asosida faoliyat;

MUSTAXKAMLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. Ijtimoiy pedagogika fanida reabilitatsiya nima?

2. Ijtimoiy pedagogianning xulq atvordagi muammolarni o'rganish qaysilar?

3. Ijtimoiy pedagogik reabilitatsiyani amalga oshirish qaysilar?

4. Ijtimoiy pedagogik reabilitatsiyaga olish shartlari qaysilar?

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi. Ta'lim to'g'risida qonun. T.1997y.

2. I.A.Karimov. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T.1999 y.

3. I.A.Karimov. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T.1999y.

4. A.Munavarov. Pedagogika. T.1996 y.

5. Maktab ta'limining ijtimoiy – pedagogik boshqaruvi. Sh.Qurbonov.Xalq

Ta'limi 46-50bet. Xalq ta'limi.№1.98y.

OHILADA OLIB BORILADIGAN IJTIMOIY-PEDAGOGIK FAOLIYAT

Oltinint tipalogiyalari mavjud bo'ladi: psihalogik, pedagogik sotsialogik. Ijtimoiy pedagogning faoliyati vazifalariga kompleks tipalogiyasi javob beradi, u jamiyatda ijtimoiy moslashuv darajasi bo'yicha farq qo'yiladigan oltinint to'rt kategoriyadagi tiplarini ajratishni ko'zda tutadi:

1. Yuqori darajasi-mustahkam oilalar;

2. O'rta darajasi-xafi bor oilalar guruhi;

3. Past darajasi-notinch (baxtsiz) oila;

4. Juda past darajasi-asotsional oilalar;

Tinch baxti oilalar o'z vazifalarini bajara oladilar.

Ijtimoiy pedagog yordamga deyarli muxtoj emas. Bunday oilalar moslashish qobiliyatlari xisobiga, yani moddiy, psixologik va boshqa ichki imkoniyatlarga asoslangan qobiliyati hisobiga o'z bolalarining talab-extiyojlariga tez moslasha oladi va uni tarbiyalaydi. Rivojlantirish masalalarini muvaffaqiyatli hal etadi. Ma'nolar paydo

bo'lgan xollarda ularga ijtimoiy pedagogikaning bir martalik yordami (maslaxati) yetari bo'ladi.

Xavfi bor guruxli oilalar qoidalaridan bir muddat chetanishi bilan ifodalanadi (to'liq bo'lmagan oila, kam taminlangan oila va shu kabilar). Bular oilaning moslashish qobiliyatini pasaytiradi, bolalarni tarbiyalash vazifalarini o'zlarining ko'p kuchlarini ishlatib bajaradilar, shuning uchun ijtimoiy pedagog oila xolatini kuzatib borishi kerak va kerak bo'lganda o'z vaqtida yordamini taklif etishi zarur.

Notinch oilalar. Bu hayot faoliyatining biror bir sohasida yoki bir vaqtda bir nechtasidan past ijtimoiy mavqeyiga ega bo'lgan oilalar masalan oila daromadi past darajada, yomon psixologik muhit, madaniyat darajasi passiv xolatlarda kuzatiladi. Bunday oilalar ularga yuklatilgan vazifalarni bajara olmaydilar, ularning moslashish qobiliyatlari past, bolani oilada tarbiyalash jarayoni katta qiyinchiliklar bilan o'tadi. Natijasi kam bo'ladi. Bunday turdagi oila uchun ijtimoiy pedagog tomondan faol davomiy yordam kerak bo'ladi.

Assatsional oilalar. Ota-onalar xulqi yomon, qonunga xilof ravishda xayot kechirayotgan oilalar va bu oilalarda yashash-turmush sharoitlarni eng oddiy sanitariya-gigienik talablarga javob bermaydi. Bunday oilalarda odatda bolalar tarbiyasi bilan xech kim shug'ullanmaydi, bolalar qarovsiz qoladilar, yarim och bo'lib rivojlanishda ortda qoladilar, ota-onalar, boshqalar tomonidan ham jabritlanadilar, ijtimoiy pedagoglarning bunday oilalar bilan ishlashlari, xuquqni himoya qilgan organlari bilan birgalikda hamda vasiylik qilish organlari bilan hamkorlikda olib borilishi kerak.

Oilaga ijtimoiy-pedagogik yordam shakillari. Chet el amaliyot maqsadlarida uzoq, vaqti va xorijiy vakil ish shakllardan foydalanib ijtimoiy pedagogik yordam ko'rsatish boy tajribalar to'plangan qisqa vaqti shakllari orasida olimlar krizisintervent va muoammoli yo'naltirilgan modelni o'zaro aloqalarini kursatadilar. Krizisintervent modeli oila bilan ishlashda bevosita krizisi va ziyatlarda yordam ko'rsatishning ko'zda tutadi. Bunda vaziyatlar oilaning kundalik hayoti davomida yuzaga kelishi mumkin yoki tasodifiy zarar etkazuvchi xolat bulishi mumkin. Bunday nokulay davrlar bolaning yoshi krizisi bilan bog'liq. Bunda oilada

psixologik-pedagogik muammolar kuchayadi. Uch yoshi davr krizisi shaxsning asosiy individual-psixologik sifatlari shakllanishi jarayoni bilan va ijtimoiy manaviy jixatlarining rivojlanishi uchun shart-sharoitlari yaratish bilan bog'liq; bo'ladi. 7-8 yoshi davr krezisi maktab o'quvchisi yani ijtimoiy mavqeyiga mosligini, hayotning yangi rejimini o'z lashtirilishi, o'qituvchi bilan, bolalar jamoasi bilan munosabatlar o'rnatilishi bilan bog'liqdir.

Rezyume(qisqa xulosa) kategoriyalar: Ijtimoiy pedagogik faoliyat-bolaning ijtimoidashuvi jarayonida unga yordam ko'rsatishga va uning o'zini jamiyatda amalga oshirishi uchun sharoitlar yaratishga qaratilgan profensional faoliyat. Ijtimoiy o'qitish-bolalarda jismoniy mahorat va ko'nikmalar shakllantirish va ijtimoiy bilimlar berish uchun maqsadga muvofik, jarayon va natija. Ijtimoiy tarbiya-bolaning muvafaqiyatli ijtimoiylashishi uchun zarur bo'lgan unda shaxsiy sifatlarni shaqllantirish uchun maqsadga muvofik jarayon. Printsipilar: bolani tarbiyalash, o'qitish va ijtimoiylashtirish bolaning jismoniy psixik rivojlanishi qonuniyatlari asosida sodir bo'lishi va tashkil etilishi kerak.

To'g'arak raxbari-bolani tarbiyalash ijtimoiylashtirish jarayoni ushbu jamiyatning va tabiyatning ma'naviy va moddiy madaniyati asosida amalga oshirishi kerak. Insonparvarlik-bolani shaxs sifatida ximat tan oluvchi uning qadri va erkinihgini himoya etish bilan ifodlangan, insonning baxtini ijtimoiy institutlar ijtimoiy bahosi asosiy mezonlari deb hisoblovchi, tenglik va adolatlikni esa insonlar o'rtasidagi munosabatlar kiradi deb hisoblovchi dunyo qarashlar sistemasi. «Sen yetim emassan» oddiy filimining asosiy qaxramonlari qilib olinganlar.

Toshkent ko'chalaridan biri Shomaxmudovlar nomi bilan aytiladi, xalqlar do'stligi maydonida «Do'stlik» manomenti munosabat bilan o'rnatilgan. Ulardan tashqari yana minglab o'zbek oilalari urish yillarida evakuatsiya qilingan bolalarni asrab, farzandlikka olganlar.

Xalq shoiri G.G'ulom «Sen yetim emassan» she'rida o'z ota-onalarini va uylarini yo'qotgan bolalarga qarata qalb so'zlarini yozgan. Yetimlikning hama sabablarini aytib o'ting kiyin, chunki bu turli xil fan sohalari olimlari (mediklar, psigologlar, satssiologlar, pedagoglar va boshqalar) shug'ulanadigan ko'p qirali muammo va u

hali oxirigacha o'rganib chiqishmagan. Ammo xech bo'lmaganda yetimlikning uchta sabablarini aytish mumkin:

1. Ota-ona(ko'pincha onalar) o'zining balog'atga yetmagan bolasidan o'z ixtiyori bilan vos kechadi. Bu ko'pincha chaqaloqli davrida kuzatiladi. Tug'ilgan chaqaloqdan voz kechish, uni tashlab ketish bilan barobaridir.

2. Bolaning qiziqishlarini himoya qilish maqsadida ota-onalik xuquqidan maxrum etilganda, bolani oiladan majburlab tortib olish. U xolat asosan ichkilikbozga berilgan, jamoatchilik, jamiyat qoidalariga zid ravishda xayot kechirayotgan nosog'lom muhitdagi ota-onalari bo'lgan bolalarni, notinch oilalarda yuz beradi.

3. Ota-onalari vafot etganda bunga aholini shoshilinch ko'chishga majbur etuvchi qandaydir tabiiy yoki ijtimoiy katalizmlar(urush, yer qimlashlar, tabiiy ofat va boshqalar) oqibatida yo'qolib qolgan bolalarni ham kiritish mumkin. Har qanday jamiyatning va davlatning asosiy vazifasi bolaning oilada tarbiyalanish xuquqini amalga oshirishdir. Bolaning bu xuquqlari xalqaro xujatlarda qayt etilishi kabi (BMTning bolaning xuquqi xaqidagi konventsiyasi va boshqalar). O'zbekiston Respublikasi qonun hujatlarida ham qayt etilgan. Masalan O'zbekiston Respublikasi oila kodeksida ota-ona yoki yaqinlarning g'amho'rlik va mexribonliklari quyidagi bolaning xuquqlarida ko'rsatiladi: oilada yashash va tarbiyalanish xuquqi, ota-onalari va boshqa qarindoshlari bilan aloqa qilish xuquqi, o'zini himoya qilish xuquqi, ismi familiyasi, otasining nomiga o'tish xuquqi kabilar. Davlat birinchi navbatda bolani oilada saqlab qolishga va uni davlat muassasalarida tarbiyalashga bor kuchi bilan intiladi. Agarda bolaning oilada saqlab qolish mumkin bo'lmasa uning uchun yangi oila izlash avval deb hisoblaydi. O'zbekiston ota-onalarisiz qolgan yetim bolalarga yordam ko'rsatish uchun «Sen yolg'iz emassan» Respublika ijtimoiy fondi tashkil etilgan. Har bir mamlakatda bola tarbiyasi va rivojlanishiga tegishli ijtimoiy-alternativ masalalar faoliyatini yuritish sharoiti yaratilmoqda, rivojlantirilmoqda va mustahkamlanmoqda.

Ularga quyidagi usullarini kiritish mumkin:

- oilaga qaytarish, mamlakat ichida asrab qolish, tarbiyalash uchun oilaga berish, maxsus tarbiya muassasalariga berish. Yetim

bolalarga vasiylik qilish ikki yo'l bilan amalga oshirish mumkin: asrab olinishi yoki davlat qaramog'ga olinishi bilan.

Asrab olish quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi: asrab olingan oila vasiylik qiluvchi oila bolalikka olgan oila. Bola qilib olish-bu bolani himoya qilish maxsus normasi, bunda bola xaqiqiy ota-onasi bo'lmagan odam yoki er-xotin o'rtasida qarindoshlik yuridik o'rnatiladi. Bolaning tarbiyalanishi va rivojlanishi uchun bolani farzand qilib olinganda u aynan oilaga ega bo'lishi, unga biror bir o'rin bosuvchi emas oilaga ega bo'lish muhim hisoblanadi. Buning davrimizda ko'plab hamyurtarimiz mexribonlik ko'rsatib ota-onasiz qolgan bolalarni oilalariga oladilar masalan: Eshmat Sammedov, Rovshan Juraevich yetim qolgan koreys bolani asrab oldi (2003). Ularning 4 ta farzandi bor.

Davlat vasiyligi asrab olingan bolaga uning tarbiyasi va rivojlanishi uchun zarur sharoitlar yaratib uni bu maqsadida maxsus tashkil etilgan tashkilotga joylashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bola bolalar uyiga vaqtinchalik asrab olinadigan oilaga, mexribonlik uyiga, maktab internatga joylashtirish mumkin.

Asrab olingan oila bilan ijtimoiy-pedagogik faoliyat. Asrab olingan bola har-xil turdagi qabul qiluvchi oilaga tushishi mumkin: bu vasiylik qiladigan oila yoki bola qilib olgan oila bulishi mumkin. Bular orasidagi farq birinchi xolatda bola uchun unga qarindosh bo'lgan odamlar to'pladi. Ikkinchi xolatda bola bilan qarindoshlik aloqasi bo'lmagan odamlar oila vazifasidagi bajarishlaridan iborat biladi. Vasiylik vazifasi bolani tarbiyasi va rivojlantirish, uning xuquqlarini shimoya qilish shisoblanadi. Vasiy voyaga yetmagan bolada mavjud bilgan mol-mulki va kuchmas mulkni saklash va foydalanishini nazorat qilishini amalga oshiradi, lekin o'zi bu mulkdan foydalanish xuquqiga ega emas. Bola qilib olgan oila umuman olganda bolaning yani yuridik va xaqoniy oilasi hisoblanadi, bu yerda u o'z bolasi xuquqiga ega bo'ladi. Bola uni oilasiga olgan ota-onalarining familiyasini olishi mumkin va xatto yangi ism ham bola qilib olgan bolaning hamma xuquq va majburiyatlari xaqiqiy o'z farzandlari xuquq va majburiyatlariga tenglashtiriladi. Asrab oluvchi yana bir turi-vaqtinchalik asrab olish oilasi. Vaqtinchalik asrab oladigan oila bolalarni himoya qilish usuli sifatida bir qator rivojlangan mamlakatlarda juda ham keng

targalgan hisoblanadi. Vaqtinchalik asrab olish oilasini vasiylik oilasi yoki bola qilib oluvchi oiladan birinchi navbatda professional mutaxassislar oilasi bo'lishi zarurligi talab etiladi. Agarda chet el tajribalariga murojaat etsak unda Vaqtinchalik asrab oluvchi oilaning bir necha belgilarini ko'rsatib berish mumkin:

1. Ota-onalar ma'lum professional malakalari bo'lishi kerak;
2. Oila kerakli professional-pedagogik tayyorgarlikka ega bo'lishi kerak.
3. Bunday oilaning xizmatlariga xizmat xaqi to'lanadi.
4. Bolaning oilada bo'lishlari asrab olingan ota-onalarning ish sharoitlari sifatida hisobga olinadi.
5. Asrab olgan ota-onalarni ish vaqtlari o'z shaxsiy uylarida o'rati.

Vaqtinchalik asrab olish oilasining faoliyati bolaning keyingi taqdiri hal etilgunga qadar bolaning oilada bo'lishini ko'zda tutadi. O'z oilasiga qaytishi, bolalar uyiga joylashishi internat yoki boshqa muassasalarga yuborilishi kabilardir.

Asrab olgan oila bilan ijtimoiy pedagogik faoliyatni olib borish.

Ijtimoiy-pedagogik faoliyat bosqichlari. Ijtimoiy-pedagoging faoliyat vazifalari

Ijtimoiy-pedagogik faoliyat metodlari;

1. Asrab oladigan oilani o'zlash axborot-ma'lumotlari anketa tuzish, suxbat, intervyu, ma'lumotlarni o'rganish;
2. Bo'lajak asrab oladigan ota-onalarni o'rganish Diagnostik(boshlang'ich diagnostika) Anketa tuzish, suxbat;
3. Bola joylashtirilgan muassasalar va oilalarni borib ko'rish (krisis oila, bolalar uyi va boshqalar) vositachilik kuzatish suxbat;
4. Bo'lajak oilani va uning yaqinlarini o'rganish diagnostik (chuqur diagnostika) anketa tuzish, test sinovlari, suxbat, ishonitirish,xujatlarni o'rganib chiqish;
5. Ko'rish, oqitish, leksiya, xikoya, suxbat, videofilmlar o'qitish.(boshlang'ich dastlabki o'qitish).
6. Bolani asrab oluvchi oilaga joylashtirish: asrab oluvchi ota-onalarni chuqur o'qitish kursi.

Patronaj qiluvchi patronat (lotincha patronatus-xomiylik qilish) ota-onalarsiz qolgan bolalarni davlat organlari va patronat qiluvchi bolani qabul qilib oluvchi shaxslar o'rtasidagi shartnoma biyicha bolani tarbiyalashga berish.

MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Ijtimoiy pedagogik nuqtai nazardan oila turlari nima?
2. Oilaning ijtimoiy vazifalari nimadan iborat?
3. Ijtimoiy pedagogning oilasi bilan olib boradigan ishlar shakli, metod va vositalarini aytib bering?

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida qonun". T.1997 y.
2. I.A.Karimov. "O'zbekiston buyuk kelajak sari". T.1999 y.
3. I.A.Karimov. "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda". T.1999y.
4. A.Munavvarov. "Pedagogika". T.1996 y.

VASIYLIK VA HOMIYLIK

Vasiylik va qaramog'iga olish, yetim bolalarni va ota-onalar qarovisiz qolgan

bolalarni boqish, tarbiyalash, ta'lim berish va ularning xuquq va qiziqishlarini

himoya qilish uchun joylashtirish shaklidir.

Vasiylik14 yoshga yetmagan bolalar ustidan o'rnatiladi, qaramog'iga olish 14 yoshdan 18 yoshgacha bolalar ustidan o'rnatiladi. Yetimlik-jamiyat oldida turgan juda jiddiy muammolaridan biridir. Ota-onasini yo'qotgan bola, bu alohida, juda ham fojiali dunyodir, ota-onalik bo'lish ehtiyoji bolaning eng kuchli talablaridan biridir. Ijtimoiy yetimlik bugungi kunda ko'plab rivojlangan va rivojlanayotgan

davlatlar uchun xosdir. Masalan: Amerikalik tadqiqodchilar butun dunyo bo'yicha

kasalxonalar, tug'uruqxonalar, ijtimoiy muassasalarga tashlab ketilgan chaqaloqlar

bilan to'lib ketganligini aytadilar. Ularni turlicha "Voz kechilgan bolalar", "Davlat bolalari", "Tashlab ketish uchun tug'ilganlar" ham deb ataydilar.

BMT xalqaro ekspertlarining ma'lumotlari bo'yicha harbiy va sharqiy yevropa mamlakatlarida tashlab ketilgan bolalar soni keskin oshgani ko'rsatiladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda ham bunday bolalar soni ortib bormoqda. Bolalarga muhabbat ularga e'tibori bo'lish O'zbekiston xalqiga qadimdan odatiy bo'lib kelgan. O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimov bu xususida shunday deydi: "Insonparvarlik, bu o'zbek xalqining milliy ruhi, ajralmas belgisidir. Bag'ritoshlik va zulm unga yotdir. Bugungi kunda ham o'zbek oilasi ezgulik va hayoli bolalarga muhabbat, kattalarni xurmat qilish, yaqinlariga nisbatan va bironlarning dardiga ham-tashvishiga g'amxo'r, mexribonlik timsolidir" o'zbek xalqi eng yaxshi shargona an'nalarga amal qilib har doim mehmond'ost va do'stona munosabatda bo'lgan, urush qurbonlarini asrab boshpana berganlar va ularga g'amxo'rlik qilganlar, farzandlarini o'zlarining tarbiyasiga olganlar(1941-1945 yil) 14 ta yetim qolgan bolani asrab olgan Shomaxmudovlar oilasini eslash kifoya. Urush boshlanganiga Shomaxmudov Shoaxmad va uning rafiqasi Baxri Akromova arteida terimchi bo'lib islaganlar.

1966 yili zilzila oqibatida boshpanasiz qolganlarni bolalarni ham o'z oilasiga qabul qildilar. Shomaxmudov "hurmat belgisi" ordeni, Baxri Akromova "qag'ramon ona" ordeni bilan mukofotlanganlar". Ular Raxmat Fayziyevning "Ulug inson" romanida aytib o'tilganlar.

Mustaxkamlash uchun savollar:

1. Vasiylik tushunchasi nima?
2. Xoniylik tushunchasi nima?
3. Ijtimoiylashuv-ijtimoiy-pedagogik jarayon deganda nimani tushunasiz?
4. Bollarni vasiylikka olish qanday tartibda olib boriladi?

Adabiyotlar

1. Ozbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. T.1997 y. Ta'lim tigrisida qonun. T.1997y.
2. I.A.Karimov. Izbekiston buyuk kelajak sari. T.1999 y.
3. I.A.Karimov. Izbekiston XXI asrga intilmoqda.T.1999y.
4. A.Munavarov. Pedagogika. T. 1996 y.

YETIM BOLALAR BILAN OLIB BORILADIGAN FAOLIVAT

Jamiyatda oilaning roli o'zining kuchi bo'yicha boshqa hech bir ijtimoiy institutlar bilan tenglashtirib bo'lmaydi. Aynan oilada insonning shaxsi shakllanadi va rivojlanadi; bola jamiyatda qiyinchiliksiz moslashib ketishi uchun u ijtimoiy vazifalarni egallaydi. Oila birinchi tarbiyaviy institut sifatida ishtirok etadi, u bilan bog'liqlikni inson o'zining butun hayoti davomida his etadi. Oila insonning ma'naviyatiga asos solinadi, xulqiy qoidalari yuzaga keltiriladi, shaxsning ichki dunyosi va individual sifatlari ochib beriladi. Statistika ko'rsatishicha xo'jalik yurtish bozor siyosatiga o'tish ijtimoiy institut sifatida oila qolatiga ancha salbiy ta'sir ko'rsatdi. Demograflar tug'ilish kamayganini qayd etadilar. Sotsiologlar asotsial oilalar sonini o'sib borishini qayd etadilar va turmush darajasining pasayishini taxmin qiladilar.

Hamma davrlarda ham oila o'zining bolalarni tarbiyalashda yordam olishga talabni his etgan. Tarixning ko'rsatishicha odamlar katta oilalar bilan yashaganlarida oilaviy hayotning zarur bo'lgan bilim va kinikmalari avlodidan avlodga tabiiy ravishda va oddiy kundalik o'tib ketgan. Zamonaviy rivojlangan jamiyatda avlodlar o'rtasidagi oilaviy aloqalar buzilmoqda. Shuning uchun jamiyat oila tashkil etish va

bolalarni tarbiyalash haqidagi zarur bilimlarni yetkazish bo'yicha ishlarini o'z zimmasiga oladi. Xozirgi paytda ota-onalarga mutaxassis psixologlar, ijtimoiy ishlar xodimlari, ijtimoiy pedagoglar va bolalarni tarbiyalash bo'yicha boshqa mutaxassislarining yordamlari zarur. Ana shu mutaxassislarining yordamiga faqat notinch, yomon sharoitdagi oilalar emas, bugungi kunda tinch, yaxshi oilalar ham muqtojlar. Oila xaqidagi bir necha xil tushunchalar mavjud: birinchidan oila bu Nikoh va (yoki) qon

qarindoshlikni asoslangan kichik ijtimoiy guruh, uning a'zolari birgalikda yashaydilar va uy ishlarini bajaradilar, bir birlariga nisbatan o'zaro majburiyatlar bilan birlashganlar. Ikkinchidan, oila bu ijtimoiy institut bo'lib unda odamlar o'rtasida o'zaro munosabatlar barqaror mustahkam shaklda bo'ladi. Ana shu o'zaro munosabatlar doirasida odamlarning kundalik hayoti asosiy qismini amalga oshiriladi: intim munosabatlari, farzand kirish va bolalarning boshlang'ich ijtimoiylashishi, tarbiyalash, tibbiy xizmat ko'rsatish va boshqalar. Oila nikoh munosabatlari insoniyatga qadim davrlardan o'tib kelgan.

Neolit davridayoq (1520 ming yil ilgari) ongli nikoh paydo bo'lganda, kishilik jamiyatini paydo bo'lganidayoq ularning birgalikda xo'jalik yuritishdagi va birgalikdagi bola tarbiyalashdagi vazifalari tabiiy kuzatildi. Jinsiyligi, yoshiga qarab (erkak, ayol) ajratishiga asoslangan. O'tgan tarixiy davrda qayd etilgan oilaviy munosabatlarda farqlar bo'lishiga qaramay hamma oilalarni birlashtiradigan gandaydir umumiylik bor. Bu oilaviy tarzda hayot kechirishdir, bunda insoniyat yashashning yagona imkoniyatini topgan. Olimlar oilaning turli vazifalarini ko'rsatadilar. Biz birinchi navbatda bolani tarbiyalash va rivojlantirishga taluqlilarigagina to'xtalib o'tamiz. Oilaning reproduktiv vazifasi ("productio" lotincha – "qayta ishlab chiqarish, ko'payish"). Oilaning muhim bo'lgan vazifalaridan reproduktiv(jamiyatning biologik uzluksizligini ta'minlash, bolalarni dunyoga keltirish) funktsiyasidir. Reprodukativ vazifani inson zotini davom ettirish zaruriyati sababini asoslaydi. Hozirgi kunda 23ta odamdan tashkil topgan oilalar soni ortib bormoqda. Bunday odamlarning aytishlaricha bolalar ota-onalarning erkinliklarini cheklaydilar: ta'lim olishda, ishda, malakasini oshirishda, o'zining qobiliyatini amalga oshirishda. Afsuski, bolaga ega bo'lmasilik faqat mavjud bo'lmay, ba'zilar farzand ko'rishga layoqati bo'lganlarda, farzand ortirmay shunday o'tadiganlar soni yevropa mamlakatlari oilalarida ortib bormoqda. Buning sabablarini quyidagicha izoxlash mumkin: tug'ilishning kamayishi, yosh oilalarning ota-onalaridan alohida yashashlari, ajralishlari o'sib borishi sababi bir ota yoki onalik oilalar soni ortib bormoqda. Aholining sog'lig'i sifati va mamlakatda sog'liqni saqlash rivojlanishi darajasi. Ekspertlarning baholashlari biyicha yomon,

noqulay ekologik sharoit, axloqsiz hayot kechirish, yomon ovqatlanish, kasalligi va boshqa turli xil sababi, yoshi katta axolining 10-15% sog'lig'i xolati sababi bolaga ega bo'lishi mumkin emas. Iqtisodiy va xo'jalik turmush vazifalari qadimdan oila har doim jamiyatning boshlang'ich xo'jalik tashkiloti bo'lib kelgan.

Ov qilish va don yetishtirish, hunarmandchilik va savdo-sotiq ishlari oilada har doim vazifalar sifatida taqsimlangan.

Qadimdan ayollar butun uy ishlari bilan mashg'ul bo'lganlar, erkaklar kasb-hunar bilan shug'ullanganlar. Ilmiy texnik revolyutsiya asriga kelib odamlar hayoti yumushlarining ko'plari(ovqat tayyorlash, kir yuvish, uy tozalash, kiym tikish va boshqalar) qisman maishiy xizmat sohasiga yuklatildi.

Iqtisodiy vazifasi oila a'zolari uchun boylik to'plash bilan bog'liq bo'lgan: kelin uchun sovg'alar, kuyov uchun qalinik, avlodlarga qoldiriladigan buyumlar, to'yga xarajat, voyaga yetish yoshiga sug'urta qilish, pul mablag'lari to'plash kabildir.

Bizning jamiyatimizda sodir bo'layotgan ijtimoiy iqtisodiy o'zgarishlar oilaning mol-mulk to'plashi, xususiy mulkka ega bo'lishi, turar joyini xususiyishtirish, meros qilib qoldirish va shu kabilar masalalaridagi iqtisodiy vazifasi yanada faollashib bormoqda.

Boshlang'ich ijtimoiylashtirish vazifasi. Oila-jamiyatning birlamchi bugini sifatida Ko'p asrlik an'analar, urf-odatlariga tayanib yashaydi. Oila xalqning tayanchi, ma'naviy va axloqiy meros makonidir. Oila tajribasini an'ana, urf-odatlar, marosimlar zamirida ijtimoiy hayot tushunchasi va qoidalarini avlodidan – avlodga o'tkazib keladi. Milliy istiqlol g'oyasining kurtaklari, eng avvalo, oilada unib – o'sadi. Bu jarayonga ota-onalar va bolalarning hamkorligi, qarindoshlarning o'zaro yordami, katalarga izzatlikrom ko'rsatish, bolalar xaqida g'amxo'rlik qilish kabi insoniy mexr-oqibat rishtalari ta'sir ko'rsatadi.

Oiladagi sog'lom muhit-yuksak ma'naviy-axloqiy hislatlarni shakllantirish kafolatidir. Oila, maktab va voyaga yetmaganlar bilan ishlash inspeksiyasining ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlari, ularning qonunga bo'yusuvchi fuqarolarni tarbiyalash yuzasidan birgalikda olib borgan ishlari voyaga yetmaganlar o'rtasida xuquqbuzarlikning oldini olishni ta'minlaydi. Oila bola shaxsining

shakllanishiga faol ta'sir ko'rsatadigan birinchi va asosiy ijtimoiy guruhdir. Oila ijtimoiy mikroмуhitdir va ijtimoiy ta'sir ko'rsatish omillaridan biridir. U bolaning jismoniy, psixik va ijtimoiy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Oilaning vazifasi bolani u dunyoga kelgan mamakat madaniyatiga va bola tabiatiga mos ravishda rivojlanib borishi uchun uni asta-sekin jamiyatga kirib borishidan iboratdir. Insoniyat to'plagan ijtimoiy tajribalariga, u tug'ilib o'syotgan mamakat madaniyatiga, uning ma'naviy ahloqiy qoidalariga, xalq an'analarga bolani o'rgatish ota-onalarining majburiy vazifasidir.

Tarbiyaviy vazifasi. Boshlang'ich ijtimoiylashtirish jarayonida bolani oilada tarbiyalash muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Ota-onalar bolaning birinchi tarbiyachilari bo'lganlar va shunday bo'lib qoladilar. Bolani oilada tarbiyalash murakkab ijtimoiy pedagogik jarayondir. Oiladagi sharoit va muqit bola shaxsi shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Ota-ona o'z bolasini ardoqlaydi, erkalaydi, tashvishini qiladi, hayot tashvish va qiyinchiliklaridan asraydi. Ota-onalarning shaxsiy ibratlari bola tarbiyasiga ta'sir ko'rsatishning muhim vositasidir. Uning tarbiyaviy ahamiyati bolaning taqlid etishga qiziqishi, havas qilishga asoslangan.

Bo'lim va tajribalarga ega bo'lmay bola kattalarning qilganlarini takrorlaydi, ularning harakatlari taqlid qiladilar. Ba'zan bolaning oilada olgan tajribasi bolaning atrof-dunyoga, odamlarga nisbatan yagona o'lchov belgisi bo'lib qoladi. To'g'ri, ba'zan oilalarda ota-onalari bemor bo'lganda, buzuv hayot kechirganlarida, pedagogik madaniyatga ega bo'lmaganlarida va shu kabilarida tarbiya buzilishi mumkin. Albatta bola shaxsi tarbiyasiga shunchaki o'zining borligi bilan ta'sir ko'rsatmaydi, balki qulay ma'naviy-psixologik muhiti, uning a'zolari o'rtasidagi sog'lom munosabatlar bilan ta'sir ko'rsatadi.

Rekreativ va psixoterepevtik vazifasi. Rekreativ funksiyasi o'zaro jismoniy, moddiy, ma'naviy va psixologik yordam ko'rsatish, bir-birining salomatligini mustaxkamlash, oila a'zolarining dam olishini tashkil etishdir. Buning mazmuni oilada inson o'zini to'la himoyalangan deb his etadiki, to'la qabul qilingan uning mavqeyi, tashqi ko'rinishi, hayotdagi muvaffaqiyatlaridan, moddiy axvolidan qat'iyy nazar, oila uni qabul qiladigan boshpana bo'lishidan iborat.

"Mening uyim-mening vatanim" iborasi sog'lom, tinch oila-dunyodagi hamma notinchiliklardan vaqtinchalik bo'lsa ham yashirinishga, dam olib o'z kuchlarni to'plab olishga eng ishonchli va eng yaxshi boshpana degan ma'noni yaxshi ifoda etib beradi. Xotini o'z uyida o'zining xokimining hamma kamsitishlar va taxqirlilgga indamay chidab kelgan an'anaviy model endi o'tmishda qolib ketmogda. Ko'pchilik ayollar ham endi ishga boradilar va uyga charchab, toliqib qaytadilar. Oilaviy sharoiti yaqinlari bilan munosabatlarda, bolalari bilan bo'lganda kuchlari ancha yaxshi tiklanadi. Oilaning ijtimoiy maqomi va uning turlari. Oila yaxlit sistemali tashkilotdir. Hozirgi zamonda oila oldida turgan muammolardan biri-bu oilaning jamiyatda moslashishidir (adaptatsiyasi-moslashish) ya'ni oilaning zamonaviy muhitda (jamiyatda) hayot sharoitlariga moslashishi hisoblanadi. Moslashish jarayonining asosiy xarakteristikasi bo'lib ijtimoiy maqomi ishtirok etadi, ya'ni oilaning jamiyatda moslashish jarayonidagi holati. Oilaning ijtimoiy maqomini aniqlash uchun uning bir qator tuzilishi funksional xarakteristikalarini hamda oila a'zolarining individual xususiyatlarini bilish kerak.

Oilaning tuzilishi va umumiy xarakteristikasi. Nikohli sheriklarning mavjudligi (to'la, rasman to'la, to'la emas) Oilaning hayotiy sikli bosqichi (yosh, yetuk, qari) nikoh tuzish tartibi (birinchi, takroriy) Oiladagi avlodlar soni (bitta yoki bir necha avlodlar) Bolalar soni (ko'p bolali va kam bolali...) jixatdan oila a'zolarining individual xususiyatlari hisoblanadi. Bularga ijtimoiy-demografik, fiziologik, psixologik, oilani katta a'zolarining patologik odatlari kiradi, hamda bolaning xarakteristikalari kiradi. Yoshi, bolaning yoshiga munosib nutqi rivojlanganligi, jismoniy psixologik rivojlanish darajasi uning qiziqishlari va qobiliyatlari, u boradigan talim tashqilotlari, munosabat va o'qitish muvaffaqiyatlari bilan belgilanadi. O'zini tutishdagi chetlashishlar, patologik odatlari, nutqiy va psixik buzilishlar mavjudligi.

Oila a'zolarining individual xususiyatlari, uning tuzilishi va funksional ko'rsatkichlari bilan birgalikda kompleks xarakteristikalarini tashkil etadi-oila statusi (lotinchanadan status-holati va vaziyati) Oilaning ijtimoiy moslashishi birligi tashqil etuvchisi-oilaning moddiy aqvoli. Oilaning moddiy farovonligi,

uning ta'minlanganligi bir necha miqdori va sifati kirsatkichlar bilan baqolanadi. Bular oilaning daromad darajasi, uning shayotiy sharoitlari, buyumlari mavjudligi (ya'ni oila ega bilgan buyumlar) qamda uning a'zolarining ijtimoiy-demografik xususiyatlaridan iborat, bu oilaning ijtimoiy-iqtisodiy mavqeiini tashkil etadi. Oilaning daromadlari darajasi, turar joyi sharoitlari belgilangan normadan past bo'lsa (tirikchilik minimumi va boshqalar) buning oqibatida oila eng kerakli hisoblangan yegulik, kiyim, turar joyi uchun haq to'lash talablarini qondira olmaydi bunda oila kambag'al hisoblanadi va uning ijtimoiy-iqtisodiy statusi (maqomi) past hisoblanadi. Agar oilaning moddiy ta'minlanishi ijtimoiy normalar minimumiga mos kelsa, ya'ni agarda ongli hayot kechirish uchun asosiy tartiblarni qondira olsa lekin moddiy mablag'i dam olish, ta'lim va boshqa talablarni qondirishga etmasa unda bunday oila kam ta'minlangan hisoblanadi.

Daromadi darajasi va yashash yuqori bo'lib (ijtimoiy normadan ikki barobar ko'p va undan ortiq) faqatgina yashash asosiy talablarini qondirib qolmay yana turli xil xizmatlardan foydalanish imkoniyati bo'lsa bu oila moddiy ta'minlangan hisoblanadi, yuqori ijtimoiy-iqtisodiy mavqega ega bo'ladi. Oilaning ijtimoiy moslashishi ikkinchi tashqil etuvchisi uning psixologik muhiti oila a'zolari kayfiyati ularning shayotiy kechimalari, bir-biriga munosabati, boshqa odamlarga ishg, atrofdagi xodimlarga qarashlari natijasi sifatida yuzaga keladigan barqaror, mustaqkam emosional kayfiyatdir. Oilaning psixologik kayfiyati holatini baholash uchun er-xotinlar o'rtasidagi, bolalar va ota-onalar va yaqin qarindoshlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni hisobga olish kerak bo'ladi. Oilaning psixologik

kayfiyati holati ko'rsatkichlari quyidagilar hisoblanadi: emosional erkinligi darajasi, xavotirlanish darajasi, bir-birini tushunish, hurmat qilish. Xozirgi kunda kundalik nutqda va nazariy tadqiqotlarda ikki tushunchadan keng qo'llaniladi. Yetim(hech kimi yo'qlik) va ijtimoiy yetim (ijtimoiy hech kimi yo'qlik) qarovsizlik. Yetim bolalar -bu 18 yoshgacha bo'lgan ota-onalari yoki biron-tasi vafot etgan shaxslardir.

Ijtimoiy yetim bu biologik ota-onalari bor bola, lekin ular qandaydir sababga ko'ra bola tarbiyasi bilan shug'ullanmaydilar va unga qarshilik ko'rsatmaydilar. Bunday qo'llarda bu bolalarga e'lonbo'rtlik qilish vazifasini jamiyat va davlat o'z zimmasiga oladi. Shunday qilib ota-onalari garovsiz qolgan bolalar kategoriyalariga quyidagilar kiradilar:

- Ota-onalari vafot etgan;
- Ota-onalik huquqidan mahrum etilgan;
- Ota-onalik huquqlari chegaralangan;
- Noma'lum, daraksiz yo'q hisoblangan;
- Ishga (mehnatga) jyarogsiz (nosog'lom, ish qobiliyati cheklangan);
- Jazoni jiro etish koloniyalarida jazo o'tayotgan;
- Jinoyat qilganlikda ayblanish va javobgarlikka tortilgan;
- Bolalarni tarbiyalashdan bosh tortgan;
- Bolalarni vaqtincha joylashtirilgan davolash ijtimoiy tashkilotlaridan bolani olib ketishdan bosh tortganlar.

MUSTAXKAMLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. Oilaning turli deganda nimani tushunasiz?
2. Oiladagi tarbiya xaqida nima bilasiz?
3. Oilalarga ijtimoiy yordan ko'rsatish qanday olib boriladi?
4. Ijtimoiy pedagogika oilani muammolarini qanday tartibda o'rganadi?

ADABIYOTLAR

1. Ozbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risida qonun. T.1997y.
2. I.A.Karimov. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T.1999y.
5. I.A.Karimov. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T.1999y.

MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALAR BILAN OLIB BORILADIGAN IJTIMOIY-PEDAGOGIK FAOLIVAT

Bolalikni hozirgi zamon sharoitida bolalarni himoya qilish asosiy vazifaga aylandi. Bolalik, Yetimlik, jamiyat yetimligi, qochiq bolalar, Ota-ona zulmidan azob chekuvchi bolalar, nogiron bolalar

kabilar. Bolalikni qanday o'rganib va ko'rib chiqishi kerak. **Birinchi**dan, alohida bolaning rivojlanish jarayoni, uning jamiyatdagi o'рни, aniqrog'i jamiyatning bolalar haqidagi g'amhórligi. Bolalik, katta odamning hayotidan muhim o'rin egallab, rivojlanish jarayonida asosiy bosqich bo'lib o'rin tutadi. Bolaning o'sishi shu bilan harakterlanadiki, har bir etapda boshqa fizik yetishish bo'lib o'tadi, aniq bilish, sezish, rivojlanish, jamiyat hayotining tajribasi. O'sish bilan birgalikda bolaning jamiyatdagi o'рни aniqlanib boradi, qaysiki avvaliga oltidan belgilanadi. Shuning uchun oilaning jamiyat oldidagi javobgarligi katta ahamiyatga ega. Bolalar o'limining keyingi paytlarda oshishi, tug'ilishning qisqarishi, nogiron bolalarning o'sishi buning hammasi hozirgi zamon ekonomikasining va mamlakatdagi siyosiy krizisning yakunidir. Aholining hayot tarzining pasayishi bolalarning ma'naviy, fizik, ruhiy sog'ligiga aytiladi. Bolalar va o'smirlar mamlakat aholi orasida himoyasiz qolishdir. Davlat bolalarni va o'smirlarni himoya qilish usullarining yo'qligi ularning hулqida, faoliyatida, muomalasida, jamiyat hулqiga qarshi harakatlarni olib keladi. Har xil yo'llar bilan pul topish yo'lliga tushadi. Ilmning krizisga uchrashi, moliyaviy yetishmovchilik pedagog kadrlarning yetishmovchiligiga kelib taqaladi, maktabning jamiyat taraqqiyotidan uzilishi. Bu o'sib kelayotgan avlodni o'qitishi va tarbiyasida ko'rinadi. Eng avvalo hozirgi zamon sharoitida bolalarni himoya qilish tajribasini ko'rib chiqishdan oldin "bolalik" tushunchasida bir oz to'xtalmoqchiman.

"Bolalik" tushunchasi ko'rib chiqishini talab etadi.

Ajoyib zamonaviy pedagog Sxaivi Aleksandroviichning kitobiga uning nomi hammaga tanish, har bir o'qituvchiga tanish, uning tajribasi, uning o'qitish va tarbiyalash usuli, o'rganish va andoza olish predmeti bo'ldi. Bolalikning asosining analizi tarbiyada qarama-qarshilik, jamiyat uchun pedagogika zaruriyat hisoblanadi. Maktabga-olti yoshdan qabul qilish (barcha) "Bolalik-nima" Bolalik tushunchasi -davriy va rusiy lug'atda o'zining aniqilgini topmaydi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida, maktab va oilada bolalarning og'uvchi hулqini erta profilaktika qilish,uni mazmunini ratsionallastirish;

Shaxsni shakllantirish jarayoni ayniqsa erta yoshlikda faol kechadi, bolaning hулqida, o'yin, o'quv va boshqa faoliyati turlarida

maktabgacha yoshida kuzatish mumkin bo'lgan turli og'ishlar voyaga yetmaganlar tomonidan turli xil qilmishlarni va huquqbuzarliklarni sodir etishning ibtidosi bo'ladi, va, noqulay shart-sharoitlar yuzaga kelganda, o'spirinlik yoshida mustahkam shakllanib bo'lgan intizomsizlikka, xatolarga va turli xil jamiyatga xilof hулq shakllariga olib keladi. Mavjud muhit (masalan, o'yin yoki b. vaziyatlar) talablarga bo'ysinish ko'nikma va malakalari shakllantirilmagan bola, vaqti kelib huquqiy davlatda yashash qoidalari bilan hisoblashmaydigan, intizomsiz inson bo'lib o'sib-ulg'ayadi. Shu sababli, "tarbiyasi qiyin" bolalarning pedagogik qarovsizligini oldini olishdan boshlanishi zarur bo'lgan, jamiyatga xilof hулq-odatlarini erta profilaktika qilish muammosi yuzaga keladi. L.M.Zyubinaning faraziga ko'ra, pedagogik qarovsizlik hatto sezilarli darajada namoyon bo'lsa ham, huquqbuzarliklar sari yo'lining boshlanishi bo'lishi mumkin. Shu sababli, ta'limning dastlabki davrlardan insonning pedagogik qarovsiz qolganligini erta aniqlash va bartaraf etish muhim ahamiyatga ega. Aynan shu davrda voyaga yetmaganlarni huquqbuzarliklarining pedagogik profilaktikasi amalga oshishi mumkin. Faoliyatning sifati va noqulay ta'sirning darajasiga bog'liq holda bolalarning hулqidagi salbiy ustanovkalar yuzaki, yengil bartaraf etiladigan xarakterga ega bo'lishi yoki chuqurlashib ketishi va uzoq muddat va sabot talab qiladigan qayta tarbiyalash jarayoniga aylanishi ham mumkin. Bolalarning pedagogik "qiyinligini" bartaraf etishning eng yaxshi usuli - bu maktabgacha tarbiya muassasalarida va maktablarda o'quv-tarbiyaviy ishlarini ratsionallastirish, va bolaning oilada tarbiya sharoitlarini o'zgartirishdan iboratdir.

Bolalik davrida pedagogik qarovsizlik qolish o'zining belgilari va ko'rinishlariga ega. Ularga, bolaning dunyo haqida tasavvur doirasining yosh talablarga muvofiq kelmasligida, o'qishga qiziqishi yo'qligi yoki bo'shligida, o'yin, mehnat va bilish faoliyatida o'quv mashg'ulotlarini ajrata olmasligida oshkor bo'ladigan: roli o'yinlardagi muvaffaqiyatsizligi, bolaning buyumlar bilan o'ynashni afzal ko'rish, oldindagi maktab ta'limiga tayyor emasligi kiradi.

Ma'lum-ki, hулq-odatlardagi og'ishlarning oldini olish va bartaraf etish - tizimli yondashuv doirasida amalga oshirish mumkin bo'lgan yaxlit jarayon, va quyidagilarni nazarda tutadi:

a) pedagogik tashhisi;
b) tarbiyalanuvchini ijtimoiy va jamoadagi ichki munosabatlarga, jamiyat va jamoa bilan jamoatchilik aloqalar tizimiga jalb etishni;

v) tarbiyasi qiyin bolani, unda mavjud ijobiy sifatlar, kuch va iqtidorni hisobga olgan holda, ijtimoiy-qadriyatga ega faoliyatga tez-tez jalb qilishni;

g) tarbiyachi va tarbiyalanuvchi orasida munosabatlarning me'yorga va tartibga solinishini;

d) bolaning biron-bir sohada yetarli tarbiyalanmaganligini boshqa sohalarida talab darajasida rivojlantirish hisobiga kompensatsiya qilishni;

e) bolalar bog'chasi, oila va jamoatchilikning barcha ijobiy imkoniyatlaridan foydalanishni, "tarbiyasi qiyin" bolalarga nisbatan yagona pedagogik pozitsiyalarining yaratilishi;

j) ta'limni ob'yektiv baholash ko'nikmalarini shakllantirish, ijobiy huq-odatlarni rag'batlantirish (o'ziga-o'zi ta'sir qilishi, o'zining ruhini ko'tarishi, o'z aybiga hukm chiqarishi). Bola o'zida mavjud yomon xislatlarni bartaraf etish zarurligiga qat'iy ishonishi va ulardan qutulishga intilishi zarur.

Pedagogik qarovsizlikni oldini olishning ikkita aspekti bor. Birinchidan tomondan, bunday qarovsizlikning paydo bo'lishini oldini olish, ya'ni bolani bunday ahvolda olib kelishi mumkin bo'lgan tashqi sabablarni yo'qotish, shaxsda ijobiy fazilat, xususiyat va taffarlarni shakllantirish hamda salbiylarini sekinlashtirish.

Ikkinchi tomondan, bu bolalarning rivojlanishida paydo bo'ladigan bo'shliq va kamchiliklarni bartaraf etish, ularning huq-odatlari, faoliyat va munosabatlarni tuzatish, bolaning salbiy ruhiy holatini olib tashlashdan iborat.

Bolalarning pedagogik qarovsizlik sabablari oilaning, bolalar bog'chasining va maktabning tarbiya-ta'lim ishlaridagi kamchiliklar bilan belgilanishi sababli, uning oldini olish ham ularning yaqindan hamkorlik qilishiga bog'liq. Bolalarning pedagogik qarovsizligi oldini olishda maktab, oila, bolalar bog'chasining asosiy hamkorlik yo'llari quyidagilardan iborat:

a) ko'rib chiqilayotgan muammo yuzasidan ota-onalarning pedagogik madaniyatini, pedagoglarning ilmiy-metodik darajasini oshirish bo'yicha birgalikda ishlash;

b) pedagogik qarovsizlikning oldini olish va bartaraf etish yuzasidan ishlab chiqilgan dasturni amalga oshirish bo'yicha birgalikda amaliy faoliyat ko'rsatish;

v) uning natijalarini birgalikda tahlil qilish.

Umumiy uslublar (oilada, bog'chada, maktabda qulay ruhiy mikro-muhitning yaratilishi, boladagi ortiqcha ruhiy-hissiy zo'rliqlarni bartaraf etish), rolli o'yinlarda, o'quv jarayonida uning muvaffaqiyati ishtirok etishini maxsus tashkil qilish, hatti-harakatlariga ijobiy sifatlarga suyanish orqali rahbarlik qilish, ularning tengdoshlari bilan o'zaro munosabatlarni jamoada yashash va faoliyat ko'rsatish ko'nikmalariga odatlantirish orqali shakllantirish, pedagogik qarovsiz bolalarning aqliy, man'aviy va hissiy-irodaviy rivojlanishida mavjud kamchiliklar, bo'shliq va nomuvofiqliklarni bartaraf etish ham profilaktika faoliyatining vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishga ko'maklashadi. Ko'rib chiqilayotgan ta'sir ko'rsatishning samaradorligini oshirishga ko'maklashadigan ob'yektiv shart-sharoitlar quyidagilardan iborat:

1. Bolalar bog'chalari, maktablarning malakali pedagogik kadrlar bilan ta'minlanganligi;

2. Bolalar bilan har tomonlama tarbiyaviy ishlashni rivojlantirish uchun moddiy bazaning mavjudligi;

3. Bolalarni maktabgacha jamoachilik tarbiyasi va kuni uzaytirilgan guruhlar bilan qamrab olish;

4. Tarbiyaviy institutlarning o'zaro hamkorligining boshqaruvi takomillashtirish;

5. Oila tarbiyasi tashkil etishda ijobiy o'zgarishlar;

6. Bolalar bog'chalarida va maktablarda ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etishdagi rasmiyatchilikni bartaraf etish;

7. Muammo yuzasidan ilmiy asoslangan dasturlarning va tavsiyalarining mavjudligi;

Muvaffaqiyatli hamkorlikning sub'yektiv omillaridan quyidagilarni aytib o'tish zarur:

1. Uning ishtirokchilari tomonidan bolalikdan pedagogik qarovsizlik paydo bo'lishi sabablari, belgilari va ko'rinishlari haqidagi bilimlar tizimini egallanishi;

2. Uzviylik va o'zaro hamkorlik asosida tashhis qo'yish va profilaktika qilish metodikasining ishlab chiqilganligi;

3. Pedagoglar va ota-onalar orasida do'stona, o'zaro hurmat va o'zaro talabchanlik muhitining, pedagogik qarovsiz qolgan bolalarning oilalarida, maktabgacha muassasalar va maktablarning o'zaro munosabatlarning umumiy ko'rinishining yaratilishi;

4. Tarbiyaviy-profilaktik faoliyat jarayonida tarbiyalanuvchi bilan tarbiyachi ning yagona maqsadga yo'naltirilganligi.

Tarbiyaviy-profilaktik ishlarni optimal tashkil etish uchun "o'qituvchi-o'quvchi", "tarbiyachi - tarbiyalanuvchi" tizimida mavjud munosabatlarni ahamiyatining tahlili, bunda, ayniqsa pedagogik qarovsiz qolgan va voyaga yetmagan huquqbuzarlar uchun, o'qituvchi, tarbiyachi shaxsi naqadar yuksak ekanligini ko'rsatib turibdi. O'quvchilarning ushbu kategoriyasi bilan tarbiyaviy ishlarning kuchaytirilishi tarbiyaviy jarayon ishtirokchilarining o'z tarbiyalanuvchilari bilan o'zaro munosabatlarni qura bilish malakalari bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqada ekan.

Tarbiya jarayoni ob'yektining, va demak uning sub'yektining ham (pozitsiyalarining faolligi sababli) tarbiyalashga va qayta tarbiyalashga intilishi muvaffaqiyatga kafolat bermaydi. Buning uchun, quyida berilgan, ma'lum qo'shimcha shart-sharoitlar talab etiladi:

1. Tarbiyalanuvchilarning o'z tarbiyasiga va qayta tarbiyalanishiga nisbatan faol munosabati, hayot tarzini tuzatish va o'zgartirish zarurligini tarbiyalash doimo tarbiyalanuvchi bilan tarbiyachi o'rtasida aloqalarning o'rnatilishi uchun dastlabki shart-sharoitdir;

2. Tarbiya uchun tarbiyalanuvchining o'zgarishga ega bo'lgan imkoniyatlari o'lchovini aniqlash juda muhim;

3. Jitimoijiy ijobiy shaxsiy ahamiyatga ega hayot istiqbollari va maqsadlarning mavjudligi, o'spirinning ularga erishish uchun intilishi, o'z ustida ishlashi - shunday element-ki, usiz tarbiya va qayta tarbiyalash jarayoni o'zining to'g'ridan-to'g'ri mazmunini, jamoat va shaxsiy ahamiyatini yo'qotadi. Ahloqsiz hujudatlarining

oldingi maqsadlaridan farqli o'laroq, endi bu maqsadlar shaxsiy va jamoatidir.

Pedagog bir qator xususiyatlarga ega bo'lishi lozim-ki, ularsiz tarbiyasi qiyin bolalar va voyaga yetmagan huquqbuzarlar bilan olib borilayotgan ishda muvaffaqiyatga erishish mumkin emas. Ularga quyidagilar kiradi:

1. Pedagog harakatlarning ta'sirchanligi va ishonchligi, ularga tarbiyalanuvchining ishonishi;

2. Tarbiyalanuvchining o'zini, uning haqiqiy va oshkor imkoniyatlarini har tomonlama bilishga, o'z bilim, harakatlari va natijalarga ishonishga asoslangan aniq va chuqur hisob-kitob.

3. Tarbiyalanuvchilar tomonidan yuqori baholalanadigan, ularda yaxshi his-tuyg'ularni o'yg'otadigan, pedagogning oldindan ko'ra bilish layoqqati.

4. Boshqa pedagoglar orasidan ajratib turuvchi va uning barcha hatti-harakatlariga kuch va obro' bag'ishlaydigan pedagogning shaxsiy ustunligi.

Tarbiyalanuvchiga nisbatan mehribon munosabat va pedagog, tarbiyachi va ota-onalarda yuksak kasb mahorati mavjud bo'lganidagina, yuqorida keltirilgan xususiyatlaridan har biri, pedagoglarning shaxsiyatiga va faoliyatiga samarali tarbiyaviy xususiyat bag'ishlab, to'liq kuchga kiradi.

Man'aviy tarbiya bo'yicha maktab oldida turgan vazifalarning orasida o'quvchilarning hatti-harakatlarida og'ishlar paydo bo'lishining oldini olish eng muhimlaridan biridir.

Jamiyatning jitimoijiy rivojlanish amaliyoti salbiy holatlar, hayot tarzi me'yortardan salbiy og'ishlar ushbu uchta jitimoijiy institutlarning maqsadga yo'naltirilgan o'zaro hamkorligida bartaraf etish mumkinligini ko'rsatmoqda. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishdagi amaliy tajribani o'rganish, o'qishga va jamoatchilik - jitimoijiy foydali faoliyatga nisbatan ma'suliyatsiz munosabat, intizomni buzish, shavqatsizlik ko'rinishlari, o'g'irlik, tartibbuzarlik kabi holatlarning o'quvchi yoshlar orasida paydo bo'lishi maktabda o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etishdagi kamchiliklar, oilaviy tarbiyaning xatolari, yashash joyida tarbiyaviy ishlarning tartibga solinmaganligi, jamoatchilik va mehnat jamoalarining imkoniyatlaridan bo'sh foydalanilayotganligi, maktabdan tashqari

muassasalardan, sport inshootlaridan va boshqarmaviy madaniyat muassasalaridan to'liq foydalanilmayotganligi bilan bog'liq ekanligini tasdiqlaydi.

O'z yechimini kutayotgan, eng dolzarb muammolardan biri – bolalar bog'chasi, maktab, oila va jamoatchilikning voyaga yetmaganlarni huquqbuzarliklarining oldini olish bo'yicha o'zaro hamkorlik tizimini ishlab chiqishdan iborat.

O'quvchilarning pedagogik qarovsiz qolishini oldini olish va bartaraf etish bo'yicha maktablarning ish tizimiga pedagogik qarovsiz qolgan o'quvchilarni o'rganish, notinch oilalarga pedagogik yordam ko'rsatish, bo'sh vaqtlarini tashkil etish, yashash joylarida bolalar va o'spirinlar hatti-harakatlari ortidan ota-onalar jamoatchiligi tomonidan nazorat o'rnatish, o'spirinlar bilan ishlarni tashkil etishda JEKning pedagog-tarbiyachisiga metodik yordam ko'rsatish va homiy korxonalariga ko'mak ko'rsatish kabi asosiy bo'g'inlar kiritilgan edi. Voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarini oldini olish muammosini o'rganish yuzasidan olib borilgan psixologo-pedagogik tadqiqotlar, oiladagi man'aviy – notinch muhit va ota-onalarning pedagogik savodsizligi, maktabgacha tarbiya muassasalari va maktablarning o'quv-tarbiyaviy ishlardagi xato va kamchiliklar, maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning va yashash joylaridagi mikroayonlarda bo'sh vaqtlarning maqsadga muvofiq tashkil etilmasligi, mikroayonda, hovlida yoki ko'chalarda o'spirinlarning salbiy guruhlari ta'siri, bolalar, o'spirinlar va b. psixologik xususiyatlarining yetarli darajada hisobga olinmasligi kabi va b. omillarning uzoq vaqt ta'sir ko'rsatishi natijasida bolalar va o'spirinlarning tarbiyalanishi murakkablashadi.

Mana shu holat kriminogen omillar ta'siriga qulay, o'spirinlarning jamiyatga xilof kayfiyat va hatti-harakat usullari shakllanishiga ko'maklashadigan va ularni huquqbuzarlikka boshlaydigan psixologik zamin bo'lib xizmat qiladi. Bundan muhim xulosa kelib chiqadi: voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarliklar profilaktikasini "qiyin tarbiyalanuvchi" bolalar hamda pedagogik qarovsiz o'spirinlarning paydo bo'lish holatlarini erta bosqichlarida oliada, maktabgacha tarbiya muassasalarida, maktab tashqari muassasalar va yashash joylarida maqsadga muvofiq keluvchi o'quv-tarbiyaviy ishlarni tashkil etish orqali boshlash zarur. Bunda,

tarbiyaviy tizim barcha bolalarni va o'spirinlarni gamrab olishi lozim, "qiyin tarbiyalanuvchi" bolalarni hamda pedagogik qarovsiz o'spirinlarni tarbiyaviy tadbirlarning barcha sohalariga jalb etish esa muqarrar talab etiladi.

Maktab, oila va jamoatchilikning o'zaro hamkorligida maktab yetakchi hisoblanadi. Maktab mikroayonning metodik, pedagogik markazi bo'lib qolishi lozim. O'quvchilar yashaydigan mikroayon maktabning pedagogik nazorati ostiga olinishi zarur. Pedagogik jamoalarning, pedagog-tarbiyachilarning, jamoatchilik va homiyarning faoliyatini muvofiqlashtirish o'quvchilar va pedagogik qarovsiz bolalar bilan tarbiyaviy ishlarni yashash joyida tashkil etishga imkon beradi. Istiqbolda o'quvchilarning yashash joylarida barcha ijtimoiy institutlar va mehnat jamoalarining tarbiya ishlarni olib borish borasidagi sa'y-harakatlarini birlashtirish uchun tarbiyaviy kuchlarning maxsus hamkorlik organlari tuzilishi zarur. Bu organlar har bir maktab o'quvchisiga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishi uchun shahar, tuman, mikroayon miqyosida bo'lishi lozim.

Ushbu institutlarning birgalikdagi faoliyat tizimi maktabda, oilada o'spirinlar shaxsining shakllanishi va rivojlanishi uchun qulay sharoitlarning yaratilishiga, ijobiy sifatlarning mustahkamlanishiga, tarbiya jarayonida yo'l qo'yilgan xato-kamchiliklarni tuzatishga, mikroayonning salbiy ta'sir ko'rsatishini oldini olishga ko'maklashadi.

Ushbu institutlarning o'zaro hamkorlik jarayoni samaradorligi ko'pincha tashkiliy-boshqaruv masalalarining qay darajada hal qilinishiga va jamoatchilikning o'z tarbiyaviy funksiyalarini bajarishga pedagogik tayyorgarlik darajasiga (saviyasiga) bog'liqdir. O'zaro hamkorlik jarayonida turli jamoatchilik institutlarining tashkil etilishi va ularni boshqarish, birgalikda ishlarni rejalashtirish va nazoratini amalga oshirish, maktabda hamda yashash joylarida voyaga yetmaganlarning turli yosh guruhlariga va notinch oilalarga nisbatan differensiyalashgan yondashuv asosida barcha harakatlarni tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirishga yo'naltirish, maktabda, oilada, mikroayonda tarbiya ishlarni pedagogik boshqarish malakalari tizimini takomillashib boradi.

Jamoatchilikni tarbiyaviy vazifalarni bajarishga psixologik-pedagogik tayyorlash tizimining yaratilishi, ularni profilaktik ishlarida pedagogik bilim, malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirish – jamoatchilik institutlarining hamkorlik jarayonini takomillashtirishni amalga oshirish yo'llaridan biri.

Maktab, voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklari erta profilaktika qilish ishlar markazi sifatida, boshqa ijtimoiy institutlarga nisbatan boshqaruv funksiyasini amalga oshiradi. Maktabning ushbu funksiyani amalga oshirishi profilaktika ishlarida maktab, oila va jamoatchilik hamkorligini optimallashtirishning asosiy prinsipi. Boshqaruvga: tashhis qo'yish, rejalashtirish, tashkil etish va nazorat kabi kiradi.

Tashhis qo'yish – tayyorlash bosqichi bo'lib, uning vazifasi – ishlarining hozirgi vaqtda qanday ahvolda ekanligini, xususan, profilaktika ishlarida – "tarbiyasi qiyin" bolalarni (voyaga yetmagan huquqbuzarlar rezervi), "notinch oilalarni" va bolalar tarbiyasida ba'zi kamchiliklar kamchiliklar mavjud bo'lgan oilalarni aniqlashdan, oilalar, jamoatchilik, ayrim hollarda – miltisiya bilan aloqalar o'rnatishdan iborat.

Rejalashtirish – o'tgan davrning ma'lumotlarini hisobga olgan holda ma'lum vaqt oralig'iga maktab ish rejasini tuzish. Tashkil etish – intizomsizlikka, tartibsizlikka qarshi qo'yiladigan faoliyatning tartibga solinganligi. Koordinatsiya o'zi bilan hamkorlik harakatlarning kelishilganligini va boshqa institutlarning ishidagi turli kamchiliklar korreksiyasini namoyon etadi. Nazorat-boshqaruvning maqsad va vazifalarida biron-bir og'ishlarni aniqlashdan va ularni bartaraf etishdan iborat.

Voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarliklar sodir etilishini oldini olish bo'yicha profilaktik ishlar umumiy (ijtimoiy-iqtisodiy va h.k.) va maxsus (aniq) chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi, demak, voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarini erta profilaktika qilish bo'yicha maktab, oila va jamoatchilik hamkorligining optimallashtirilishi ham umumiy va maxsus chora – tadbirlardan iborat.

Umumiy tadbirlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. O'quv-tarbiyaviy jarayonning umumiy takomillashtirilishi.

2. Bolaga, o'spiringa butun ijtimoiy muhit ijobiy ta'sir qiladigan sharoitlarning yaratilishi.

3. Maktab va maktabdan tashqari muassasalarning ilg'or ish tajribasini o'rganishni, ommalashtirishni va tajriba almashishni tashkil etish.

Maktab, oila va jamoatchilik hamkorligini optimallashtirish bo'yicha maxsus chora-tadbirlarga quyidagilar kiradi:

1. Maktabdan tashqari muloqot guruhlarini xususiyatlarini hisobga olib, o'quvchilarning dam olishini to'g'ri tashkil etish.

2. Maktab o'quvchilarning jamoatchilik yuklamalarini yanada ratsionalroq taqsimlash, bu pedagoglarning ish tartibi yanada aniqroq bo'lishiga ko'maklashadi.

3. Tashkilotchi-pedagoglar faoliyatini tartibga solish.

4. Maktab va boshqa ijtimoiy institutlarning hamkorlik tizimi, bu ishda rejalashtirilganlik.

5. O'z mavqeiini mustahkamlashning ijtimoiy qadri va ijtimoiy ma'qul usullari uchun sharoitlarning yaratilishi.

Shaxsni shakllantirish jarayonining zarur tarkibiy qismi, shuningdek salbiy sifatlarni bartaraf etish aspekti sifatida ham o'z-o'zini tarbiyalash oldinga chiqadi.

Bo'lka tumani maktablarida bizning bevosita rahbarligimiz va ishtirokimizda olib borilgan eksperimental (tajriba) – pedagogik ishlar quyidagi ilmiy faktarlarni olishga imkon berdi:

1. Pedagogik ta'sir ko'rsatish o'lchami buzilganda, maktabda hamda oilada o'spirinlarga nisbatan munosabatlarning yakka hokimlik uslubi ustunlik qilganda, shaxsning irodaviy sohasida buzilishlar paydo bo'ladi, ular keyinchalik o'spirinning ahloqiy rivojlanishini ham buzishi aniqlandi.

2. Ushbu salbiy ko'rinishlar, bulg'odatlarda mustahkamlanib borib, oqibatda shaxsning o'ziga yo'naltirilganligini belgilashi, o'spirinlarning ongi va hatti-harakatlari orasida uzilishlarga olib kelishi aniqlandi.

3. Salbiy sifatlarga shaxs rivojlanishi natijasida yuzaga kelgan yangiliklar (mustaqillik, o'z mavqeiini mustahkamlash) va ularni amalda namoyon etish imkoniyatlari yo'qligi orasidagi ziddiyatlar natijasida paydo bo'ladi. Salbiy ta'sir va pedagogik xato-

kamchiliklar bilan to'ldirilib, ular shaxsning bargaror hosilalariga aylanishi mumkin.

Olingan ma'lumotlarning tahlili, o'spirinlarning salbiy sifatлари orasida eng yaqqol namoyon bo'ladiganlari – bu xudbinlik, bo'shanglik va jizzaklilik (affektivlik) ekanligini ta'kidlashga imkon beradi. Masalan, xudbinlik birovlarda bevosita faqat o'z-o'ziga nisbatan, o'zining qulayliklarga, o'z foydasiga qiziqishida namoyon bo'ladi. Boshqalarda esa hech narsa bilan chegaralannagan mustaqillikka intilish tug'iladi.

O'spirinlarning bo'shangligi, ba'zi birovlarda har qanday ishini bajarish vaqtida, boshqa birovlarda esa faqat o'qish jarayonida kuzatiladigan dangasalikda namoyon bo'ladi. Bo'shanglik o'spirinlarda faollik va mustaqillikning bostirilishi, ba'zilarida esa kasallik oqibatida kelib chiqishi mumkin.

Maktabda o'quv-tarbiyaviy jarayonning kuchayishi bilan bog'liq muammolar orasida, tarbiyasi qiyin, ya'ni bir qator ob'yektiv va sub'yektiv sabablarga ko'ra (notinch oiladagi tarbiya, rasmiy guruhlarda mavqening pastligi, o'qish mehnatiga nisbatan ma'suliyaning tarbiyalannaganligi, shakllangan g'ayritijimoiy odatlar) o'z tengdoshlari bilan munosabat va aloqalarni uzgan, shundan kelib chiqqan holda maktabga nisbatan qiziqishini yo'qotgan bolalarning o'qishga nisbatan qiziqishini tiklash masalasi alohida o'ringa ega.

Tarbiyasi qiyin bolalarni klinik o'rganish – ayrim o'spirinlar ortidan o'quv-tarbiyaviy ish jarayonida ko'p yillik kuzatuvlar olib borish (sinf jamoalari doirasida) – bizlarni: "tarbiyasi qiyin" o'quvchilarning ko'pchiligi uchun o'qish – hayotiy zarurat sifatida o'z ahamiyatini yo'qotgan, degan xulosaga olib keldi, shu sababli ham o'quv faoliyati davomida ularga pedagogik ta'sir ko'rsatish natijalarga bermaydi.

Demak, pedagogik ta'sir o'spirin uchun hayotiy manfaatga ega sohada o'z ifodasini topishi zarur. Bizning fikrimizcha, sinfdan va maktabdan tashqari ishda o'quvchilar tashkilotini qamrab oladigan o'qishdan tashqari faoliyat – shunday soha. O'qishdan tashqari faoliyat o'z shakllari (individual, guruh bo'lib, ommaviy) va turlari (fanlar bo'yicha o'qituvchi rahbarligida tajribalar va eksperimentlarning o'tkazilishi, olimlar topshirig'ini bajarish bo'icha

ish olib borish, maktab o'quvchilarining ekskursovod, lektor, trener, sayohatlar, musobaqalar, turli maktab kechalari, bayramlar tashkilotchilari, ularning sport seksiyalarida, maktabdan tashqari muassasalaridagi to'garaklarda ishtirok etishi va h.k.) bo'yicha xilmaxil.

O'qishdan tashqari faoliyat bir qator afzalliklarga ega. Birinchidan, u o'spirinni bilishga qiziqishlari rivojlanishiga va jamoa bilan yangi munosabatlarning shakllanishiga ko'maklashuvchi yangi muhitga kirishga, uning uchun "mikroiqlim" yaratishga imkon beradi.

Ikkinchidan, o'tkazilayotgan mashg'ulotlarga nisbatan qiziqishlarni qo'llab-quvvatlaydigan hissiy fon uchun shart-sharoitlar (yaxshi jihozlangan auditoriya, mashg'ulotlarning moddiy-ko'rgazmali jihozlanishi) yaratadi. "Tarbiyasi qiyin" o'spirinlarni ijtimoiy ahamiyatga ega ishlarga jalb etish bilan birgalikda ushbu afzalliklar, ayrim topshiriqlarni bajarishda o'z vaqtida yordam ko'rsatish hamda omma oldida baholash ularning tarbiyasining muvaffaqiyatga erishishga ko'maklashadi. Lekin, o'qishga nisbatan qiziqishni rivojlantirmasdan turib, maktabga bo'lgan qiziqishni qaytarishning iloji yo'q. O'qishga nisbatan paydo bo'lgan qiziqishning asosiy ko'rsatkichlari, fikrimizcha, quyidagilardan iborat:

- uzrli sabablersiz darslarning qoldirilmasiligi;
- o'zlashtirish sifatining yaxshilanishi (yoshi katta o'rtoqlari yordamining qabul qilinishi);
- o'qituvchilarga, sinfdoshlariga nisbatan "ma'no to'sig'i"ning olib tashlanishi;

- hulq-odatlarning o'zgarishi.

"Tarbiyasi qiyin" bolalarning o'qishdan tashqari faoliyati yanada boshqariluvchan bo'lishi hamda o'qishga nisbatan qiziqishi rivojlanishiga ko'maklashishi uchun navbatdagi talablarga amal qilish zarur bo'ladi:

- vazifa va topshiriqlarni o'spirinlarning imkoniyatlari bilan o'lchab ko'rish;

- tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish usullarini tanlashda o'spirinlarning shaxsiy-psixologik xususiyatlariga tayanish;

-o'qishga nisbatan qiziqishni qaytarish va rivojlantirib borish (qiziqishning yo'qolganlik darajasidan kelib chiqib), "tarbiyasi qiyin" o'spirinlarning bolalar jamoasi bilan munosabatlarini mulohazalar orqali normallashtirib borish.

O'qituvchining yuqoridagilarga amal qilishi, o'qishdan boshqa faoliyatga bo'lgan qiziqishni o'qishga ko'chirishda foydalanish, va bu hodisani nafaqat o'qishga nisbatan qiziqishni qaytarishning samarali vositalaridan biri sifatida, balki maktabda o'qish mehnatiga qiziqishni yo'qotib qo'yganlarning o'qishga munosabatini tuzatishga yo'naltirilgan samarali profilaktik vosita sifatida ko'rib chiqish imkonini beradi.

Bolalarning maktabgacha va kichik maktab yoshida pedagogik qarovsiz qolish hodisalarini o'rganar ekanmiz, biz unga I.A.Nevskiy tomonidan berilgan ta'rifdan kelib chiqamiz. Biz, pedagogik qarovsiz bolalar - bular, ongida hamda hujuda, pedagogik sabablar bilan belgilangan, me'yordan og'ishlari bo'lgan bolalar, deb hisoblaymiz.

Bunga qanday og'ishlar kiradi?

1. O'yin, o'quv, mehnat faoliyatida muvaffaqiyatsizlik, tarbiyalanmaganlik.

2. Xotiraning rivojlanishida orqada qolish, maktab ta'limiga tayyor emaslik.

3. O'z tengdoshlari, ota-onalari, tarbiyachilari, atrofidagilari bilan noto'g'ri munosabatda bo'lish, janjalkashlik, odamlarga qo'shimaslik (pismqlik), tajovuzkorlik.

Maktabgacha yoshdagi bolalar orasida kelgusida o'qishga nisbatan salbiy munosabatda bo'lganlar yo'q qariyb yo'q. Ularning 30% o'qishga nisbatan befarq munosabatda.

Ular uchun xos salbiy ko'rinishlar: 1) o'jarlik va injilik; 2) nokamtarlik; 3) parishonxotirlik; 4) qo'rqoqlik va qo'pollik; 5) yolg'onchilik va dangasalik; 6) tajovuzkorlik.

Maktabga kelgach, pedagogik qarovsiz bola darhol o'z tengdoshlari bilan teng bo'lmagan sharoitlarga tushib qoladi.

O'qituvchilarning qayd etishicha, pedagogik qarovsiz bolalarning 70% maktabga yomon tayyorgarlik bilan kelgan.

Kichik yoshdagi pedagogik qarovsiz o'quvchilar uchun eng tipik sifatlar: 1) o'jarlik; 2) dangasalik va nokamtarlik; 3)

172

bo'shanglik; 4) qo'pollik, sir boy bermaslik (ichimdagini top), 5) qo'rqoqlik, yolg'onchilik; 6) noinsonlik, vijdensizlik; 7) shavqatsizlik; 8) tajovuzkorlik.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga nisbatan tipik salbiy ko'rinishlar soni ko'paydi. Bunday bolalarning yarmiga yaqini sinf bilan ziddiyatli munosabatlarda, jamoatchilik topshiriqlari berilmagan.

Pedagogik qarovsiz kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining orasida faqat 1/3 mehnat qilish ko'nikma va malakalariga ega emas, qariyb yarmini mehnatga nisbatan salbiy munosabatda.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari bolalarni yetarli bilmaydilar, ularning maktabgacha rivojlanish davri, hujjatlaridagi og'ishlar haqida tasavvurga ega emaslar, ularning oilasi haqida hech narsa deya olmaydilar. Bolalar bog'chalari bilan aloqalarning yo'qligi sababli, pedagogik qarovsiz bolalarning birinchi sinfga taqsimlanishi tartibsiz (stixiyali) amalga oshiriladi.

Ko'pchilik ota-onalar bolalarini maktabga tayyorlamaydilar, uning bilishga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirmaydilar, pedagogik savodsizliklari sababli, uyda o'quv mashg'ulotlari va mehnatni tashkil etishga rahbarlik qilmaydilar. Bolalarning pedagogik madaniyatini o'stirishda bolalar bog'chasi bilan maktab hamkorlikdagi birlamchi ishlari katta ahamiyatga ega bo'lar edi. Bolalarning pedagogik qarovsiz qolishining oldini olish bo'yicha bolalar bog'chasi, oila va maktabning yaqin hamkorligini quyidagi yo'nalishlar bo'yicha yo'lga qo'yish mumkin:

1. O'qituvchi va tarbiyachilarning faol ota-onalar bilan pedagogik qarovsizlik muammolari bo'yicha hamkorlikdagi metodik ishlari.

2. Bo'lg'usi birinchi sinf o'quvchilari ota-onalarining pedagogik madaniyatini oshirish, maktab va bog'cha hamkorligi doirasida notinch oilalar bilan individual ish olib borish.

3. Maktabgacha yoshdagi bolalar va boshlang'ich sinf pedagogik qarovsiz o'quvchilari bilan yakka tartibda ish olib borishni tashkil etishda uzviy aloqalarni amalga oshirish.

Huquqbuzarliklarni erta profilaktika qilishni genetik va funksional darajada ko'rib chiqish mumkin. Birinchi holatda, bolalarning ijtimoiy patogenezining oldini olish bilan bog'liq bo'lgan

173

profilaktik ishlarining yosh aspekti haqida soʻz ketayotgan boʻlsa, ikkinchisida esa, turi darajada kriminogen zaharlangan shaxs – huquqbuzarliklar profilaktikasining shaxsiyatga oid aspekti diqqat markaziga chiqadi. Keyingi vaziyatda nafaqat qonunga zid harakatlar takrorlanishining oldini olish, balki qayta tartiblash, shaxsni qayta qurish muhim ahamiyatga ega. Ushbu yoʻnalish profilaktik ishlarining psixologik oʻzgartirilishini kuchaytirishni talab etadi.

Bunday ishning varianti sifatida maktabdagi psixologik xizmatni alohida koʻrsatib oʻtish mumkin.

Maktab psixologining bosh vazifalaridan biri – psixologik tashhis qoʻyishdir. Uning vazifasi – oʻspirin shaxsiyatidagi har xil ogʻishlar va buzilishlarni ularning turi koʻrinishlari bosqichlarida tashhislashdan iborat – alohida jarayon va xususiyatlar darajasida (xotira, diqqat, tafakkur va h.k.), yanada murakkabroq funksional tizimlar bosqichida (mantiqiy xotira, nutq tafakkuri va h.k.), va shuningdek integral psixologik oʻzgarishlar darajasida (feʼl-atvor, oʻz-oʻzini anglash i h.k.).

Psixologning psixodiagnostika faoliyati davomida, doimo diqqat markazida hatto-harakatlarida salbiy hamda tajovuzkor belgi va koʻrinishlar namoyon boʻlayotgan ruhiy noturgʻun, affektga moyil, past ijtimoiy moslashuvchan, feʼl – atvorida psixopatik belgilari bor, yolgʻonchi va iktiyuzlamachi, va shuningdek, isiga toʻsqinlik qilib, tartibni buzishga chaqiruvchi, jinoiy romantika “anʼanalarni” oʻrnatuvchi va h.k. oʻspirinlar turishi zarur.

Psixologning toʻplagan psixodiagnostik maʼlumotlari maktabning qolgan vazifalarini yechish bilan birga pedagog va tarbiyachilar uchun oʻspirinlar haqida muhim bilimlar manbai boʻlib, ularning taʼlim va tarbiyasini individuallashtirishga xizmat qiladi, pedagog xodimlarning psixologik bilimdonlik darajasi ortadi, maktabda oʻspirinlarni bu kontingentining jamiyatga qarshiligini bartaraf etish va huquqbuzarliklarning oldini olish boʻyicha profilaktik ishlarining darajasi oʻrtishga olib keladi.

Keyingi yillarda ota-onasi yoʻq oʻspirinlarning, yaʼni bolalar uylari va maktab-internatlarda tarbiyalanayotganlarning soni sezilarli darajada oshdi. Bolalarni qabul qilish-taqsimlash boʻlimlalariga ota-onasini yoʻqotib qoʻygan, ota-onasi tashlab

kelgan, va shuningdek, bolalar uyidan, maktab – internatdan qochgani uchun miltisiya tomonidan ushlab keltirilgan voyaga yetmaganlarning soni yildan-yilga ortib bormoqda. Respublikaning ayrim regionallarida qabul qilish-taqsimlash boʻlimiga tushgan har 4-5chi voyaga yetmagan bola bolalar uyining yoki internat muassasasining tarbiyalanuvchisidir.

Yuzaga kelgan ahvol, koʻp tomondan bu bolalar va oʻspirinlarni joylashtirish bilan shugʻullanayotgan davlat organlari va mansabdor shaxslar jiddiy qiyinchiliklarga duch kelishayotgani bilan izohlanadi, respublikada voyaga yetmaganlarning bu kontingentiga moʻljallangan internat tipidagi muassasalarda joylar yetarli emas. Ota-onalari homiyligidan judo boʻlgan voyaga yetmaganlarning, aqliy, tafakkur, psixik rivojlanishida, odatda, jiddiy ogʻishlar uchraydi. Ular nafaqat tegishli tarbiya sharoitlariga, balki koʻpincha qayta tarbiyalashga ham muhtojlar.

Pedagogik qarovsiz oʻspirinlarning huquqbuzarliklari profilaktikasining samaradorligi maktab tashqari muloqat jarayonida pedagogik qarovsizlik sabablarini oʻrganishning chuqurligi, pedagogik qarovsiz bolalarning maktabdan tashqari muloqotlari xususiyatlarining aniqlanishi, maktabdan tashqari muloqotga tarbiyaviy taʼsir koʻrsatish yoʻllari va vositalarining maqsadga muvofiq tanlanishi bilan taʼminlanadi.

Pedagogik qarovsiz oʻquvchilar bilan munosabatlar tizimini tahlil qilish, diqqatni oʻquvchilarning oʻquv faoliyatini tashkil etish masalalariga toʻplash imkonini berdi, chunki oʻquvchilarda oʻqishdagi past muvaffaqiyatlari fonida shakllanadigan oʻqishga nisbatan munosabatlarning buzilishi pedagogik qarovsizlik rivojlanishining boshlangʻich bosqichi boʻladi. Oʻquv faoliyati maktab oʻquvchisining asosiy faoliyati boʻlib, undagi muvaffaqiyatsizliklar oʻquvchining jamoa, oʻqituvchilar va oʻrtoqlari bilan munosabatlarining barcha spektrida salbiy aks etadi, uning oʻziga-oʻzi baho berish darajasiga, jamoadagi mavqega taʼsir qiladi. Oʻtkazilgan tadqiqotlarimiz, oʻquvchilarning oʻquv faoliyati xususiyatlariga binoan ularni farqlash oʻquvchilarning oʻquv jarayonida faol ishtirok etishlarini taʼminlashini, ularning oʻquv faoliyatlari asosida tuziladigan, pedagogik maqsadga muvofiq

munosabatlarning shakllanishiga yordam berishini aniqlash imkonini berdi.

Ilova №1

Namunaviy dastur tarbiyasi og'ir va qoloq o'quvchilar bilan maktabda ishlash.

1. Tarbiyasi og'ir va "qoloq" o'quvchilarni o'rganish.
2. Pedagogik yordam tashkiloti.
3. Tibbiy yordam tashkiloti.
4. Tarbiyasi og'ir va "qoloq" o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini rejalashtirish.

Bo'lim I. Tarbiyasi og'ir va "qoloq" o'quvchilarni o'rganish.

1. 1-sinfdan boshlab tarbiyasi og'ir va "qoloq" o'quvchilarni aniqlash, ular uchun mana bu shakldagi qayd dafdarini tutish kerak:

☐ F.I.SH;

☐ Yoshi;

☐ Sinf;

☐ Oila a'zolari, ma'lumoti, mutaxassisligi, ota-onasining ishi;

☐ Oilaviy axvol xaqida qisqacha ma'lumot;

☐ Tarbiyasi og'ir va "qoloq" o'quvchilar xaqida qisqacha ma'lumot, o'qishdagi qoloqligi, xulqi, mulog'ati;

☐ Bartaraf etishdagi meyorlar;

2. O'quvchining sistematik yo'l bilan kuzatish va

faoliyatini(o'quv, mexnat, ijtimoiy foydali...) o'rganish natijasida tarbiyaviy qolokligining xarakterini, bilim omilidagi bo'shliqlarini, bilim va ko'nikmalarini, rivojlanishidagi tutilish va orqada qolishlarni, munosabatlaridagi chegaralarining xarakterini o'rnatish, bartaraf etishning usul va yo'llarini topish.

3. Cotsiometrik kuzatuvlar va anketalashtirish asosida o'quvchining sinf jamoasi, do'stlari ular orasidagi munosabatlarni aniqlash, ularni yaxshilash va o'rnatishning usul va to'plamlarini topish.

4. O'quvchining qiziqish va qobiliyatini qrganib, uni darsdan tashqari, kruiok, ijtimoiy foydali mehnatga jalb etish.

5. "Tarbiyasi qiyin" o'quvchi boshqa guruh, to'dalar, maktabdagi tengqurlar jamoasi, undan tashqari va yashash manzili

atrofidagilarga qo'shilishini aniqlash, bu guruhlarning tarkibi va yo'nalish faoliyatini, o'quvchiga ta'sir xarakterini aniqlash.

6. Bolaning oila jamoasidagi o'rini, o'zaro munosabatlarini, jamoa a'zolarining unga tarbiyaviy ta'sirini o'rganish, ta'sirning usul va yo'llarini topish.

Bo'lim II. Pedagogik yordam tashkiloti.

1. "Tarbiyasi qiyin" o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalaridagi bo'shliqlarni topish uchun sistematik ro'yxatlash lozim, o'quv ishlarida ularni bartaraf etishning usul va yo'llarini topish.

2. "Tarbiyasi qiyin"larning o'quv faoliyatiga yordamlashish va bilimlaridagi bo'shliqlarni to'ldirish o'zlaridagi ishonch va ishtiyoqni oshirish maqsadida, o'quv faoliyatlarini ko'proq band qilish va o'yin elementlarini kiritish.

3. "Tarbiyasi qiyin" o'quvchilar yordamida boshqalarga ko'maklashish, qobiliyati o'quvchilarga "tarbiyasi qiyin"larning sinf jamoasidagi o'rini do'stlar bilan yaxshi aloqalarni o'rnatishga ko'maklashish; sinfda "tarbiyasi qiyin"larga bo'lgan xurmat e'tiborni ko'tarish.

4. Hamma o'quvchilar "tarbiyasi qiyin"larga haqoniy tarbiyaviy maqsadiy talabni kamaytirmagan holda shaxsiy munosabatlarda ularga xurmat e'tiborni, xushmuomila va do'stona aloqada bo'lish;

5. Ota-onalarga "tarbiyasi qiyin" o'smirlar bilan uyda ularning individual-psixologik xususiyatlari, shaxsning kuchli va kuchsiz tomonlariga suyangan holda ularning ish va bo'sh vaqtlarini tashkillashtirish, o'qishlarida yordamlashishni ko'rsatish.

6. "Tarbiyasi qiyin" va qoloq o'quvchilarning ota-onalari bilan tizimli yaxshi munosabatlar va aloqalarni o'rnatish, oila sharoitida ularga mehr, g'amxo'rlik va yordam ko'rsatish, ularning bola tarbiyasidagi bilim va ma'suliyatini oshirish, ularni bolalar bilan maktabda ishlashga jalb etish;

7. Murakkab va nomaqbul oilalar ular bilan olib borilayotgan ishlar va ularning natijalarini ro'yxatlashtirish.

Bo'lim III. Tibbiy yordam tashkiloti.

1. Barcha tarbiyasi "qoloq" qiyin o'quvchilarni vrach mutaxassis yordamida dispanser ko'rikdan o'tkazish; psixik jixatdan shu'xa uyg'otganlarni psixonevrolog va diftologga konsultatsiyaga yuborish.

2. Maktab tibbiy xodimlari u yoki bu psixik va jismoniy rivojlanish ortda qolgan, psixologik va jismonan nosog'lom tarbiyasi qoloq, qiyin o'quvchilarni ro'yxatlash; barcha o'quv-tarbiyaviy ishlarni ularning individual-psixologik xususiyatlariga qurilishi; bularni rejalashtirishda vrach mutaxassis bilan konsultatsiya olishi kerak.

3. Tarbiyasi qoloq, qiyin bolalarga umumiy tetiklashtiruvchi ambulator davoni tashkil etish, agar muxtoj bo'lishsa; vrach mutaxassis yordamida ularning rivojlanishi va sog'liqlarini nazorat qilish.

4. "Qiyin" o'quvchilar bilan olib borilayotganbarcha tibbiy ishlarni sinf jamoasi ichida ovoza qilmay olib borish.

5. Darmonsiz tarbiyasi qoloq "qiyin" o'quvchilarning yozgi xordqlarini nazoratga olish, ularga dam olish oromgoxlari va sanatoriyalarga chipta olishga ko'maklashish. Aqlan va jismonan zaif bolalarni aloxida ajratganda, quyidagi nizomga qat'iy anamal qilish kerak:

Bolalik insonning birlashishiga hayotdagi aniq davri lekin bu davr keyingilardan mima bilan farq qiladi. Bolalik tushunchasi kichkina odamning to'liq hayoti bilan bog'liq, agar bola hech narsa haqida o'ylamasa o'zining talablarini qondirish, boshqa hech narsa unga yozmasa, o'yindan boshqa qoniqish, bolalik davridek saqlanadi. Bolalik, o'smas, usiz fikr qilish kerak emas, albatta bola kattalarning g'amho'riligiga va himoyasiga muxtoj. Bu uning bilan bir paytda bizning bolalarga g'amho'rligimizni aniqlash zarur, kishilardan uni himoya qilish va saqlash zarur. Bolalikning to'kin sochinlik davriga, bundan chiqishga qarshi ko'mak yaxshi bo'ladimi, hayotga boshqacha qarashga majbur qilisak. Bu bolaga foyda beradimi, yasama sharoitda uni uzoq ushlash. Bu bilan biz bolaga zarar yetkazamiz, bu uni himoyalash bo'lmaydi. Bu mulohaza aniqlikni talab qiladi. Birinchidan bolalik to'kin-sochinlik davri hayoti emas. Bu bizga, kattalarga, hayot muammolari tarafdan

qarasak, bolalarda ham yo'q, ular faqat o'ynaydi va quvonishadi. Bunday qarash noto'g'ri.

Bolalar hayotida huddi kattalarnikidek, murakkab muammo, qiyin yechiladigan, yechib bo'lmaydigan, ular bolalarni o'ylashi, qiyinlashib, qiyinchilikni bartaraf qilishga kurash, quvonishga majbur qiladi. Bolalar orasida va kattalar orasida o'zaro murakkab muomala kelib chiqadi. Kattalar bolalarga qanchalik qiyin yashash, qanchalik hayot mazmunini ularning tarbiyasida xatoga yo'l qo'yishi mumkin. Ikkinchidan haqiqiy bolalik-bu oldinga intilishi bu to'xtamaydigan katta bo'lish, bola katta bo'lishni xoxlaydi. Ko'p o'yinlarda biz kuzatamiz. Bolalar o'ziga dadasining, oyisining, shifokorning, quruvchining, xarbiylarning, sotuvchining rolini oladi. Bolaning o'zidan kichkinaning rolini olishini topish qiyin. Bolalar hayotning mazmuni bolalikning maqsadi tezroq katta bilishdir. Shu tarzda bolalikka boradigan bo'lsak bizning o'rnimizda bolalar boshqacha o'rin tutishlari kerak. Ular bilan muomalada, ularning katta bo'lish talabiga to'g'ri borish kerak. Har doim uning kichkinaligini aytish o'rinli emas.

Bola haqida bizning g'amho'rligimiz pedagogik tushunchada shuni anglatadiki biz bilan muomalada u mexr sezsa, bu unga huddi kattalardек, kichkina boladek tushummasak, muhim ishlarni topshirsak, ular bilan hisoblashsak, unga katta bo'layotganini sezdirsak halos. Tarbiyaning vazifasi, bolalarga katta bo'lishda yordam berish eng kichik harakatini qo'llab-quvvatlashdir. Faqat shunday qilib unga qadqiqiy bolalikni berish mumkin. Quvonchi va tasavvuri bolalikning faqat o'yinchogda o'z talabini qondirishimiz emas, hayotda o'zini ochishi, o'z kelajakka yaqinlashishida. Mana nima uchun bolalar o'zicha mustaqil ishlari qiladi, o'z harakatida mustaqilligini isbotlaydi, o'yinlarda o'ynashadi. O'yinchoqlar olishadi, qaysilari ulrni kattalar dunyosiga olib kiradigan. Bu sarguzashtlarga to'la qiyinchilikni va faoliyatni yengish, kelajakka intilish bu bizning bolalarimizning qadqiqiy bolaligi. O'n ming yilliklarning o'tgan yillarida xoxish, maktabga borish, yanayam ko'proq bilish, kirish, o'qishga o'rganish, yozishga, sanashga, ya'ni do'stlar ortirishdir, bolalik bu natija bilishi mazmuni shundayki yanayam mazmunliroq, qiziqroq, aqlli, mustaqil

shayotning zarurligi muqtojligidir. Tarbiyada kelishmovchilikning kelib chiqishi haqida.

Kattalar va bolaning orasidagi kelishmovchilik, tarbiyachining va tarbiya oluvchining bilishi oz emas. Bu qo'pol formalarga o'tishi mumkin, yashirin ham o'radi, yoki tez o'chadi, kelishmovchilikning bartaraf etilishi kattalardan talab qilinadi. Qarama-qarshilik kelib chiqadi, uni qanday bartaraf etish mumkin. V.Uspadzeining kontseptsiyasini bemalol aytmoqchiman tarbiyaning tragediyasi haqida.

Tarbiyaning maqsadi jamiyat orqali birkadi, tarbiyachi uning amalga oshishiga intilib, o'z tarbiyalanuvchilar haqida g'amho'rlik qilib ularning qiziqishlari bilan to'qnash keladi. Har bir insoning shaxsi ta'lim, ijtimoiy muhit ta'sirida shakllanadi. Natijada u ijtimoiy jihatdan ahamiyatli bo'lgan vazifalarni bajaradi, ijtimoiy rolni o'zlashtirib oladi, o'zining qiziqishi, qobiliyatini ijodiy muloxaza qilib ko'radi, jamiyatning boshqa a'zolari bilan mustaqil munosabatga kirishadi va shu tariqa shaxsning ijtimoiylashuvi yuz beradi. Komil inson-yetuk shaxsning shakllanishida ta'lim to'g'risidagi qonunga muvofiq kadrlar tayyorlashning modeli va dasturi hal qiluvchi rol o'ynaydi. Milliy model va dasturlarning maqsad va vazifalarini amalga oshirish o'z Vataniga fidokor, istiqbol va demokratiya g'oyalariга sadogati shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi. Ijtimoiy-siyosiy hayotda ongli ravishda qatnashadigan, ijtimoiy jarayonlarga faol ta'sir ko'rsatadigan o'z mamlakatni taqdiri uchun ma'sul bo'lgan shaxsni tarbiyalashdir.

Yosh avlodni yetuk inson sifatida tarbiyalash "ta'lim to'g'risidagi qonun"ning amaldagi qo'shimcha o'zgartirishlari va ta'lim xaqidagi milliy dastirining bosh maqsadlaridan biridir.

Shaxsning ijtimoiylashuvini ifodalovchi muhim ko'rsatkichlardan biri uning ijtimoiy faolligi va harakatchanligidir. Ijtimoiy faollik-bu shaxsning jamiyat ishlarida ongli ishtiroki, ularning borishiga ma'lum darajada ta'sir o'tkaza olmasdi, uni o'zgartirish, ularning borishiga ma'lum darajada ta'sir imkoniyati tushiniladi. Milliy dastirning amalga oshirilishi jarayonida xalqning milliy madaniy, tarixiy an'analari, urf-odatlari, umumbashariy qadriyatlarga asoslangan yoshlarni tarbiyalashning samarali tashkiliy va pedagogik prinsiplari ishlab chiqiladi.

Ullarning asosida yotgan ta'limiy-tarbiyaviy g'oyalarga ko'ra shaxsni tarbiyalash va har tomonlama kamol topdirish ustuvor kasb etadi. Bunday ustuvorlik qobiliyati bolalarni qo'llab-quvvatlash or qali amalga oshiriladi.

Qobiliyati bolalarni o'qitishning zamonaviy psixologik va pedagogik tashkiliy sharoitlari vujudga keladi. Bu uchun ta'lim metodologiyasi ishlab chiqiladi. "Iqtidorli bolalar" ta'lim-tarbiyaning monitoringi shakllanadi. Ilmiy-texnik innovastiya markazi kabi maxsus ta'lim muassasalari tashkil etiladi. Bu yerda o'quvchi yoshlar o'z qobiliyati, iste'dodini rivojlantiradi, ilmiy-texnika sohasidagi salohiyatini kengaytiradilar. Xalqaro miqyosda axborot va tajriba almashuvi bilan bog'liq tadbirlar ko'lamini oshmoqda. O'quvchi va mutaxassislarni dunyodagi yetakchi ilm-fan va ta'lim muassalarida o'qitish imkoniyatlari yaratilmoqda. Qobiliyati bolalar, iste'dodli yoshlarni xorijiy davlatlarda o'qitish, qayta tayyorlash va malakasini oshirishga xizmat qiluvchi «Umid», «Ustoz» kabi jamg'armalarning tashkil etilishi buning kafolatidir. O'quvchilarning tug'ma qobiliyatlari va iste'dodini har tomonlama rivojlantirish, miliy va umumbashariy asharniyatga molik dunyoviy, ma'naviy boylıklardan baxramand etish, shaxs, jamiyat va atrof-muhit munosabatlarida uyg'unlikka erishish, "Ustoz-shogird"likning tarixiy an'analari asosida samimiy munosabatlar o'rnatish-ta'limni insonparvarlashirish negizini tashkil etadi. Ta'limni insonparvarlashirish jarayoni o'qituvchilarni intellektual-axloqiy imkoniyatlarni ochishning uslub va mexanizmlarini beradi, unga o'tishgan holda munosabatda bo'lishga va uni amalga oshirishga o'rgatadi. Insonparvarlashirish, ta'lim bilan ijtimoiy munosabatlar o'rtasidagi ziddiyatlarini bartaraf etadi. Bulajak mutaxassislarini erkin, mustaqil, tanqidiy fikrlovchi shaxs sifatida kamolga yetkazadi. Bizning eng katta yutug'imiz o'z boyligimizga o'zimiz ega bo'lganimizdadir. Binobarin, ularda minnadorchilik, g'urur va ishonch tuyg'ularini tarbiyalashimiz kerak. Ma'naviy, axloqiy mukammallik, vijdonlilik, or-nomuslik, yaqinlarga g'amxo'r bo'ling va boshqa insoniy tuyg'ular o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmaydi, ularning asosida tarbiya yotadi. Milliy dastirning amalga oshirilishi jarayonida xalqning milliy madaniy, tarixiy an'analari, urf - odatlari, umumbashariy qadriyatlarga asoslangan yoshlarni tarbiyalashning

samarali tashkiliy va pedagogik prinsiplari ishlab chiqiladi. Ularning asosida ta'limiy -tarbiyaviy g'oyalarga ko'ra shaxsni tarbiyalash va har tomonlama kamol toptirish ustuvor kasb etadi. Bunday ustuvorlik qobiliyati bolalarni qo'llab-quvvatlash orqali amalga oshiriladi. Qobiliyati bolalarni o'qitishning zamonaviy psixologik va pedagogik tashkiliy sharoitlari vujudga keladi, ta'lim metodologiyasi ishlab chiqiladi. Iqtidorli bolalar ta'lim-tarbiyaning monitoringi shakllanadi. Ilmiy-texnik innovatsiya makazi kabi maxsus ta'lim muassasalari tashkil etadi. Bu yerda o'quvchi yoshlar o'z qobiliyati, iste'dodini rivojlantiradi, ilmiy-texnika sohasidagi salohiyatini kengaytiradilar. Xalqaro miqyosda axborot va tajriba almashuvi bilan bog'liq tadbirlar ko'lamini oshmoqda. O'quvchi va mutaxassislarni dunyodagi yetakchi ilmi-fan va ta'lim muassalarida o'qitish imkoniyatlari yaratilmoqda. Qobiliyati bolalar, iste'dodli yoshlarni xorijiy davlatlarda o'qitish, qayta tayyorlash va malakasini oshirishga xizmat qiluvchi «Unid», «Usto» kabi jamg'armalarning tashkil etilishi buning kafolatidir.

O'quvchilarning tug'ma qobiliyatlari va iste'dodini har tomonlama rivojlantirish, miliy va umumbashariy ahamiyatga molik dunyoviy, ma'naviy boyliklardan baxramand etish, shaxs, jamiyat va atrof-muhit munosabatlarida uyg'unlikka erishish, "Usto-shogird"likning tarixiy an'analari asosida samimiy munosabatlarini o'rnatish-ta'limning insonparvarlashtirishning negizini tashqil etadi.

Ta'limni insonparvarlashtirish jarayoni iqtuvchilarning intellektual-axloqiy imkoniyatlarini ochishning uslub va mexanizmlarini beradi, unga ishangan holda munosabatda bulishga va uni amalga oshirishga o'rgatadi. Insonparvarlashtirish ta'lim bilan ijtimoiy munosabatlar irtasidagi ziddiyatlarini bartaraf etadi.

Bo'lajak mutaxassislarni erkin, mustaqil, tanqidiy fikrlovchi shaxs sifatida kamolga yetkazadi.

MUSTAXKAMLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ijtimoiy pedagogik faoliyat qanday tashkil etiladi?

2. Maktabgacha yoshdagibollarni adaptatsiyasini tashkil etish qanday kechadi?

182

3. Ta'limda insonparvarlashtirish tushunchasi nima?
4. Maktabgacha yoshdagi bolalarda o'quv ko'nikmasi nima?

ADABIYOTLAR

1. Shul'gin V.N. «Osnovnie voprosi sotsial'nogo vospitaniya» M-1994
2. Shurkova «Novie tekhnologii vospitatel'nogo protsessa» M-1994
3. Galaguzova M.A. i dr «Sotsial'naya pedagogika» M-1994
4. M.V. Firsov Antologiya sotsial'noy raboti M-1994
5. Klayberg Yu.A. Sotsial'nie normi i otklyucheniya M-1997
6. Deti s otkloneniymi v razviti. Metodich. Posobie dlya pedagogov
- vospitateley massovix i spets uchrejdeniy roditeley M-1997
- www. pedagog. uz

IJTIMOIY PEDAGOGNING MAKTAB YOSHIDAGI BOLALAR BILAN OLIB BORADIGAN FAOLIVATI

Ijtimoiy pedagog avambor qo'yidagilarni bo'lishi lozim: Ijtimoiy tarbiya, oila pedagogikasi, o'quvchi shaxsi deganda nimani tushinish kerak, bolaga ta'sir ko'rsatishning(o'krazishning) va muamla metodlarining qanday tu'rlari bor, tarbiyasi og'ir bolalar bilan ish olib borishning o'ziga xos xususiyatlari va xakozo.

Ijtimoiy pedagog faqatgina aloxida shaxs bilan bolalar bilan, o'smirlar bilan, agarda guruh bo'lib ishlashi kerak bo'lsa faqatgina kichkina guruh bilan, agar o'yla bilan esa faqat kichik oylalar bilan, lekin har biri bilan aloxida ish olib boradi.

Ijtimoiy pedagogning vazifasi bu bolalarni, o'smirlarni ijtimoiy muxafaqa qilish, ularga ijtimoiy yoki tibbiy yordam ko'rsatish, uning o'qishini tashkillashtira olish, shuningdek, ularning obro' e'tiborini tiklash va jamiyatga moslashtira olish o'quviga ega bo'lishi lozim. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun bolani xar tomonlama o'rganish, inqiroz darajasini va uni bartaraf etish yo'llarini rejalashtira olishi kerak. Buning uchun esa pedagog ijtimoiy xizmat faoliyati bilan shunigdek, ijtimoiy, muxofaza qilish ishlari bilan yaqindan-tanish bo'lishi kerak. Bu esa ijtimoiy

183

pedagogning kasbiy tayyor-bulishini va yuqori darajadagi pedagogik maxoratga ega bo'lishini talab qiladi.

Ijtimoiy pedagog qo'yidagi fanlar bo'ycha kasbiy bilimlarga ega bo'lishlari lozim: Pedagogika va psixologiya, bolaning rivojlanish, fiziologiyasini, tarbiya ishlari metodikasini va xakozo va bolalar bilan xamkorlik o'rnatish va tashkillashtirish olishi lozim.

Shuningdek ijtimoiy pedagog-pedagogik texnologiyani ham bilishi kerak bo'ladi. Demak, tarbiyalanuvchilarga ta'sir o'tkazish yo'llari, malaka va maxoratga ega bo'lishi kerak. Bularga quyidagilar kiradi: artist bo'la olish, chiroyli nutq, ritm, temp, tembr, mimika va imo-ishoralar, alkogolik va narkoman, foxshtalr bilan shaplashish tonini va tilni topa olish. Natqat gaplashish xattoki ularga ta'sir utkazish va ishonitira olishlari kerak bo'ladi. Ijtimoiy pedagog muamala madaniyati va gaplashish texnikasiga e'tibor qaratishi lizim bo'ladi. Xozirgi kunda ijtimoiy pedagog:

- maktabta sinfda nosog'lom oilalar bolalari bilan ishlashida;
- maktab-internatlarda, mexribonlik o'ylarda, bolalar o'ylarida;
- ijtimoiy-ta'limiy markazlarda, ijtimoiy-psixologik xizmat markazlarida;

- reabilitatsion-korreksion markazlarda;

- madaniyat markazlari, yoshlar klublari;

- yozgi dam olish va mexnat lagerlarida ish olib boradilar.

Asosan bu maxkamalarda ijtimoiy pedagoglar bolalar va oylalar bilan ish olib boradi va ular quyidagilardan iborat: Faqatgina bolalarning(o'smirlarning) bilimlarigina ijtimoiy pedagogning ularga yordam berishi yoki qayta tarbiyalashda to'shri yo'l tanlashida yordam bera oladi. Ularning sog'lig'ini, oilasidagi o'zaro munosabatlarni, maktabga o'z tengqo'rlari bilan munosabatlarini, munosabatlari qanday ekanligini bilishi zarur. Pedagog suxvat, anketa javoblari, tengdoshlari bilan bo'lgan munosabatlaridagi xulq-atvordan, bolalar bilim saviyasidan bilib oladi. Ijtimoiy pedagogning olib boradigan ishinig keyingi bosqichi bu bola (o'smir) bila birgalikda uning xolatini, u tushib qolgan vaziyatni, «atrofdagilarning xammasi ayibdor» deb qaramasidan bolaning o'zining xatixarakatiga e'tibor qaratishi

orqali tushinib olish. Vaziyatni aniqlashtirib va unda ishtirok etish bilan inqirozdan chiqib ketish yo'lini topishi mumkin.

Xalq ta'limi tizimida voyaga yetmaganlarning huquqbuzarliklarini profilaktika qilishni boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari;

O'sib kelayotgan avlodni tarbiyalash sohasida yetakchi davlat organi bo'lgan xalq ta'limi organlarining voyaga yetmaganlarning huquqbuzarliklarini ijtimoiy-pedagogik profilaktika qilish tizimida ega bo'lgan o'rni hamda ahamiyati umumta'lim maktablarning oldiga qo'yilgan vazifalardan kelib chiqib, belgilanadi. Xalq ta'limi organlarining imkoniyatlaridan voyaga yetmaganlarning jinoyatchiligini va boshqa huquqbuzarliklarini oldini olish uchun samarali foydalanish ta'lim, tarbiya va rivojlanishning tarkibiy qismini tashkil etadi.

Xalq ta'limi organlari – huquqbuzarliklar profilaktikasining tarbiyaviy ishlar uchun maxsus tuzilgan yagona sub'yekti bo'lib, bu xalq ta'limi organlarini o'quvchilarning qonunga zid hatti-harakatlarini ijtimoiy-pedagogik profilaktikasining boshqa sub'yektlaridan ajratib turadi.

Kriminologik nuqtai nazardan olganda, xalq ta'limi organlarining muhim xususiyati - o'spirin shaxsida sezilib boshlangan me'yordan og'ish belgilarini va shuningdek oiladagi o'spirin shaxsiga salbiy ta'sir etuvchi notinchlik faktlarni aniqlashda ularning ustivorligidir.

Xalq ta'limi organlarining voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarini oldini olish bo'yicha faoliyati o'zaro bog'liq bo'lgan iktita vazifadan iborat:

- ichki funktsiya - o'quvchilarning huquqbuzarliklarini bevosita maktab tarbiyasi jarayonida profilaktika qilish;

- tashqi funktsiya - huquqbuzarliklarni yoshlarning maktabdan tashqari muhitida profilaktika qilish.

Biroq, hozirgi vaqtda bu sohada tashkiliy masalalarni hal qilishda tuman (shahar) bo'limlari faol ishtirok etayotgan bo'lsa-da, ma'muriy-hududiy darajada yoshlarning huquqbuzarliklarini

umumijtimoiy va maxsus profilaktikasida ta'lim organlarining o'rni va roli haqidagi masala hali ham yetarli darajada aniq yechimini topgan emas.

Nazarimizda, xalq ta'limi organlari professional pedagogik organlar sifatida quyidagi masalalar yechimida yetakchi bo'lib qolishi kerak:

- tarbiyaviy ishlardan keng foydalanib, individual profilaktikani amalga oshirish;
- voyaga yetmagan huquqbuzarlarni hamda "tarbiyasi qiyin" o'spirinlarni turli xil (nostandard) noan'anaviy ta'lim - tarbiya shakllariga jalb etish;
- yashash joylarida va hordiq chiqarish tashkiliy shakllarida o'spirinlar bilan pedagogik ish olib borishni ta'minlash;
- oilaviy tarbiyaga yordam ko'rsatish, unda mavjud kamchiliklarini bartaraf etish;
- tumanda voyaga yetmaganlarning huquqbuzarliklarini ijtimoiy-pedagogik profilaktika qilishga metodik rahbarlik qilish.

O'zlarining to'g'ridan-to'g'ri vazifalari va kasbiy imkoniyatlariga muvofiq xalq ta'limi bo'limlari va pedagoglarning huquqbuzarliklarni profilaktika qilish bo'yicha ma'lum tajribasi to'plangan.

Biroq, biz o'tkazgan tadqiqotlar tarbiyaviy jarayonda bir qator kamchiliklarning mavjudligini va ular voyaga yetmaganlarning huquqbuzarliklarini ijtimoiy-pedagogik profilaktika qilishni amalga oshirishga salbiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi.

Bunda: o'quvchilarning mehnat, huquqiy, estetik va gumanitar tarbiyasida mavjud kamchiliklar;

- yoshlarning kasbiy yo'naltirishida mavjud kamchiliklar;
- yoshlarning zamonaviy qiziqishlari sinfdan tashqari ishlarda yetarli darajada hisobga olinmasligi va, nihoyat, yoshlarning bir qismining jamiyatga zid bo'lgan hatti-harakatlariga, masalan, narkotik sifatida meditsina va ximiyaviy preparatlarni ist'yemol

qilishga nisbatan pedagoglarning o'z vaqtida munosabat bildirimasligi salbiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.

Tadqiqotchilarimiz tomonidan shuningdek, umumta'lim maktablari o'zlarining 9-sinfni bitirgan taxminan 60% "tarbiyasi qiyin" o'quvchilaridan, ularni KHTBYU jo'natib, (birinchi navbatda, voyaga yetmaganlarning ishlari bo'yicha inspeksiya hisobida turganlaridan) xalos bo'lishi sababli, kasb-hunar bilim yurtlarida "qiyin" o'spirinlarning yuqori darajada to'planib qolishi aniqlandi.

"Tarbiyasi qiyin" bo'lgan bolalarning, shu jumladan huquqbuzarlarning ham, bunday o'quv yurtlarida to'planib qolishi, u yerda shakllanadigan man'aviy-psixologik iqlimidagi o'ziga xoslik, ilgari "tarbiyasi qiyin" hisoblanmagan va voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha inspeksiya hisobida turmagan o'quvchilarning ham u yerda huquqbuzarlik sodir etishiga olib keladi.

Biroq, keltirilgan faktlar barcha KHTBYU tegishli emas, hamda u yerda tartibsiz o'quvchilar, pedagogik qarovsiz qolgan va "qiyin" o'spirinlar bolalalar bilan muvafaqqiyati tarbiyaviy ishlar amalga oshirilishi mumkin emasligini bildirmaydi.

Toshkent shahridagi 25-KHTBYU 1986 y. 19 o'quvchini ro'yxatdan chiqarishga majbur bo'ldi, chunki ular turli xil jinoyatlarni sodir etgani uchun jinoiy javobgarlikka tortilgan edi.

Bilim yurtining ma'muriyati bilan birgalikda, bilim yurtidagi ta'lim-tarbiyaviy ishlar rejali va bosqichma-bosqich tubdan yaxshilanishiga erishishi uchun, bunday salbiy holatlarning sabablari (shart-sharoitlari) sinchiklab o'rganib chiqildi. Maqsadga yo'naltirilgan, ilmiy asoslangan va prognozlangan chora-tadbirlar tizimi o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning samaradorligini oshirishga imkon berdi. Bunga quyida keltirilgan taqoslama jadvalda aks etgan yilma-yil jinoyatchilikning sekin kamayib borishi ko'rsatkichlari guvohlik beradi.

O'quvchilar orasida huquqbuzarliklarni ijtimoiy-pedagogik profilaktika qilish bo'yicha maqsadga yo'naltirilgan eksperimental-pedagogik ishlar amalga oshirilishi natijasida jamoada

huquqbuzarlik hatti-harakatlari amalda yo'qotildi, va natijada bilim yurti 1993 yildan litseyga aylantirildi.

"Qiyin" o'spirinlar yuqori darajada to'plangan o'quv yurtlarda o'quv-tarbiyaviy jarayonni amalga oshirish uchun qulay sharoitlar yaratish uchun xalq ta'limi organlari va hokimiyatlar katta moddiy va metodik yordam ko'rsatishi va kasbiy mahoratga ega tajribali pedagoglar bilan ta'minlashi zarur.

Umunta'lim maktablari va texnikumlar uchun yuqorida ko'rsatilgan holatlar kam xos bo'lsa-da, ammo bu yerda ham, asosan maktab-internatlar kabi, ba'zi yuqori darajada kriminogen o'quv yurtlari mavjud.

Umunta'lim maktablarida o'quvchilarning tartibsizligi va huquqbuzarliklari o'sishiga sabab bo'ladigan o'ziga xos omillarning orasida, umuman ta'lim obro'sining pastligi muammosi alohida ajralib turadi. Ko'pgina o'quvchilar o'rta maktabda ta'lim olish ma'nosini tushunmaydilar va uni majburiy zaruriyat sifatida qabul qilishadi, bu esa o'z navbatida ko'pincha tartib buzilishlarida, o'qishdan muntazam bo'yin tovlashlarda va h.k. namoyon bo'ladigan faol noroziliklarni keltirib chiqaradi.

"Obro'li bo'lmagan kasb-hunarga" o'rgatadigan kasb-hunar texnika bilim yurtlarida voyaga yetmaganlar bilan ishlash inspeksiyalarida hisobda turuvchi o'quvchilarning orasidan faqat 18% bo'lg'usi kasbga nisbatan qiziqish namoyon bildiradigan, 32% qisman qizishi bo'lgan, 50% esa umuman hech qanday qiziqish bildirmaydigan vaziyat yuzaga keladi.

Keyingi yillarda respublika xalq ta'limi boshqaruvi davlat organlarida, amaliyot ko'rsatayotganidek, voyaga yetmaganlarning huquqbuzarliklarini barcha boshqaruv bosqichlarida rejalashtirilayotgan maxsus profilaktikasiga ko'proq diqqat-e'tibor berib boshlandi. Bunday yondashuv, bir tomondan, huquqbuzarliklarni profilaktika qilish ishlarini tashkil etishda spetsifik xususiyatlarining hisobga olinishini, boshqa tomondan - tarbiyaviy jarayonni tashkil etishda kompleks yondashuvga rioya qilinishini kafolatlaydi.

Huquqbuzarliklarni maxsus profilaktika qilish bo'yicha chora-tadbirlar odatda, alohida olingan o'quv yurtlardagi huquqbuzarliklarning darajasi, tumanda (shaharda) voyaga yetmaganlar jinoyatchililgining xarakteri va xususiyatlari haqidagi, bo'ysunuvdagi o'quv yurtlardagi profilaktik tadbirlar haqidagi ma'lumotlarning tahlildan kelib chiqib, rejalashtiriladi. Respublika IV va(tuman bosqichida) voyaga yetmagan yoshlar bilan ishlash inspeksiyalari xalq ta'limi organlarini muntazam ravishda ma'lumotlar bilan ta'minlab turishadi, lekin ulardan, odatda, yetarli darajada foydalanilmaydi.

Huquqbuzarliklarni maxsus profilaktika qilish bo'yicha chora-tadbirlarni muvofiqlashtirib, o'quvchilarning huquqiy tarbiyasini takomillashtirib, respublika xalq ta'limi organlari respublikaning yustitsiya Vazirligi va ichki ishlar Vazirligi bilan qo'shma kollegiya yig'ilishlarini o'tkazishardi. Voyaga yetmaganlarning jinoyatchiligi ahvoli va sabablarining, huquqbuzarliklarni profilaktika qilish bo'yicha ishlardagi mavjud kamchiliklarni tahlil qilish asosida huquqbuzarliklarning oldini olish, o'quvchilarning huquqiy tarbiyasida qonuni muhofaza qilish organlari xodimlarining faoliyatini muvofiqlashtirish, va shuningdek ishtirok etishi bo'yicha qo'shma qarorlar ishlab chiqildi.

Tadqiqot davrida huquqbuzarliklarning ijtimoiy-pedagogik profilaktikasini tashkil etishda, oliy boshqaruv bosqichida xalq ta'limiga bir nechta muassasalar tomonidan rahbarlik qilishi bilan bog'liq bo'lgan ma'lum qiyinchiliklar paydo bo'lardi. Bu ijtimoiy-profilaktika ishida uzviylikni ta'minlashga va yagona huquqbuzarliklarni profilaktika qilish dasturini ishlab chiqishga halagit berardi.

SHu sababli, yagona ta'lim va tarbiya jarayonini rivojlantirish va faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yagona respublika boshqaruv markazining tashkil etilishi, bir vaqtning o'zida huquqbuzarliklarning ijtimoiy-pedagogik profilaktikasining qulay tashkil etilishi uchun ob'yektiv shart-sharoitlarni yaratadi, bu sohadagi talablarning yaxlitligi kabi, alohida tumanlarning va o'quv yurtlarining o'ziga xosligi hisobga olinishini ham ta'minlaydi.

Kelajakda xalq ta'limi Vazirligi qoshida, tarkibiga kriminologik tahlil va rejalashtirish bo'yicha mutaxassislar, pedagog-metodistlar, psixologlar, psixiatrlar, yuristlar kiradigan, huquqbuzarliklarni profilaktika qilish bo'yicha tashkiliy-metodik markazning tuzilishi zarur ko'rinadi. Tayyorlangan tavsiyalar bo'yicha boshqaruv qarorlari Vazirlikning xodimlari kabi, tuman XTB (voyaga yetmaganlar va yoshlar ishi bo'yicha bo'limlarning) va alohida o'quv yurtlarining vakillari ham kiradigan kollegial organ tomonidan qabul qilinishi lozim.

Pedagogik kriminologiya bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash va XTB inspektorlarining eng tajribali pedagoglar safidan tayinlanishini amaliyotga kiritish masalasini hal qilish zarur ko'rinadi.

Tuman (shahar) hokimiyatining huquqbuzarliklarni pedagogik profilaktika qilish kengashini (xalq ta'limi kengashi seksiyalari) tashkil etilishi tuman (shahar) ta'lim organlarida ijtimoiy-profilaktik faoliyatni hisob-kitob qilish, rejalashtirish va boshqarishni ta'minlash maqsadida kadrlar muammosini yechish variantlaridan biridir. Bunday Kengashlarning tarkibiga tuman XTB, qaysi muassasaga bo'yinishidan qat'iy nazar, o'quv yurtlari va maktabgacha ta'lim muassasalari (seksiyalari) vakillari, va shuningdek huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari (asosan VEl), o'spirinlar orasida alkogolizm va narkomaniya muammolariga ixtisoslashgan vrach-narkolog kirishi zarur.

Bunday kengashlar (seksiyalar)ning bosh vazifasi – xalq ta'limining o'quv yurtlari va, ular bo'yinishidan qat'iy nazar, boshqa muassasalarda, voyaga yetmaganlarning huquqbuzarliklarining profilaktika qilish ishlariga metodik rahbarlikni tashkil etishdan iborat.

O'quvchilar orasida jamiyatga qarshi xilof ko'rinishlarning namoyon bo'lishini oldini olish bo'yicha ta'lim organlari hal qilishi zarur bo'lgan

muhim masalalardan biri, bizning fikrimizcha, tegishli mezonlarni ishlab chiqish asosida huquqbuzarliklarni profilaktika qilish uchun ma'suliyatini o'quv yurtlarining oshirishdan iborat.

maliyot ko'rsatayotganidek, o'quv yurtining ushbu sohada olib borayotgan ishini baholash mezonini bo'lib, o'quvchilarning orasida qonunga xilof ko'rinishlarning intensivligi xizmat qiladi. Bunda o'quv yurtlarida tarbiyaviy ishlarining amalga oshirishdagi ob'yektiv shart-sharoitlar, o'quvchilarning sifat tarkibi va boshqa omillar deyarli hisobga olinmaydi.

Fikrimizcha, o'quv yurtlarida tarbiyaviy va profilaktik ishlarining olib borilishining sifat ko'rsatkichlari quyidagilardan iborat bo'lishi zarur: real profilaktik chora-tadbirlarning hajmi va samaradorligi, huquqbuzarlik ko'rinishlar darajasidagi ijobiy (salbiy) o'zgarishlar (bunda o'quvchilarning demografik tarkibi, "tarbiyasi qiyin" o'spirinlarning to'planganlik darajasi hisobga olinishi zarur) va boshqa omillar.

O'quvchilarning (shu hisobda, huquqbuzarliklarning ham) sindan tashqari ishlarining seksiya, to'garak va boshqa shakllariga jalb etilishi ko'rsatkichlari ishlarining sifat emas, balki miqdor jihatini aks ettiradi. Tadqiqotlarimiz ko'rsatganidek, odatda sindan tashqari ishlariga o'quvchilarning muntazam jalb qilinishi talab etilishi sababli, ularning aksariyat qismi to'garaklar, seksiyalar, qiziqishlari bo'yicha fakultativlar yoki texnik ijodiyot to'garaklarining ro'yxatida hisobga olingan. Biroq, anketaning natijalaridan ma'lum bo'lganidek, faqat 36% o'quvchigina haqiqatdan ham, shunda ham muntazam emas, turi seksiyalarning ishida ishtirok etishar ekan.

Pedagoglar bilan olib borilgan suhbatlar davomida, ularning anketa savol lariga bergan javoblaridan olingan ma'lumotlar, o'quvchilarga, va birinchi navbatda intizomni muntazam ravishda buzayotgan va turli xil tartibsizliklar qilayotgan o'quvchilarga ta'sir ko'rsatishning samarali chora-tadbirlarini izlash hali ham erta profilaktika qilishning dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolayotganligini ko'rsatmoqda.

Umunan olganda, hozirgi vaqtda ilmiy asoslangan pedagogik rag'batlantirish va jazo berish tizimi mavjud emas.

YUzaga kelgan vaziyatni tuzatish maqsadida metodik materiallar, seminarlar o'tkazish va b. uchun pedagoglar,

psixologlar, yuristlar va b. harakatlarini birlashtirish maqsadga muvofiq ko'rinadi.

Maxsus maktablarda, maxsus KHTBYU, va shuningdek "tarbiyasi qiyin" bolalarning soni ko'p bo'lgan o'quv yurtlarida ishlashi uchun pedagoglar va tarbiyachilarni maxsus tayyorlash zarur.

Tuman kengashida boshqarmalarga qarashi o'quv-tarbiya muassasalarida erta profilaktikani tashkil etilishi va shuningdek, ijtimoiy-profilaktika ishlarning huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan asl muvofiqlashtirishni amalga oshirish kerak.

Maktab tarbiyaviy-profilaktika tizimining shakllanishi, faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishi, uning darajalari, vazifalari, bosqichlari;

Maktabning kichik tarbiyaviy-profilaktika tizimining shakllanishi, faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishi jarayonini boshqarish uchta: ijtimoiy-pedagogik, tashkiliy-pedagogik va psixologo-pedagogik darajada amalga oshiriladi. Albatta, uchtasi ham pedagogik boshqaruvdir, biroq, birinchisi, asosan, voyaga yetmaganlarning huquqbuzarliklarini ijtimoiy-pedagogik profilaktika qilish kichik tizimining faoliyat ko'rsatishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish bilan, ikkinchisi-bolalarning hayot faoliyatini tashkil etish bilan, uchinchisi-umuman tarbiyaviy-profilaktika tizimi ishtirokchilarining o'zaro munosabatlar jarayoni bilan bog'liq.

Boshqaruvning ikkita keyingi darajasi maktab tarbiyaviy tizimining o'ziga xos. Ijtimoiy-pedagogik darajada XTBlarning har bir maktabda voyaga yetmaganlarning huquqbuzarliklarini ijtimoiy-pedagogik profilaktika yetarli darajada samarali boshqaruv faoliyatining kichik tizimining shakllanishi va normal faoliyat ko'rsatishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha boshqaruv faoliyati ta'riflanadi.

O'tkazilgan tadqiqot, maktabning kichik ijtimoiy - profilaktika tizimini boshqarishda pedagogik jamoaning o'zaro munosabatlarini yaxlit bir butunning komponentlari sifatida pedagogik korreksiya qilish muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatdi. Ularning o'zaro

harakati, hamkorligi ob'yektiv xarakterga ega. Ular tizim yaratuvchi aloqaga ega.

Kichik ijtimoiy - profilaktika tizimining asosiy vazifalari - integratsiya qilish va tartibga solishdan iborat. Birinchisi ilgari tarqoq, kelishilmagan pedagogik ta'sirlarni yagona bittaga birlashtirishni ta'minlaydi. Tartibga soluvchi vazifa tarbiyaviy - profilaktik, tuzatish jarayonni tartibga solishga, uni boshqarishga yo'naltirilgan.

Har qanday tarbiyaviy, shu jumladan tarbiyaviy - profilaktik tizim ham, o'z rivojida uch asosiy bosqichni bosib o'tadi. Birinchi bosqich - tizimning yaratilishi. Bu bosqichda maqsadlar shakllanadi, tarbiyaviy jarayonni tashkil qilishdagi asosiy mo'ljallar, jamoa qadriyatlari loyihalashtiriladi. Bu ishning boshlanishida o'qituvchilar, sinf rahbarlari turli: kasbiy, yosh, ma'naviy rivojlanish darajasida bo'ladilar. Bu bosqichda pedagogik jamoada ixtifoiflar kuchayadi, yetakchilar, guruh faollari yaqqol aniqlanadi, ularning orasida keskinlik, gohida hatto ziddiyatlar paydo bo'ladi. O'tmishni qayta baholash, pedagogik pozitsiyalarni qayta ko'rib chiqish kabi og'riqli jarayonlar kechadi.

Birinchi bosqichda ko'pincha g'oyalar va ularning amalda tadbiiq etilishi orasida farq aniqlanib qoladi. Ammo bu farqlar har doim ham modelni qurishdagi xato-kamchiliklardan iborat bo'lmaydi. faqat kichik tizim hali kuchga kirmagan, uning qismlari alohida ishlayotgan, hali pedagogik harakatlarda birdamlikka erishilmagan bo'ladi.kichik tizimning dastlabki shakllanish davri vaqtda cho'zilib ketmasligi kerak. Bu bosqichda maktab hayotining takomillashishida ishtirokchilarining kutuvlarini tezroq oqlash uchun, tizim shakllanishi suratlari yuqori bo'lishi kerak.

Ikkinchi bosqich kichik tizim tuzilmasi va faoliyati mazmunini ishlatib ko'rish bilan bog'liq. Bu bosqichda faoliyat tizimini tashkil ettuvchilar, kichik tizim faoliyatining ustivor yo'nalishtari batamom tasdiqlanadi. Eng samarali ommaviy tarbiyaviy ta'sir etish shakl va usullari ishlatib ko'riladi, maktabda ularni tashkil etishning oldingi vaqtdan qolgan eskilari takomillashadi.

Bu bosqich maktab va o'quvchilar jamoasining shiddati rivojlanishi, yoshlararo muloqotlarning rivojlanishi bilan ta'riflanadi. Bu vaqtda sinf jamoalarida ba'zi bir bo'shashlar sodir

bo'lishi mumkin, chunki bolalar uchun sinf doirasi torilik qilib qoladi. Bu davrda kichik tizimning tashqi muhit, ayniqsa atrofdagi yoshlar bilan o'zaro ta'siri juda murakkab kechadi. Maktab ichki ishlariga bo'lgan bolalar qiziqishlarining keskin oshishi, ko'chadagi, hovlidagi kompaniyalarning zaiflashishiga, gohida esa buzilishiga olib keladi. Ular bilan maktabning orasida o'quvchining shaxsiga ta'sir qo'rsatish uchun kurash boshlanadi.

Bularning barchasi kichik tizimni boshqarishda tashkiliy-pedagogik aspektlarning keskin o'rtishiga olib keladi. Ijtimoiy (sotsiologik) xizmatga ehtiyoj yuzaga keladi.

Uchinchi bosqich – bu yakunlovchi bosqich. Kichik tizim batamom shakllanib bo'ladi: har bir komponent o'z o'rnini egallaydi, tizim aloqalari mustahkamlanadi, maktabning hayoti o'z iziga tushadi, tarbiyaviy tizim belgilangan tartibda faoliyat ko'rsatib boshlaydi. Integratsiya jarayonlari kuchga to'lib, tarbiya bilan organik bog'lagan holda, o'quv-bilish faoliyatiga singib kiradi. Dars chegarasi torayib, jamoa bo'lib bilishning yanada hajimli va egiluvchan shakllarini izlash boshlanadi.

Maktab tarbiyaviy jamoasi yangi sifat ko'rsatkichiga o'tadi: endilikda u yanada ko'proq yagona, umumiy, chuqur anglangan maqsad, umumiy faoliyat asosida birlashgan bolalarning va kattalarning yaxlit hamjamiyati sifatida oldinga chiqadi. Ko'pchilik o'quvchilarda va pedagoglarda maktab hissi shakllanadi, jamoa va yakka o'z-o'zini anglash shakllanishi jarayonlari shiddatli rivojlanadi. Umuman, o'quvchilar jamoasining shaxsga e'tibori sezilarli kuchayadi. Pedagoglar tomonidan shaxsiy yondashuv amalga oshiriladi, munosabatlar pedagogikasi hukmron bo'ladi. SHU bilan birga, shakllangan kichik tizimni pedagogik boshqarishda psixologik bilimlarning roli oshadi. Maxsus psixologik xizmatga ehtiyoj paydo bo'ladi.

Kichik tizimda o'zining qayta ishlab chiqarish mexanizmi shakllanadi. U o'zining an'alarini to'playdi, va "meros" sifatida uzatadi, barcha samarali tizimlarga xos bo'lgan xususiyat – ijtimoiy vorislik yuzaga keladi.

Pedagogik jamoalar ham yangi sifat holatiga o'tadi. Pedagoglarda haqoniylikka, chuqur o'z-o'zini tahlil qilish va pedagogik ijodkorlikka asoslangan, yangi pedagogik tafakkur

rivojlanadi. O'qituvchilar muhitida ilm-fanga nisbatan qiziqish paydo bo'ladi, olim-pedagoglar bilan aloqalar o'rnatiladi, bu esa o'z navbatida yangi tadqiqotchi-o'qituvchi turining shakllanishiga sabab bo'ladi. Maktabning pedagoglar bilan birgalikda yangi jamoani – tarbiyachilar jamoasini tashkil qiladigan ko'pgina tashqi hamfaktarlari, ko'ngilli yordamchilari paydo bo'ladi.

Bu davrda, tuman davlat va jamoatchilik tashkilotlari vakillarining voyaga yetmaganlarning huquqbuzarliklarini ijtimoiy-pedagogik profilaktika qilishga qaratilgan faoliyatini, umumiy ko'rinishda kichik tarbiyaviy-profilaktika tizimining ma'lum vazifalarini amalga oshirayotgan element (bo'g'in)larning yig'indisi sifatida ko'rib chiqish mumkin.

Amaliy faoliyatning tahlili ko'rsatib turibdi-ki, shahar rayonida voyaga yetmaganlar bilan olib borilayotgan tarbiyaviy-profilaktik jarayonga, o'zining xarakteri, boshqarmaviy bo'yinishi va asosiy xizmat vazifalari xususiyatlariga binoan har xil bo'lgan, ijtimoiy-pedagogik profilaktika sub'yektlari sifatida faoliyat ko'rsatayotgan 40dan ziyod davlat organlari, muassasalari, korxonalari, jamoatchilik tashkilotlari bevosita yoki bilvosita jalb etilgan.

Yuklatilgan va yechilayotgan vazifalarning xarakteriga qarab, ular sub'yekt sifatida uch guruhga bo'linishi mumkin:

1. Vazifasi voyaga yetmagan huquqbuzarlar tomonidan jinoyatchilik sodir etilishining sabablarini va shart-sharoitlari aniqlanish va bartaraf etishga, ular bilan bevosita shaxsiy-profilaktik va kompleks umumiprofilaktik tadbirlarni o'tkazishga ixtisoslashgan. Tumanda 10dan ziyod ijtimoiy – profilaktika sub'yektlari mavjud: voyaga yetmaganlar ishi bo'yicha inspeksiya, tezkor otryadlar, homiyar, jamoatchi tarbiyachilar va h.k.

2. Voyaga yetmaganlarning barcha kontingentini, shu jumladan ularning huquqbuzarliklar sodir etayotgan o'spirinlarni o'z ichiga olgan kam sonli qismini, yanada kengroq faoliyat (xo'jalik, tarbiyaviy, ijtimoiy) doirasida profilaktik ish olib boruvchi. Tumanda profilaktikaning 20dan ziyod bunday sub'yektlari (maktabgacha va maktab muassasalari, kasb-hunar texnika bilim yurtlari, bolalar o'quv-profilaktika muassasalari, vasiylik va homiylik organlari, ustozlar va h.k.) mavjud.

3. Xizmat vazifasi yuzasidan tumaning butun aholisi, shu jumladan voyaga yetmaganlar orasidagi ham barcha ijtimoiy va yosh qatlamlari orasida, ijtimoiy-profilaktika ishlarini olib borish maqsadida jinoatchilik va boshqa huquqbuzarliklar bilan kurash olib borishga ixtisoslashgan. Tumanda 10dan ziyod bunday sub'yektlar (prokuratura, militsiya, sud, tartibni saqlash jamoatchilik punktlari va h.k.) mavjud.

Bundan tashqari tuman bosqichidagi iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy vazifalarning butun majmuasining yechimi uchun ma'sul bo'lgan 40dan ziyod turli xil tuman muassasa va tashkilotlari o'zlarining vakolatlari doirasida voyaga yetmaganlarning huquq va manfaatlarini muhofaza qiladi: ularga zarur ijtimoiy yordam ko'rsatish, g'oyaviy-siyosiy, mehnat va ma'naviy tarbiyani amalga oshirish, ularning orasida huquqbuzarliklarning oldini olish (tuman hokimiyatlarining sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot, madaniyat, jismoniy tarbiya va sport bo'yicha komissiyalari, hokimiyat qoshidagi xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, madaniyat va h.k. bo'yicha jiroya apparati bo'limlari).

Tumanda aholining tarbiyasi va huquqbuzarliklarning sodir etilishi oldini olish bilan bog'liq bo'lgan vazifalarning kompleks yechimida ishtirok etayotgan tashkilotlar, muassasalar, jamoatchilik tuzilmalarining bunday ahamiyatli miqdorida, faqat 13 muassasadagina asosiy vazifasi voyaga yetmaganlar orasida tarbiyaviy-profilaktik ishlarni tashkil etishdan iborat bo'lgan (profilaktika sub'yektlarining umumiy sonining taxminan 17% tashkil qiladi) maxsus lavozim shtatlari nazarda tutilgan (bu esa profilaktika sub'yektlarining umumiy sonining taxminan 17% tashkil etadi). Tuman hududida yashayotgan, ta'lim olayotgan, ishlayotgan yoki dam olayotgan 100 voyaga yetmagan yoshga to'g'ri keladigan shtati xodimlarning hisob-kitobi voyaga yetmagan yoshlar bilan tarbiyaviy-profilaktik ishlarni olib borishda mavjud imkoniyatlar haqida yanada aniqroq tasavvurni beradi. Yuqorida tilga olingan ijtimoiy-profilaktika sub'yektlari guruhlari bo'yicha shtatdagi xodim zimmasiga to'g'ri keladigan yuklama ko'effitsiyentini aniqlashni voyaga yetmaganlar kontingentining (o'quvchilar, KHTBYU talabalari, ishlovchi va h.k.) yosh va boshqa xarakteristikalari asosida amalga oshirish maqsadga muvofiq. Bu

tumanda va boshqa tumanlarning orasida ham profilaktika sub'yektlarining yuklamasini taqqoslash imkonini beradi.

U yoki bu tarbiyaviy-profilaktika uchashtalarining shtat bilan ta'minlanganligini yanada aniqroq bilish uchun shunga o'xshash hisob-kitoblarni o'quvchilarga, KHTBYU talabalariga, ishlovchilarga va h.k. nisbatan o'tkazish ham maqsadga muvofiqdir.

Shu bilan birga, profilaktika sub'yektlarining aksariyat ko'pchiligi hozirgi vaqtda tuman bosqichida o'z vazifalarini asosan ko'p sonli shtatsiz faollar, va belgilangan sonli shtatdagi xodimlar orqali amalga oshirmoqda.

Voyaga yetmaganlar bilan olib borilayotgan profilaktika ishlari ishtirokchilarining umumiy sonining yuqori ko'rsatkichlari, profilaktika vazifasidan farq qiladigan sub'yektlarning shtati xodimlar kabi, ushbu faoliyatda ishtirok etayotgan jamoatchi faollar bilan ham yetarli darajada ta'minlanganligi haqida tasavvur o'yg'otadi xolos. Shu bilan birga, tizim samaradorligining amalda pastligi, ijtimoiy-profilaktika ishlarini o'tkazish uchun ko'pchilik muassasalarning va tashkilotlarning, hamda jamoat tashkilotlarining vakillari bo'lgan boshqa shaxslarning real imkoniyatlari jiddiy cheklanganligidan guvohlik beradi.

Ushbu xulosa tuman miqyosida voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarini profilaktika qilish tizimini uning ichki yaxlitligi, uyushqoqligi, muvofiqdirlashtirilganligi va uni tashkil etuvchi alohida sub'yektlarning o'zaro ta'siri nuqtai nazaridan, alohida bo'g'inlarning o'zaro aloqa darajasini quyidagi: profilaktika vazifalarining ro'yxati va mazmunining me'yoriy tartibga solinganligi, ularning tarbiyaviy vazifalar bilan o'zaro aloqasi; axborot (to'liqligi, ishonchligi, va hisobga olish-statistik ishlarning kelishilganligi, hisobga olingan ma'lumotlarning tahlil qilish usullari, rejalashtirish usullari, ma'lumotlar almashish va taqdim etish tartibi); moddiy-resurs; uslubiy (umumprofilaktik, ixtisoslashtirilgan va individual profilaktik ishlarni olib borish metodikasi bilan ta'minlanganlik) yo'nalishlar bo'yicha batafsilroq tahlil qilishga va baholashga majbur qiladi.

Tadqiqotlar, profilaktikaning ayrim sub'yektlari o'zlariga yuklatilgan vazifalarning miqdori, amalda bajarilayotgan ishlarning hajmi, kadrlar va faoliyatlarining boshqa ta'minlanganligi jihatdan

bir-biridan sezilarli darajada farq qilishini ko'rsatmoqda. Bu ayniqsa voyaga yetmaganlar ish bo'yicha inspeksiya kabi ixtisoslashgan profilaktika sub'yektlarini taqqoslaganda yaqqol namoyon bo'ladi.

O'spirinlarning yashaydigan joylarida yoki tuman madaniy-oqartuv muassasalarida profilaktik tadbirlarni amalga oshirayotgan maktab yoki kasb-hunar texnika bilim yurtining shtatda turgan bitta xodimi bajarayotgan tarbiyaviy-profilaktik ishlarining hajmida va maqsadga yo'naltirilganligida bo'lgan farq ham undan kam emas. Har bir muayyan profilaktika sub'yektining xizmat vazifalarining sinchiklab tahlil qilinishi ularning voyaga yetmaganlarning orasida huquqbuzarliklarni oldini olish ishiga amalda qo'shgan hissasi orasidagi farqni ko'rishga va baholashga, ularning umumiy doirasi, tizim tomonidan yechilayotgan xizmat doirasiga kiruvchi vazifalarning hajmi va xarakteri haqida tasavvurga ega bo'lish va ushbu asosda uning tuzilmasida profilaktikaning alohida sub'yektleri orasida mumkin bo'lgan o'zaro aloqalarni belgilab olishga imkon beradi.

Tuman profilaktika tizimi sub'yektleri bajarayotgan vazifalarning xarakteriga qarab guruhlashtirish kattalashtirilgan holda quyidagicha tuzilishi mumkin:

1. Kompleks xarakterga ega profilaktika chora-tadbirlarini rejalashtirishni, umuman profilaktik tizim va uning alohida tashkiliy bo'g'inlarining moddiy-resurs va kadrlar ta'minoti vazifalarini o'z ichiga olgan umumiy-boshqaruv masalalari yechimini amalga oshirayotgan (tuman huquqbuzarliklarni profilaktika qilish kengashi, voyaga yetmaganlar ishi bo'yicha inspeksiya, prokuratura va h.k.) sub'yektlar.

Ushbu faoliyat doirasida profilaktika sub'yektlarining asosiy hatti-harakatlari voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklariga sabab bo'layotgan salbiy ijtimoiy hodisalar bilan samarali kurashish uchun zarur tashkiliy shart-sharoitlarni yaratishga, va birinchi navbatda amaldagi bolalarni va o'spirinlarni tarbiyalash tizimidagi muammolarni bartaraf etishga qaratilgan.

Ular tomonidan ishlab chiqilayotgan kompleks profilaktika rejalari quyidagi chora-tadbirlarni nazarda tutadi:

- asosan notinch oilalarda yashaydigan bolalar va o'spirinlarga, va shuningdek turli sabablarga binoan ota-onalar o'z

farzandlarining tarbiyasi bilan shug'ullana olmaydigan oilalarni farzandlariga mo'ljallangan o'quv-tarbiyaviy muassasalar (maktab-internat, bolalar uylari, kuni uzaytirilgan guruh) tizimini rivojlantirish va takomilllashtirish bo'yicha;

- maktablarni, kasb-hunar texnika bilim yurtlarini voyaga yetmaganlar bilan maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar markaziga aylantirish bo'yicha; bolalar va o'spirinlarning bo'sh vaqtlarini yashash joylarida tashkil etish, hisobda turgan "tarbiyasi qiyin" o'spirinlar va voyaga yetmagan yoshlarni hordiq chiqarishning turli xil tashkiliy shakllari bilan gamrab olish bo'yicha; mikrorayonlarda sport maydonchalari va yoshlar klublari, sport-mehnat va harbiy-sport lagerlarining qurilishi va me'yorda faoliyat ko'rsatishini ta'minlash bo'yicha; bolalar va o'spirinlar bilan ish olib borish uchun jamoatchilik faollari safidan trenerlarni, to'garaklar va seksiyalarning rahbarlarini jalb etish bo'yicha;

- jamoatchilik joylarda voyaga yetmaganlarning tartib-intizomi ortidan nazoratni, ularga spirтли ichimliklar sotilishi taqiqlanishiga rioya qilishni ta'minlash bo'yicha.

2. Profilaktika chora-tadbirlari qo'llash zarur bo'lgan voyaga yetmaganlar, ularning atrofidagi mikromuhit, bolalar va o'spirinlarning tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan shaxslar haqida zarur ma'lumotlarni to'plash bilan shug'ullanayotgan profilaktika sub'yektleri (sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, xalq va kasb-hunar texnika ta'limi organlari, FHDYO organlari, armiyaga yoshlar chaqirig'ini amalga oshiruvchi harbiy qumitalar (voyenkomatlar), korxonalar, kasaba uyushmalari va h.k.).

3. Voyaga yetmagan huquqbuzartlar, ularning ota-onalari hamda bolalar va o'spirinlar tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi boshqa shaxslar bilan individual-profilaktika ishlarni amalga oshiruvchi profilaktika sub'yektleri (voyaga yetmaganlarning ishi bo'yicha inspeksiya, jamoatchi tarbiyachilar, maktablar va o'quv yurtlari, tartibni saqlash jamoatchilik punktlari, otaliq mehnat jamoalari, mahalla komitetlari, tezkor otryadlar va h.k.). Profilaktika faoliyatining ushbu turi o'z ichiga quyidagilarni oladi: tarbiya-mehnat koloniyalari, maxsus o'quv-tarbiyaviy muassasalardan qaytib kelgan, va shuningdek, ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan jazo chorasiga mahkum etilgan, yoki hukmning ijro

etilishi kechiktirilgan o'spirinlarni tuzatish va qayta tarbiyalash ishlarning turli shakllarini; huquqbuzarliklar sodir etayotgan voyaga yetmaganlarga va ularning hulqiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan kattalarga nisbatan ta'sir choralarini qo'llash bo'yicha voyaga yetmaganlar ishi bo'yicha komissiyalari, o'rtoqlik sudlari chiqargan qarorlarining o'z vaqtidagi, to'liqligi va qonuniyligi ustidan nazoratni amalga oshirish; qo'llanilayotgan turli xil individual-profilaktik ishlarni shakllarining o'z vaqtidagi va sifati nazoratini amalga oshirish.

Ijtimoiy-profilaktika tizimini tashkil etuvchi sub'yektlarning hatti-harakatlarini muvofiqlashtirish talab darajasida yo'lga qo'yilganda, barcha aytib o'tilgan vazifalar yo'nalishtari bo'yicha ular olib borayotgan faoliyat samaradorligi sezilarli ravishda oshib boradi. Maqsadga yo'nalganlik, harakatlarning birligi, kuchlar va vositalarning to'g'ri taqsimlanishi tashkiliy tomondan tuman darajasidagi muayyan rahbar organ tomonidan amalga oshirilishi zarur. Ushbu organ tarbiyaviy-profilaktika tizimining barcha asosiy bo'g'inlarini o'zida namoyon etishi, ularning boshqaruvchi tarqoqligini bartaraf etilishini ta'minlashga qodir, voyaga yetmaganlar bilan olib borilayotgan tarbiyaviy-profilaktik ishlarning barcha ishtirokchilari uchun majburiy bo'lgan qarorlarni qabul qilish vakolatiga ega bo'lishi, ularning aniq va o'z vaqtida ijro etilishini ta'minlashi zarur.

Ajribadan ma'lum-ki tarbiyaviy-profilaktika tizimining rahbar organi tuzilmasining eng yaxshi varianti, bu zarur ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish, qayta ishlash, ishni rejalashtirish bo'yicha turli xil xujjatlarni tayyorlashni va h.k. ta'minlab beradigan belgilangan miqdorda shtatti xodimlarni, rahbarlikning hamda boshqa, voyaga yetmaganlar orasida tarbiyaviy-profilaktik ishlarni amalga oshiruvchi tuman muassasalari va tashkilotlari, jamoatchilik tuzilmalarining obro'li ma'sul vakillarini o'z ichiga olgan tuzilma ekan.

Voyaga yetmaganlarning huquqbuzarliklarini, ularning hayoti va faoliyatining asosiy sohalariga doir (ularning ishi, o'qishi va yashash joyiga) turli ijtimoiy-pedagogik profilaktik tizimi sub'yektlari hatti-harakatlarini birlashtirish uchun bunday organlar zarur. Tumanda tarbiyaviy - profilaktika ishlarga rahbarlik qilish

uchun tuzilgan, tayyorlangan va obro'ga ega organ joriy va istiqbolli rejalashtirishni, eng muakkab va muhim masalalarning hal etilishini, tarbiyaviy - profilaktik ishlarning eng ma'suliyatli uchastkalarida zarur moddiy-resurs ta'minotni, eng ko'p sonli va yetarli darajada ajralib turgan voyaga yetmagan o'quvchilar kontingentlariga, ishlayotgan o'spirinlarga va shuningdek tumanning hududiy mikroayonlarga bo'linishiga nisbatan ham qo'llaniladigan profilaktik ishlarning barcha yo'nalishtari bo'yicha ixtisoslashtirilgan kichik tizimlarni alohida ajratish va yaratish orqali butun tuman miqyosidagi davlat organlari va jamoatchilik tashkilotlari harakatlarining zarur birligini ta'minlaydi.

Aynan, tumanda voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarini ijtimoiy-pedagogik profilaktika qilish tizimini boshqarishga qodir yagona organ, tumanning turli tashkilotlarini, muassasa va jamoatchiligini jalb etib, vaqtinchalik (bir martalik vazifalarni yechish uchun) kabi doimiy (profilaktika ishlarning ixtisoslashtirilgan yo'nalishtari ta'minlash uchun) tashkiliy-shakllangan tuzilmalar zarurligini eng tezkor va malakali hal etishi mumkin.

Nazarimizda, tuman (shahar) bo'g'imidagi barcha voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklari bilan kurash va profilaktika sub'yektlari faoliyatini tashkil etayotgan va yo'naltirayotgan tuman (shahar) hokimligi profilaktika ishlarga rahbarlik qilishni amalga oshirishi lozim. Voyaga yetmaganlarning huquqbuzarliklarini ijtimoiy-pedagogik profilaktika qilish kichik tizimlari faoliyatini yanada intensivlashtirish uchun: a) voyaga yetmaganlarning huquqbuzarliklarini profilaktika qilish bo'yicha hokimiyat faoliyati asosiy yo'nalishtari belgilaydigan; b) voyaga yetmaganlarning jinoyatchiligini oldini olish bo'yicha kompleks rejalashtirishning dasturini yaratadigan; v) mahalla komitetlari, yoshlar tashkilotlari, voyaga yetmaganlar ishi bo'yicha inspeksiya faoliyatining samaradorligini oshirish bo'yicha asosiy yo'nalishtarni belgilaydigan; g) tajribalar asosida voyaga yetmaganlarning huquqbuzarliklarini ijtimoiy-pedagogik profilaktika qilish masalalari bo'yicha maktablar uchun metodik tavsiyalarni ishlab chiqadigan; d) voyaga yetmaganlarning huquqbuzarliklarini ijtimoiy-pedagogik profilaktika qilish bo'yicha sog'liqni saqlash va

madaniyat muassasalarining dasturlarini ishlab chiqishga ko'maklashadigan ilmiy-metodik kengashlarning tuzilishi masadga muvofiq ko'rinadi.

Umuman, voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarining profilaktikasi amaldagi tizim sub'yektlarining ma'lum yosh, ijtimoiy mavqe, ta'lim va boshqa tavsiflarga ega voyaga yetmaganlarning kontingenti bilan amalga oshirayotgan ishlaridan tashkil topadi. Bu kontingentlarning o'ziga xos xususiyatlari tegishli tuman profilaktik ishlar markazi tomonidan voyaga yetmaganlarning huquqbuzarliklarini profilaktika qilish bo'yicha tashkil etayotgan faoliyati mazmunini belgilab beradi.

Bundan tashqari, yashash joylarida jamoa bo'lib hordiq chiqarish va boshqa turli tadbirlarni o'tkazish asosida voyaga yetmaganlarning har xil kontingentini birlashtiruvchi boshqa tuzilmalar doirasida ham o'spirinlar bilan ishlar olib borilmoqda.

Davlat va jamoat tashkilotlarining huquqbuzarliklarni oldini olishga qaratilgan quyidagi faoliyatlarini hozirgi vaqtda voyaga yetmaganlar bilan olib borilayotgan profilaktik ishlarining asosiy yo'nalishlari sifatida belgilash mumkin:

- umumiy ta'lim maktablari o'quvchilari orasida (tuman voyaga yetmagan aholisining eng katta ommaviy guruh);
- kasb-hunar texnika bilim yurtlari talabalari orasida (voyaga yetmaganlarning doimiy o'sib boruvchi, alohida diqqat-e'tibor, kuchaytirilgan tarbiyaviy-profilaktik ta'sir chora-tadbirlarni talab etuvchi kontingent);
- ishlaydigan o'spirinlar orasida (o'z tengdoshlariga nisbatan yanada ko'proq moddiy, maishiy mustaqil, oila kamroq nazorat qiladigan kontingent);
- bolalar va o'spirinlarning yashash joylarida (tarbiyachilar eng kam nazorat qiladigan sohada);
- salbiy xarakteri, tartib-intizomi, sodir etgan hatti-harakatlari, huquqbuzarliklariga ko'ra tarbiyalash va tuzatish yuzasidan alohida intensiv va yanada samararoq chora-tadbirlar talab etiladigan ko'p sonli bo'lmagan kontingent orasida.
- O'quvchilar orasida huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha ishlar pedagoglar tomonidan profilaktika tizimining ixtisoslashtirilgan bo'g'inlari xodimlari-voyaga yetmaganlar ishi

bo'yicha inspeksiya xodimlari, uchastka inspektorlari, sud va prokuratura xodimlari, va shuningdek maktab o'quvchilarining yashash joylarida dam olish vaqtlarini tashkil etuvchi (pedagog-tashkilotchilar), voyaga yetmaganlarga vasiylik va homiylik qilish masalalari bilan shug'ullanuvchi (TXTB inspektorlari) maxsus profilaktika tizimining boshqa bo'g'inlarining ixtisoslashtirilgan xodimlari bilan o'zaro hamkorlikda amalga oshiradilar.

Mansabdor shaxslarning va jamoatchi faollarning xizmat vazifalarining doirasi juda keng: individual tarbiyaviy-profilaktika chora-tadbirlarini qo'llash lozim bo'lgan bolalarni va o'spirinlarni aniqlash, oilada (turmush, dam olish muhitida) voyaga yetmaganlarga aniq salbiy ta'sir manbalarini aniqlash; individual (subbatlar, o'spirinlarning uylariga tashrif etish, ota-onalar bilan maslahat ishlarini olib borish, o'spirinlarga maktab-internatlarga, maxsus o'quv-tarbiya muassasalariga va h.k. yo'llanma berish.) kabi umumiy xarakterga (huquq asoslarni o'qitish, man'aviy-huquqiy mavzilar bo'yicha leksiyaalar tashkil qilish va o'tkazish, o'quvchilar bilan ishlash uchun kuni uzaytirilgan guruhlar, to'garaklar va seksiyaalar tashkil etish va b.) ega profilaktik chora-tadbirlarni rejalashtirish, tashkil etish va o'tkazish.

Maktablarning pedagogik jamoalarining, boshqa umumta'lim maktablarida voyaga yetmagan o'quvchilar bilan olib borilayotgan tarbiyaviy ishlar ishtirokchilarining bu katta profilaktika imkoniyatlariga baho bergan holda, tadqiqotchilar mazkur faoliyat yo'nalishi uchun xos bo'lgan bir qator jiddiy qiyinchiliklarni ham ko'rsatib o'tishdi.

Avvalo maktab pedagoglarining kasbiy tayyorgarligi, hulqida turli og'ishlarga yo'l qo'yayotgan, huquqbuzarliklar sodir etishayotgan o'spirinlar bilan ishlash uchun; notinch oilalar bilan va boshqa, o'spirinlar tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan shaxslar bilan ishlash uchun hali ham yetarli emas.

Maktablar voyaga yetmagan yoshlarning huquqbuzarliklarini ijtimoiy-pedagogik profilaktika qilish kichik tizimining muhim bo'g'ini sifatida maktabgacha tarbiya muassasalaridan, sog'liqni saqlash va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlaridan bolalar va o'spirinlarning kontingenti, ularning mikromuhiti haqidagi ma'lumotlarni to'liq bo'lmagan hajmda va katta kechikish bilan

oladilar. Maktab pedagogik jamoalari o'quvchilarni mehnat tarbiyasi, o'spirinlarning bo'sh vaqtini o'tkazish bo'yicha o'zlari ega bo'lgan imkoniyatlardan kam, ko'pincha qoniqarsiz foydalanadilar.

Kasb-hunar texnika bilim yurtlari talabalari bilan olib borilayotgan tarbiyaviy-profilaktik ishlar shtat bilan, uslubiy va boshqa ta'minotlar bo'yicha ko'p tomondan umumta'lim o'quvchilari bilan olib borilayotgan ishlarga o'xshash.

Profilaktika sub'yektlarining ogohlantiruvchi faoliyatining ushbu yo'nalishining o'ziga xosligi o'quvchilarining umumta'lim maktablariга nisbatan ancha murakkab kontingenti bilan belgilanadi. Kasb-hunar texnika bilim yurtlarida tahsil olayotgan voyaga yetmaganlarning orasida, voyaga yetmaganlar ishi bo'yicha inspeksiya hisobda turgan, notinch oilalarda tarbiya topayotgan o'spirinlar foizi katta miqdorni tashkil qiladi.

Kasb-hunar texnika bilim yurti jamoalari tomonidan voyaga yetmaganlar bilan olib borilayotgan profilaktika ishlaridagi asosiy murakkabliklar hozirgi vaqtda, o'quvchilarning tarbiyasi bo'yicha muhim vazifalarni bajarayotgan ishlab chiqarish ustalarining bo'sh kasbiy va ayniqsa pedagogik tayyorgarligi bilan bog'liq. O'zlarining ishchanlik va man'aviy sifatari bo'yicha ba'zi ustalar o'spirinlar bilan ishlashga qodir emaslar. KHTBYUda ishlayotgan fan o'qituvchilarining asosiy ma'suliyatlarini belgilaydigan lavozim yo'riqnomalari ularga profilaktik vazifalarini bajarishni yuklamaydi. Natijada, voyaga yetmaganlar orasida tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish uchun ko'prog kasbiy tayyogorilikka ega shaxslar KHTBYU talabalari huquqbuzarlik sodir etishlarining oldini olishda ishtirok etmaydilar.

Voyaga yetmaganlar bilan ularning yashash joylarida tarbiyaviy - profilaktika ishlarini tashkil etishda, ularga rahbarlik qilishda va bevosida amalga oshirishda 40 yaqin turli xil davlat va jamoatchilik tashkilotlari, mansabdor shaxslar va faollar ishtirok etadi. Ammo, tuman bo'g'ini miqyosida ham, muayyan mikrorayonlar uchun ham me'yoriy xujjatlar asosida yagona rahbar - mazkur uchastkadagi tarbiyaviy - profilaktika ishlarining bosh sub'yekti belgilangan emas. Ushbu faoliyatning sub'yektlari vazifalari va xizmat vakolatlari aniq chegaralanmagan (hozirgi vaqtda yashash joyida voyaga yetmaganlar bilan olib boriladigan

ishlarning birgina moddiy-resurs ta'minoti uchun 22 sub'yekt javob beradi), yashash joylarida aholi orasida, shu jumladan voyaga yetmaganlar orasidagi ishlar bo'yicha tadbirlarni, hajmini, aniq vazifalarni belgilaydigan me'yoriy xujjat mavjud emas.

Voyaga yetmaganlar orasida olib boriladigan tarbiyaviy ishlar ichida voyaga yetmaganlar ishi bo'yicha inspeksiya profilaktika hisobida turgan o'spirinlarni tuzatish va qayta tarbiyalash bo'yicha faoliyat alohida o'ringa ega. Ushbu profilaktik tizim sub'yektlarining mazkur voyaga yetmaganlar kontingenti bilan olib borayotgan faoliyati, odatda, qonun bilan tartibga solingan. Bu faoliyat shtatdagi xodimlar tomonidan keng jamoatchilik faollari ishtirokida amalga oshiriladi.

Profilaktika ro'yxatida turgan voyaga yetmaganlar bilan ishlaydigan ixtisoslashtirilgan sub'yektlar faoliyati profilaktika tizimining barcha bo'g'inlari bilan yaqin hamkorlikda amalga oshiriladi.

Tarbiyaviy-profilaktik faoliyatni samaradorligining oshishi voyaga yetmaganlar bilan ishlash bo'yicha xodimlarning kasbiy tayyorgarligining darajasi oshirilishi, ularning mehnat sharoitlari yaxshilanishi, inspeksiya va boshqa xodimlarning ma'sul kotiblariga to'g'ri keladigan yuklarni ahamiyati kamayishi bilan bog'liq. Huquqbuzarliklar sodir etishga moyil o'spirinlar tarbiyasini tuzatishda ijodiy natijalarga erishayotgan eng yaxshi faollarni moddiy va man'aviy rag'batlantirish uchun sharoitlarni yaratish, voyaga yetmagan huquqbuzarlar bilan jamoatchi tarbiyachilar tomonidan olib borayotgan ishlarni takomillashtirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Profilaktikaning alohida bo'g'inlari va muayyan sub'yektlari ish faoliyatiga yo'l dosh bo'layotgan qiyinchiliklardan tashqari, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi va boshqa huquqbuzarliklarini oldini olish vazifalari tuman bosqichida to'liq hajmda bajarish, ma'lum darajada tashkiliy, resurs, moddiy va boshqa xarakterdagi sabablarga ko'ra murakkab ahvolda, ushbu sabablarni bartaraf etish, umuman amaldagi profilaktik tizim samaradorligini oshirishga qodir.

Harakatdagi profilaktika tizimini, uni takomillashtirish imkoniyatlarini baholar ekannimiz, uning ba'zi bir bo'g'inlari vaqt,

shtat, va boshqa moddiy-resurs xarakteriga ega imkoniyatlarning yetishmasligi sababli, yaqol zo'riqish bilan ishlayotganligini ta'kidlamaslik mumkin emas. Bunday sub'yektlar qatoriga, avvalo, voyaga yetmaganlar ishi bo'yicha inspeksiyaning tuman prokuraturasini kiritish zarur. SHu bilan bir vaqtda, bolalar bilan ishlaydigan maxsus xodimlar shtatiga, yetarli moddiy vositalarga ega tuman madaniy-oqartuv muassasalari tarbiyaviy-profilaktika masalalar yechimida bimalol intensivroq ishtirok etishlari mumkin edi.

Keyingi yillarda qonunchilik tomonidan voyaga yetmaganlar uchun ozodlikdan mahrum etish ko'rinishidagi hukmlarni ijro etishni kechiktirish haqida me'yoriylarning qabul qilinishidan keyin, o'spirinlarni tuzatish va qayta tarbiyalash bo'yicha voyaga yetmaganlar ishi bo'yicha inspeksiya, maktablar va korxonalarining vakolatlari hajmi va mazmuni sezilarli ravishda kengaydi. Ammo bu o'zgarishlar bilan bir vaqtning o'zida voyaga yetmaganlar kontingenti bilan ishlashga chaqirilgan barcha tarbiyaviy-profilaktika tizimi bo'g'inlarining imkoniyatlarini ko'paytirilmadi, bu esa ularning profilaktik faoliyatini amalga oshirishda qo'shimcha qiyinchiliklar yaratdi. Profilaktika tizimida bir yoki bir nechta bo'g'inida yuklamalarning o'zgarishi, ular ushbu tizim doirasida bilan o'zaro bog'liq bo'g'inlarning yuklamalariga ham albatta tegishli o'zgartirishlar kiritilishini talab etadi.

Bolalar bilan munosabatda bo'lishi uchun ijtimoiy pedagogika pedagogik nazorat va maxorat kerak bo'ladi bu esa ularga bolalar bilan tarbiyaviy ish olib borish normasini belgilab beradi: agar me'yoriydan oshib ketgan yomon ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ijtimoiy pedagogning tashkilotchilik qobiliyati bolalarni (o'smirlarni) faqat o'ziga o'z xayotini o'zgartira olishi va qiyin vaziyatdan chiqib keta olishini ishonitirishda ko'rinadi. Ijtimoiy pedagogning tashkilotchilik faoliyati bolalar bilan jamiyat o'rtasidagi davlatchilik maxkamalari o'rtasidagi aloqasi, eng asosiy esa bolaga yangi xayot talablariga moslashishga yordam beradi. Ijtimoiy pedagogning ishlash metodlari. Eng keng tarqalgan va tabiiy metodlaridan biri bu kuzatish metodi. Pedagog bolaning muamalasini uning oyladagi, maktabdagi, dars jarayonidagi tengdoshlari bilan uning mexnat faoliyatini, xulq-atvorini

kuzatadi. Suxbat metodi-suxbat o'tkazishga tayorlanish uchun oldin anketa olinadi, oldidan savollar tuziladi komissiya natijalari bilan tanishadi.

Sotsiometrik metod Pedagogikadagi metodlar yana takror aytiladi. Ijtimoiy yo'nalishda o'zlarining to'ldirib olasizlar.

MUSTAKKAMLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. Maktab yoshidagi o'quvchilarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga jalb qilish nima?
2. Maktab yoshidagi bolalarda adaptatsiyani qanday amalga oshiriladi?
3. Maktab o'quvchilarida talimga qiziqishni shakllantirish ishlari qanday tashkil etiladi?

ADABIYOTLAR

1. Shul'gin V.N. «Osnovnie voprosi sotsial'nogo vospitaniya» M-1994
2. Shurkova «Novie tekhnologii vospitatel'nogo protsesssa» M-1994
3. Galaguzova M.A. i dr «Sotsial'naya pedagogika» M-1994
4. M.V. Firsov Antologiya sotsial'noy raboti M-1994
5. Klayberg Yu.A. Sotsial'nie normi otklyucheniya M-1997y.

SPIRITLI ICHIMLIKLAR ISTE'MOL QILUVCHI O'SMIRLAR BILAN OLIB BORILADIGAN IJTIMOIY-PEDAGOGIK FAOLIYAT

Chekmaganimda edi, ishonchim komilki, yana necha yil dard ko'rmay yashagan bo'lardim

S.Botkin.

Talabning sog'lom hayot tarzini chekish, alkogol ichimliklari va gijohvand moddalarni iste'mol qilishdan qat'iyan voz kechishsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ular sog'liqni va ishtahani eng xavfli dushmanidir. Yuqoridagi holatlar ish va ijodiyotga manfiy ta'sir qiladi, natijada turli kasalliklar va ijtimoiy turmush tarzi tushib ketish holatlari kelib chiqadi. Bu esa odam, uning oilasi va butun jamiyat uchun og'ir asoratlarga olib keladi. Chekish. Tamaki chekish organizm uchun ehtiyoj emas. Odam

ichkilik ichishga qanday o'rganib qolsa, chekishga ham xuddi shunday o'rganib qoladi. Chekish jarayonining o'zi maza-matrasini bilish va segaret, papirosni so'rishdan tarkib topadi. Tamaki tutuni chekuvchiga ma'lum bir lazzatlanish hissini beradi. Odam ichkilik ichganida va to'yib ovqat yeganidan keyin odatda chekish istagi kuchliroq bo'ladi. Ba'zan odamlar bir chekib olinsa, oilaviy hayot, ishdagi ko'ngilsizliklar, diqqatvazlik bir qadar nari ketgandek bo'ladi deb o'ylashadi. Tamaki tutunida juda kuchli narkotik modda-nikotiningina emas, balki uglerod (II) oksid vodorod sulfid va boshqa birikmalar ham bor. Biroq tutundagi organizmga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy modda nikotindir. Odam shu moddaga o'rganib qoladi. Odam chekish munosabati bilan qilinadigan ma'lum xatti-harakatlar: sigaretni sezish, alohida bir tahlitda tutun chiqarish, segaretni ushlashga ham o'rganib qoladi. Chekish ta'siri ostida qon tarkibi o'zgarib, undagi eritotstilar soni kamayadi, tomirlar chekmaydigan odamlardagiga qaraganda ancha tezroq qarib qoladi, o'pka raki uchraydi. Tamaki mahsulotlarini iste'mol qilish inson sog'lig'i uchun xavfli hisoblanadi.

Tamaki chekuvchi insonning o'z sog'ligigagina salbiy ta'sir qilib qolmay, balki yon-atrofdagi uni o'rab turgan kishilarga ham zararli hisoblanadi. Chekish, bu zararli va xavfli odat hisoblanadi. Ba'zi bir insonlar chekish aqiliy va xavfli odat hisoblanadi. Ba'zi bir insonlar chekish aqiliy va ish qobiliyatini oshiradi deb hisoblaydi. Ba'zi olib borilgan natijalar shuni ko'rsatdiki, tamaki bosh miya faoliyatiga ta'sir etib, nerv hujayralari faoliyatining susayishiga olib keladi, yana nerv tolalarini qo'zg'atish holatiga keltirish uchun, tamaki iste'mol qilishga to'g'ri keladi. Fil'rli tamaki chekish natijasida ham inson organizmiga 300 dan ortiq zaharli elementlar tamaki tutuni orqali kiradi. Ular orasida xavfli-katron (smola), nikotin kislotalari, karbonat angidrid va boshqalar. Zararli moddalar ichida eng asosiy o'rinni katron (smola) egallaydi. Katron tarkibidagi zaharli moddalar inson organizmida saraton kasalligini chaqiradi. Bundan tashqari surunkali bronxit hamda "kashanda yo'tali"ni keltirib chiqaradi. Nikotin-eng zaharli moddalardan biri hisoblanadi. Nikotin organizmida tez qonga so'rilib, 7 sekund mobaynida hamma organlarga qon orqali yetib boradi. Nikotin-o'ta zaharli modda; insonlar uchun o'lim dozasi-

50mg. Bir dona tamaki chekish natijasida organizmga 1 mg nikotin moddasi kiradi. Har bir inson birinchi bor chekkanda, o'zida noxush holatlarni his etadi, ya'ni bosh aylanishi, bosh og'rig'i, ko'ngil aynishi va umumiy holtsizlik. Bu holatlar sekin-asta yo'qolib boradi va inson surunkali chekuvchiga aylanadi. Bundan tashqari, tamaki chekish har xil organlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunda asosan yurak-qon tizimi va nafas a'zolari zararlanadi. Miokard infarkti kasalligi tamaki iste'mol qilmaydiganlarga nisbatan chekuvchilar orasida ikki marotaba ko'proq uchraydi.

Tamaki chekuvchi insonlar boshqalarga nisbatan 8-15 marta o'pka emfemasi bilan, 3-5 marta aorta-qon tomirlarini kengayishi bilan kasallanadilar. Har bir yetinchi chekuvchida obliteratsiyali endoartrit rivojlanadi. Bu esa o'z navbatida oyoq gangrenasiga olib keladi.

45 yoshdan oshgan erkaklarda uchraydigan kasalliklarning 30% chekishga moyilligi bilan bog'liq. 40-49 yoshdagi chekuvchilarda chekmaydiganlarga nisbatan o'lim 3marta yuqori, 60-64 yoshdagilar orasida esa o'lim 19 marta yuqori. Jismoniy tarbiya bilan shug'ullanuvchilar va sportchilar orasida chekuvchilar bo'lsa, bu ularning organizmiga yanada salbiyroq ta'sir ko'rsatadi.

Chekish ularning yurak-qon tomir tizimi va nafas a'zolari organlari tizimi ko'rsatkichlarini susaytiradi. Sportchilar orasidagi chekuvchilarni tekshirish natijalari bizga shuni ma'lum qiladiki, ularning psixofiziologik holati susayadi. Chekuvchi sportchilarda harakat reaksiyasiyasi tezligi chekmaydigan sportchilarga nisbatan 8-14% kam bo'ladi, aniqlik reaksiyasi 16-21% muskularning aniq harakati 11-15% kam bo'ladi. Bu borada ingliz fiziologi G.Kennedi va shved fiziologi A.Xuga sportchilar orasida tekshiruvlar o'tkazish natijasida buni to'la isbotlab berishgan.

Chekish natijasida kelib chiqadiga kasalliklardan eng xavflisi-bu nafas yo'llarining saraton kasalligidir. Bu xastalik chekuvchilarda tamaki chekmaydiganlarga nisbatan 20 marta ko'p uchraydi. Bundan tashqari chekuvchilarga qizilo'ngach saratoni, oshqozon osti bezining saratoni, siydik pufagi va buyraklar saratoni tez-tez uchrab turadi. Buning oqibatida butun dunyo bo'ylab yiliga millionlab odamlar hayotdan ko'z yummoqda. Keyingi paytlarda

olib borilgan ilmiy-tekshiruv ishlari shuni ko'rsatmoqdaki, kuniga 10 donadan ko'proq tamaki chekuvchi insonlar orasida saraton kasalligi 8 marta ko'p uchraydi ekan. Kuniga 1 pacha tamaki iste'mol qiluvchilarda esa bu ko'rsatkich 20 marta oshib ketgan. Angliya shifokorlar yig'ini shuni hisoblab chiqdiki, 40 dona chekilgan tamaki natijasida insonni kuniga 5,6 minut umri qisqarar ekan. Bu ko'rsatkichni bir necha dona tamaki chekuvchilarga ko'paytirib, ularning umri qanchaga qisqarishini bilib olish qiyin emas. Ya'ni bu tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, chekish bilan biz o'z organizmimizni surunkali ravishda zaharlar ekamiz. Bu esa o'z navbatida sportchilar va talabalar orasida ilmiy hamda jismoniy ish susayishiga olib keladi. Shuning uchun biz hech qachon tamaki iste'mol qilishga harakat qilmasligimiz, o'ramizda chekuvchilar bo'lsa, ularni ham bu yomon o'ta xavfli odatdan xalos etishga yordam bermog'imiz lozim. Shuni unutmashimiz kerakki, chekmaydigan insonlar o'zini yaxshi his etadilar, aqliy hamda jismoniy ish qobiliyati yuqori bo'ladi, chiroyli bo'linadi va uzoq umr kechiradi. Chekishdan voz kechish uchun qo'yidagilarga amal qiling va siz, kuchi iroda va hohishingiz evaziga maqsadingizga erishasiz.

1. Jamoat joylarida, transportlarda va xonadonlarda chekmang.
2. Kuniga bir donadan strageta chekishni kamaytirib boring.
3. Oila a'zolaringiz va do'staringizga chekish asoratlari haqida gapirib

turishni odat qiling.

4. Haftasiga bir kun chekmashlikni odat qiling. Mabodo sizda chekish istagi paydo bo'lganda:

1. Har kuni sharbatlar iching.
2. Yoqtirgan konfetingizni shiming.
3. Yoki yeryong'oq iste'mol qiling.
4. Chekishni eslatuvchi narsalar-sigaret, kuldoni yashiring.
5. Chekuvchilardan uzoqroq yuring.
6. Har kuni badan tarbiya bilan shug'ullanang.
7. Tabiat quynida ko'proq sayr qiling.
8. Ovgat ratsioniga ko'proq ko'kat, sabzavot va sitrus mevalarni qo'shing. Alkogol (spirtli) ichimliklar. Sirtli ichimliklar iste'mol qilish salbiy oqibatlarga olib keladi, ya'ni inson salomatligining

buzilishi, aqliy hamda jismoniy ishqobilyatini susayishi, har xil kasalliklarga chalinishi, inson umrining qisqarishiga sabab bo'ladi.

Alkogol, ya'ni "spirt"(etil va vino spirti) oziq-ovqat mahsulotlarini biyog'itish natijasida olinadi. Biyog'itish yo'li bilan olingan, lekin tozalanmagan spirt tarkibida har xil zaharli moddalar ko'p bo'ladi. Ular oldin tozalanib, (retifikatsiya), keyin sirtli ichimliklar tayyorlanadi. Etil spirt-narkotik moddalar tarkibiga kiradi. Alkogol nerv tomirida implus o'tkazuvchanligini tormozlaydi. Organizmda tushgan alkogol (spirt) 89% oshqozon shilliq qavatorqali qonga so'riladi, qolgan qismi esa ichaklar yordamida so'riladi. Spirt iste'mol qilgandan so'ng oradan 1-1,5 soat o'tib qonda spirtni maksimal dozasini aniqlash mumkin.

Alkogol (spirt) eng avvalo inson organizmning markaziy asab tizimi (MAT)ga o'ta salbiy ta'sir ko'rsatadi. Buning natijasida insonning ilmiy hamda jismoniy ish faoliyati susayadi, ravshanlik yo'qoladi, ko'p xatolarga yo'l qo'yiladi, harakatda aniqlik yo'qoladi.

Haddan tashqari ko'p iste'mol qilingan spirtli ichimliklar natijasida yuqorida aytib o'tilgan holat yaqqolroq namoyon bo'ladi. Bunda reflekslar susayadi, harakat koordinatsiyasi buziladi, gapirish markazi tormozlanadi, muskullar bo'lishashadi, buning natijasida chuqur narkotik uyqu paydo bo'ladi. Bu holat ertangi kunga ham o'z salbiy ta'sirini o'tkazadi: ish qobiliyatining susayishi, bosh aylanishi, nison o'zini yomon his qilishi va hokazo. Sirtli ichimliklar nafaqat MATga ta'sir qilib qolmay, balki organizmni yurak-qon tomir tizimiga, jigarga, oshqozon-ichak tizimiga, jinsiy a'zolariga ham albiy ta'sirini o'tkazadi. Sirtli ichimliklarni surunkali iste'mol qiluvchi insonlar orasida yurak-qon tomir tizimi xastaliklari 22 marta, oshqozon xastaligi 18 marta, organlar xastaliklari 4 marta ko'proq uchraydi.

Eng og'ir xastaliklardan bo'lgan jigar sirtrozi ham ayni spirtli ichimliklar iste'mol qiluvchilar orasida ko'proq uchraydi. Bu xastalik ko'pincha yoshlar orasida o'lim bilan yakun topmoqda.

Alkogol jinsiy a'zolariga ham ta'sirini o'tkazadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, 41% spirtli ichimliklarni iste'mol qiluvchi insonlar orasida jinsiy moyillik keskin susayishi kuzatiladi. Sirtli ichimliklarni iste'mol qiluvchilar orasida o'lim dunyo bo'yicha 3 o'rinni egallaydi, faqat yurak-qon tomir kasalliklari va saratondan

keyin. Spirtli ichimliklar iste'mol qilish oqibatida 80-90% jinoyatlar qilinadi, travmalar (shkastlar) olinadi. Alkogolizm natijasida oilalar buzilib ketadi, insonlar o'z hurmatini yo'qotadi, do'st birodarlaridan ayiriladi, ish joylaridan haydaladi. Sportchilar 20-30% susaytiradi. Chet el olimlari bu tadqiqotlarni tekshirish natijasida shuni aniqlashdiki, harakat reaksiyalari 12-16% aniqlik reaksiyasi 17-21%, muskullar aniqligi 14-19% kamayar ekan (A.P., Laptev, 2001). So'z oxirida shuni ta'kidlab o'tish lozimki, spirtli ichimliklarni surunkali iste'mol qilish talabalar organizmiga zarar ko'rsatish bilan birga ularning aqliy qobiliyatini ham susayishiga olib keladi.

MUSTAHHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. Alkogol zarari haqida nimani bilasiz?
2. Ichkilikbozlikning oqibati nimaga olib keladi?
3. Alkogol iste'mol qilish sabablari qaysilar?

ADABIYOTLAR

1. Ginetichskiy protsessi v populyatsiyax. M., "Nauka" 198q.
2. Guliyamov N.G., Safarova D.D. Valeologiya faniga kirish so'zi. T. "Fan sportga", 2005, №1 str. 41-42
3. Nishonboyev K.N., Xamroyev F.A., Eshonqulov O.E., Tibbiyot
4. Ginetikasi. T., Abu Ali Ibn Sino nashriyoti 2000.
4. Richkov Yu.G. Sistema drevnix izolyatov cheloveka v Severnoy Azii v sveta problem stabilnosti i evolyutsii populyatsiy. Vopr. Antropologii, 197qm bip 44.
6. Tegako L., Kmetinsky E. Antropologiya M., "Novoye znanie", 2004y

GIYOHVANDLIK – DEVIANT XULQ SHAKLI SIFATIDA

Giyohvand moddalarni iste'mol qilish (hattoki bir marta) organizmga o'ta jiddiy zarar yetkazish bilan birga og'ir xastalik, ya'ni giyohvandlikka (narkomaniyaga) olib kelishi mumkin. Giyohvand moddalarni iste'mol qilish oqibatida organizmning surunkali zaharlanishi yuz beradi, buning natijasida tolerantlikni o'zgarishi, o'rganib qolish, mahrum bo'lish sindromi, emosional-psixik o'zgarishlar, jismoniy hamda jinsiy o'zgarishlarga olib keladi. VOZ (xalqaro sog'liqni saqlash tashkiloti) 1991 yil giyohvand moddalar toifasiga quyidagilarni kiritdi:

4. Alkogol-barbitura moddalar tipi: etil spirti, barbituralar, sedativneprobronat, xloralgid va boshqalar.
5. Amfetamin tipidagi moddalar: anfetamin, fenmetrazin.
6. Kannabis tipidagi: mariyuana, gashish.
4. Kokain tipidagi: kokain, koka barglari.
5. Galyutsinogen moddalar: LSD, meskalin.
6. Kata tipidagi moddalar.
7. Opiada tipidagi: morfin, geroin, kofein, metdon.
8. Efir suyuqliklari tipidagi moddalar: toluin, atseton, tetloxlormetan.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan moddalarning hammasi (efir suyuqligidan tashqari) davolash maqsadida ishlatiladi, ammo ularga ko'nikib, o'rganib qolish paydo bo'ladi.

VOZ eksperimentlari shuni aniqladiki, yuqorida ko'rsatib o'tilgan giyohvand moddalarni iste'mol qilishga qarab giyohvand yoki toksikomaniyaga ajratiladi.

Eng ko'p tanilgan giyohvand moddalarga legannarkotiklar kiradi, ularga tabaq bilan alkogol xos. Giyohvand degan tushuncha, asosan biz nolegal bo'lgan narkotik moddalarni iste'mol qiluvchilarni tushuntirishimiz lozim. Rossiya federatsiyasida hozirgi kunda qo'yidagi nolegal (norasmiy) narkotik moddalar tarqalgan.

Opiy (opiy moddalari, morfin, ko'knori);
Gashish (ko'knori preparatlari, ya'ni gashish, konoplya, nasha, mariyuana); Psixostimulyatorlar (efedrin);
Ba'zi tinchlantiruvchi va uxlatuvchi dori preparatlari.

Toksikomaniyani qo'yidagi moddalar keltirib chiqaradi: Uchuvchi ximiyaviy moddalar (gengansion-benzol, toluol, atseton va boshqalar);

Tinchlantiruvchi va uxlatuvchi vositalar (trankvilizatorlar); Ba'zi og'riq qoldiruvchi va yallig'lanishga qarshivositalar.

Ba'zi giyohvand moddalar tibbiyot amaliyotida ishlatiladi, chunki ular og'riq qoldiruvchi xususiyatga ega. Bu moddalarni iste'mol qilinishi faqat shifokor tomonidan begilanadi.

Giyohvand moddalar organizmga tushishi bilan MNS ga ta'sir ko'satadi va eyforiya holatini keltirib chiqaradi. Buning natijasida aniqlik yo'qoladi, o'ylash qobiliyati susayadi, harakat kordinatsiyasi buziladi.

Giyohvand moddalarning eng xavfli oqibatlaridan biri ularga o'rganib qolishdir. Ular o'rganib qolishlik ba'zi bir kasalliklarni davolash mobaynida ham sodir bo'ladi. Ular davolanib bo'lganidan so'ng ham narkotik moddalarga ehtiyoj sezadilar.

Giyohvand moddalarni bir bor qiziqish bilan iste'mol qilinganligi salbiy oqibatlarga olib keladi. Bu esa giyohvand degan nomga ega bo'lishidir. Giyohvand moddalarni mukkasidan iste'mol qilinishi inson organizmini surunkali ravishda zaharlab borish deganidir. Buning natijasida organizmida ruhiy hamda jismoniy toliqish kuzatiladi.

Giyohvandlarning asosiy belgilari qo'yidagilar: o'ta qo'zg'aluvsan, harakat kordinatsiyasining buzilishi, qo'llarning qaltirashi, terlash, holisizlik. Aqliy hamda jismoniy qobiliyatning keskin tushib ketishi.

Giyohvandlar tez orada o'z sog'lig'idan hamda mehnat qobiliyatidan mahrum bo'ladi. Giyohvandlar orasida eng keng tarqalgan kasalliklardan biri OITS dir (SPID). Bu kasallikni ular orasida ko'p tarqalganligining sababi, ularning bitta shprisidan bir-birini venasiga narkotik yuborishidir. OITS-o'ta xavfli kasallik hisoblanadi, uning hozirgi kungacha davosi aniqlanmagan. OITSning oxiri-o'lim fojiasidir. Ming afsuslar bo'lsinki, bu kasallikning, ayniqsa yoshlar orasida tarqalishi hammani tashvishga solmoqda. Keyingi paytda giyohvandlik bilan toksikomaniya rivojlanib bormoqda.

Toksikomanlarning asosiy iste'mol vositalari-bu tinchlantiruvchi moddalar va ba'zi bir toksik ximiyaviy vositalardir. Ularni iste'mol qilish natijasida inson o'zgaradi, eyforiya holatiga tushadilar, oddiy so'z bilan aytganda, kayf qiliadilar.

Ba'zi bir holatlarda organizmning zaharlanishi, undan so'ng o'lim holatlari ham kuzatilmogda. Ko'pgina tranvilizator vositalar (seksensu, elenium, tazepam, triokszazin) psixiatrik xastaliklarni davolash qo'llaniladi. Bu vositalarni qo'llash vaqtida shifokor nazoratida bo'lishi lozim. Hech kim o'z-o'zidan bu dorilarni iste'mol qilmasligi kerak, chunki organizm o'rganib qolib, bemorni giyohvandlikka olib kelishi mumkin. Uzoq vaqt davomida uyqu dorilarini ham iste'mol qilish mumkin emas, chunki ular ham toksikomaniyaga olib keladi. Keyingi paytlarda yoshlar orasida toksikomaniya xastaligi keng tarqalmogda. Ular har xil kimyoviy vositalarni (aseton, benzol, toluol va boshqalar) nafas yo'li orqali hidlab, o'zlarida eyforiya holati, ya'ni kayf holatini chaqirishmogda. Lekin oradan 3-4 oy vaqt o'tishi bilan ularda har xil o'zgarishdan kuzatilmogda: aqliy hamda jismoniy ish faoliyatining susayishi, ruhiy holatning buzilishi, ko'p xlash holati. Nafas yo'llarida har xil surunkali kasalliklar rivojlanadi. Keyingi yillar mobaynida giyohvandlar ko'payib bormogda, shulardan 60%ini o'spirlar yoshlar tashkil etishi, bu albatta achinarli holdir. Giyohvandlar jamiyat uchun ham xavfli hisoblanadi, chunkali o'zlariga yaqin bo'lgan insonlarni shunga jalb etadilar. Giyohvand moddalarni qabul qiluvchilar 4-5 yil umr ko'radilar.

Giyohvand moddalarni hamda toksik holatning asosiy belgilari:

- ong, ruhiyat, kayfiyatning umumiy ahvolini buzilishi;
- harakat funksiyalarining buzilishi;
- teri va shilliq qavatlar rangining o'zgarishi;
- ko'z qorachig'ining o'zgarishi;
- diqqatlikni, o'ylashni, fikr qilishni, xotirani keskin buzilishi.

Har bir talaba shuni chuqur anglashi lozimki, eng kuchsiz giyohvand moddalar iste'mol qilinganda ham, o'ta xavfli kasallik, ya'ni giyohvandlik paydo bo'ladi. Shuning uchun har qanday holatda giyohvandvositalarni iste'mol qilish man etiladi.

Faqat giyohvand moddalardan qat'yan voz kechish natijasida giyohvand degan nomni olmaslikka va uzoq umr kechirishga erishish mumkin.

MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR:

4. Giyoxvandlik zarari nimalar?
5. Giyoxvandlikning oqibati nimaga olib keladi?
6. Narkotik moddalarni iste'mol qilish sabablari?

ADABIYOTLAR:

1. Ginetichskiy protsessi v populyatsiyax. M., "Nauka" 198q.
2. Guliyamov N.G., Safarova D.D. Valeologiya faniga kirish so'zi. T. "Fan sportga", 2005, №1 str. 41-42
3. Nishonboyev K.N., Xamroyev F.A., Eshonqulov O.E., Tibbiyot ginetikasi. T.,

JINOVATCHILIK BOLALARDA G'AYRIQONUNIV HATTI-HARAKATNING NAMOYON BO'LISH SHAKLI SIFATID

Tarbiyasi qiyin bolaning ijtimoiy pedagogik diagnostikasi deganda – bolaning shaxsiy xususiyatlari va unga ta'sir etuvchi har xil faktorlarning bolada ko'rinishini ijtimoiy pedagogik ko'zqarashdan o'rganish nazarda tutiladi. Bolaning tarbiyasi qiyin bo'lishi sabablari har xil bo'lib, ularning asosiy ko'rinishlari bolada ijtimoiy kommunikativ sifatlarning va bolaning yakka xususiyatlarining etarlicha rivojlanmasligi, ijtimoiy moslashuvga qobiliyatining pastligi ijtimoiy rollarni bajarishdagi qiymatchiliklar bo'ladi. Bola tarbiyasidagi qiyinchiliklar bolaning o'quv ishlaridagi, (o'qish) tarbiyasidagi qiyinchiliklar, atab aytganda bola tarbiyasini pedagogik qiyinchiliklarga olib keluvchi jismoniy aqliy va psixik rivojlanish darajasining ta'lim tarbiyasi yo'nalishiga teskari ta'sirlari nazarda tutiladi. Ichit maktab yoshi o'quvchilarida bunday qiyinchiliklar o'qishdagi doimiylik, o'qish, bilish motivatsiyasining to'la rivojlanmasligi, maqsadga yo'nalganlikning past va etarsiz darajada bo'lishida o'qish, bilish ishlariga qobiliyatsizligida

ko'rinadi. Bola tarbiyasining qiyinlashuviga olib keluvchi sabablar va faktorlar juda ko'p. Ular bolalarning psixofiziologik xususiyatlari va ijtimoiy ta'sirlar bilan boshliq deb ikkiga bo'linadi. Bolalarning psixofiziologik xususiyatlari bilan nasosan defektologlar shushullanadi va bu masala maxsus pedagogik o'rganish ob'ekti ga kiradi. Oyladagi bola tarbiyasi borasidagi o'rin oladigan har xil xato kamchiliklar bola yashagan muxitning unga salbiy ta'sirlari bolalar tarbiyasidagi har xil qiyinchiliklar paydo qiladi. Tarbiya qiyinchiligining birinchi kurinishlari judaerta chama bilan yoshlardan boshlanadi. Boshqacha aytganda bu davrda ularning sonlik belgilari to'planib, keyinchalik ular ijtimoiy va psixologik salbiy ta'sirlarning birgalikli ta'sirida ular sifati belgilarga aylanadi.

Psixo –pedagogik tadqiqotlar odamning shakllanishida bolalikning alohida o'rin tutishiga e'tibor berib, bolalik davrda, bola hayotida juda ahamiyatli hodisa qurshagan muxiti o'rganish, boshqacha qilib aytganda bilish jarayonining yaxshi rivojlanadiganligini atab ko'rsatadi. Shuningdek odamgarchilikning asosiy sifatlari bo'lgan insoniy fazilatlarining ko'pchiligi bolalik davrda shakllanadi. Bolaning tarbiyasi qiyin sharoitlari rivojlanishdan chetlashlarning eng ko'p tarqalgan turlari bo'lib, ko'pchilik sharoitlarda ular huquq buzilishlariga olib keladi. Bunday sharoitlarning murakkab sifati uni ertadan aniqlashga kompleksli va izchil turda munosabatni talab qiladi.

2. Kompleksli psixo–pedagogik diagnostika–bu bolaning yoqimli va yoqimsiz tomanlarini ularning sadablarini aniqlashga, shuningdek amaliy vazifalarni echishga bolani xar tamonlama rivojlantirishga va pedagogik jarayonning natijalarini o'rnatishga qaratilgan bolani va xar tomonlama analizlash bo'lib topiladi. Aniqlashning bunday tushunchasi:

1. Pedagog va psixologlarning o'zaro birga ishlashishini anglatadi.
2. Mutaxassisning bola qaydagi, uning mikrosatsiumi va unga tasir qiluvchi pedagogik jarayon haqidagi bilimlarini to'liqitirib boyitadi.
3. Bolaning ijobiy tomanlarga suyanadi.
4. Faqatgina kamchiliklarni ochib qo'ymasdan.

5. Faqat pedagogik jaranning sifatini o'ttirishga emas, bolani har tomonlamma rivojlantirishning sifatini o'ttirishga yordam beradi.

Shuningdek kompleksli diagnostika to'shri tashkil qilingan sharoitda oyladagi tarbiyaning va bolalar boshchasi va maktabdagi o'quv tarbiya jarayonining sifatiga qarab bolaning rivojlanish bilimlilik va tarbiya darajasiga yordam qiladi. Kompleksli turda belgilarini aniqlashning maqsadi bolalarning ijtimoiy iqtisodiy qarovsiz qolish sharoitining belgilari va ko'rinishlarini erradan aniqlash bo'lib topiladi.

Bolalarning ijtimoiy pedagogik qarovsiz qolishining aniqlangan axamiyati belgilari:

1. Mos emas turdan o'ziga baho berish va talablarning darajasiga ko'ra olinadigan «men» obrazining buzulishi;
2. Dustlari tomonidan qabul qilmamasligi (ayrib qo'yishlari) tashlashi, (qatarga qo'shmasligi) ota-onasi tomonidan chetlanishida ko'rinaldigan quyi ijtimoiy status;
3. Ijtimoiy pedagogik ta'sir qilishining rivojlanishdagi burlishiga bo'shliq faoliyatdagi qiyinchiliklar;
4. O'zini jamiyatchilik sharoitlarga muvofiq tutmasligi.
5. Pedagoglar va ota - onalar o'zlarini qo'pol tutishi va avtoritor bo'lishi.

Maktabgacha yoshdag maktab o'quvchilarida:

- A) o'yin qobiliyati kompleksning to'liq riojlanmasligi;
- B) o'zli jarayonida o'rtloqlari bilan munosabat qila olmaslik qiyinchiligi.

V) Syujetlik - roli va yaratuvchanlik o'ynlarga qatnashmasligi.

G) Maktabga o'qishga bo'shang.

D) Oiladagi notinchlik.

Kichik yoshdagi maktab o'quvchilarida:

- A) O'qish motivlarining yetarli emasligi, o'qishga intilishi yo'qligi.

B) ulgurmuvchilik.

V) Asosiy o'quv qobiliyatining shakillanishi;

- G) Emotsional shaxsiy munosabatning rivojlanmasligi o'qituvchilar bilan faoliyat munosabatlarining bosimligi.

D) Maktabda bola notinchiligi. Kompleksli diagnostika mexanizmi ko'p bosqichli, izma-o'z va uzluksiz turda olib boriladi.

Bo'ndan tashqari bolaning sharoitlarini, aniqlash uchun har hil usullar foydalaniladi. Bo'larning ichida R.Kettal'ning yakka savol javoblari 8-10, 10-12 yoshdagi bolalarga atalgan.

D.Vekslarning intellektni o'lchash shkalasi 5-16 yoshdagi bolalarga boshishlangan. Shuningdek M.Lyusherning bolaning sezgirlik sharoitini aniqlaydigan testin P.T.Xomentauskasning rasmlar yordamida oylaning aqvolini aniqlashga boshliq usullarni va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

Pedagoglar tomonidan foydalaniladigan usullarning orasida psixo - pedagogik ekspert ahamiyati ro'l bajaradi. Ekspertlarini o'tkazganda turmish sharoitlari tanlanib olinadi. Ertaklarning, timsollarning syujetlari foydalaniladi. Xayotdan olingan voqealar belgili o'rin tutadi. Uslullarning orasida pedagogning bolalar bilan munosabatining kasbiy yakka xususiyatlari va stiling kompleksli-ekspress diagnostikasi metodini, oyladagi sharoitining, oyladagi tarbiyaning hususiyatlarining va ota - onalarning bolalarga munosabatining kompleksli-ekspress diagnostikasi metodini atab ko'rsatish lozim. Shunga boshliq bu yo'nalishdagi tadqiqotlarda ijtimoiy kommunikativlik komponentli savol - javob berish ahamiyatga ega bo'ladi. Bunday savol - javoblar qo'ydagicha bo'lishi mumkin.

1. Agar suxbat vaxtida kutilmaganda uzoq unsizlik paydo bo'lsa, unda u sharoitdan chiqish uchun mening fikrimga to'shrisi hech narsa kelmaydi.

2. Men boshqalarning o'zimga qaraganda muvaffaqiyatli ekanligini ko'rib o'zimga ranjiyman.

3. Men ko'pchilikning diqqat markazida bo'lishni xoxlayman. Men boshqalar bilan birdan do'stlashib keta olmayman.

4. Menga nima ishlash kerakligini aytganda yengil bo'ladi

5. Men o'zim haqqimda boshqalarning nima o'ylashiga ahamiyat beraman.

6. Yechimlar qabul qilganda men maqul va nomaqul narsalarning hammasini o'ylab ko'raman.

7. Umuman o'ylaganda men sabirliyman va oddiy narsalarga birdan jaxl qilayman. Bunday savol-javoblar shaxs maqsadlarni, o'zini tutishdagi xususiyatlarini ota - onaning pedagoglarning

bolalar bilan o'quv tarbiya ishlarni olib borishdagi ishlarini farqlarini va boshqalarni aniqlashga va shundan kelib chiqib vazifalarini belgilashga imkon beradi.

3. Oilda ota-onalarga bolalar tarbiyasiga yordam ko'rsatish maqsadida ularni o'qitish, dasturlar ishlab chiqiladi.

Ijtimoiy pedagogik yordamga muxtoj oilalarni ijtimoiy pedagogik diagnostika asosida aniqlab, ularga real yordam ko'rsatish yani oilda valeologik salomat turmush tarizini shakllantirish va bolalarga to'g'ri tarbiya berish maqsadga muvofiq topiladi. Sababi oila tarbiyasida asosan oila diagnostikasi ahamiyati hisoblanadi. Har bir oilaning zaruriyatini inobatga olgan holda ularga ijtimoiy pedagogik yordam berishda maxsus amaliy ishlar (maxsus amaliyot) katta ahamiyatga ega bo'ladi. Oilda sog'lom turmush tarizini saqlashga qaratilgan ota-onalarning pedagogik-psixologik tayorgarligiga bo'lgan zarurlikni diagnostika qilish bo'yicha maxsus amaliy ishlar quyidagicha amalga oshiriladi:

- maqsadni belgilash ya'ni oildagi erishilgan yutuqlarni aniqlab ularga suyangan holda ota-onalarning yana qanday imkoniyatlariga ega ekanligini hamda qanday yordamga muxtoj ekanligini belgilash:

- harakatlar algoritmi, ya'ni ota - onalar orasida oila diagnostikasini o'rnatishga tegishli anketalar tarqatish, ularga javoblar olish analiz qilish va yana boshqalar.

- diagnostika asosida pedagogik kontsiliyalar tashkil qilish pedagogik faoliyatini tashkil qilish, pedagogik faoliyatini amalga oshirish rejalarini tuzish ishlari amalga oshiriladi.

Oila diagnostikasini amalga oshirishda oila va undagi munosabatlarning psixologik sharoitini muhitni urganishga tegishli tipik oila turmushi oila tashvishlari analizi oilaning kinetik sharoiti nomli maxsus test ishlarni o'tqazish singari metodlardan foidalanish mumkin. U bolaning o'z oilasi a'zolariga munosabatini aniqlashga, uning oildagi o'rni bilishga, boshqa oila a'zolari bilan o'zaro munosabatlarni aniqlashga yordam beradi.

MUSTAXKAMLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. Voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatchilikni sodir etilish sabablari qaysilar?

220

2. Voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatchilik sodir bo'lsa, qonuniy qanday choralar ko'riladi?

3. Jinoyatchilik va xuquqbuzarlikni oldini olishga qanday choralar ko'riladi?

ADABIYOTLAR.

1. Shul'gin V.N. Osnovnie voprosi sotsial'nogo vospitaniya, M, 1994
2. Shurkova. Novie tekhnologii vospitate'l'nogo protsesa, M, 1994
3. Galaguzova M.A. dr. Sotsial'naya pedagogika, M, 1994
4. Blagotvoritel'nie organizatsii sotsial'noy napravlenosti, M-98

Antologiya sotsial'noy raboti. Sost. M.V. Firsov M, 1994y

IJTIMOIY-PEdagogik TEXNOLOGIYALARNI ISHLAB CHIQUISHNING NAZARIY ASOSLARI

Hozirgi kunda har hil ijtimoiy qatlamlar ijtimoiy pedagog shug'ullanuvchi ijtimoiy tashkilotlarning bosh qismi aniqlanadi: moddiy yordam ko'rsatish (pul, orgali, nafaqa va yengish turmushining yordami) ijtimoiy g'amxo'rlikni tashkillashtirish odamlar bishan ishlash, mexnatlarini tanlab olish tekshirish eng birinchi tajribani tushuntirish insonga tasir ko'rsatish. Insonga tasir ko'rsatish bu pedagogik va psixologik tasir ko'rsatish protsesidir. Buning uchun ijtimoiy mexnatlar, ijtimoiy pedagog shug'ullanadi pedagogik tasir ko'rsatishni har hil xizmatlar bo'lishi shart. Ijtimoiy pedagogning amaliyoti va uning bosh muomollari nimalardan iborat ekanligi ko'rib chiqamiz.

Ijtimoiy pedagog, ijtimoiy tarbiyaning, oila pedagogikasi, bolaning faqat o'zi, bola bilan ishlash va tasir ko'rsatishning xususiyatlarni bo'lishi lozim.

Ijtimoiy pedagogning ishlari eng asosiy narsa nimadan iborat, uning ishi maktab pedagogikasi, fan pedagogika, xatto sinf rahbarining yoki maktab - internat yoki kuni uzaytirilgan guruh rahbari ishidan nimasi bilan o'zgarib turadi.

221

O'qituvchi sinf yoki guruh bilan ishlashadi uning usullari asosan jamiyat bilan, o'spirin bolalar bilan ishlashadi, agar guruh bilan ishlashadigan bo'lsa unda kichik guruh bilan, oila bilan ishlashda uning har biri bilan ajralib ishlashadi. Jitimoiy pedagogning asosiy vazifasi bolani, o'smorni jitimoiy ximoyalash unga jitimoiy yoki tibbiy yordam ko'rsatish uni o'qituvchi tashkillashtirish, uning jamiyatga xarakatlanishi va buyusinshini tashkillashtirish. Jitimoiy pedagog buni ishga oltirishdagi, uning sharoitini krizis darajasini o'rganadi, uni yengib o'tish yo'llarini tashkillashtiradi. Bolani qiyin paytda qo'llab quvvatlash bu oson ish emas, bolaga qiyin vaqtda yordam berish kerak bo'ladi. Jitimoiy pedagog, bu vaqtda o'zini qanday tutadi. Ruxiy yordamlashish, baxtsizlikka duch kelganda unga ko'nish echimini topish yo'lini o'rgatish bolada ishonchini paydo qilish, uni dunyoda yaxshi tomonga o'zgarishiga ishontrish kerak.

Pedagog mutaxassis jitimoiy himoya qilishi bilan boglanishda bo'ladi, sababi ular bolaga yordam berish imkoniga ega bo'ladi. Buning uchun kasbiy tayorgarligi tarbiya va yetarli bilinga ega bo'lishi talab qilinadi. Bu pedagogika maxorat deb ataladi. Pedagogik maxorat pedagogning yakka sifatлари shuningdek uning bilim va qobiliyatiga asoslangan bo'ladi. Xar bir o'qituvchi yakka inson, biz odatda tarbiyalanuvchining yakka o'zi xaqida aytishimiz, o'qituvchi xaqida ishdan chiqaramiz. Pedagogning yakka o'zi uning tarbiyalanishiga ta'sir ko'rsatishi ungada kata uni pedagogik texnika xech olmashtira olmaydi. O'qituvchi mexnati intellektual, psixologik, ruxiy, aqliy va jismoniy kuch solishlarini talab qilinadi. Shuningdek pedagog o'z yutug'ini bo'lishi shart.

Ayrim o'qituvchilar suzga chechan bo'ladi, boshqasi bolalar energiyasini uyg'ota bilish, ularni qiziqtrish talab etiladi. Pedagogning bolaga ta'sir ko'rsatishi uning yakka sifatlariga bog'lanishi buladi.

Jitimoiy pedagogning kasbiy bilimlari sirasida pedagogika va psixologiyasi, bola fizyalogiyasi, tarbiya ishlari metodikasi, bu bilimlar bolani ishlatish uning xulq-atvorini bilish, uning munosabatini xususiyatlarini bilish uning guruh bolalari orasida kirishuvchiligini bilish zarur bo'ladi. Jitimoiy pedagog bolalar ishchangligi va birda ishlashish tashkillashtira bilish kerak.

Pedagogik texnologiya jitimoiy pedagog bajargan bulishi kerak. Bu tarbiyalanuvchiga ta'sir ko'rsatish usuli va

mutaxassisligi kerak degandi anglatadi, bunga artistizm saylovdan olish, kambag'allar va alkogoliklar, narkomanlar va baxtsizlikka duch kelgan bola bilan gaplasha bilish, tilini topa bilish kerak. Faqat gaplashishgina emas, uni ishontrishi va ta'sir ko'rsata bilishi kerak.

A.S.Makarenko ta'limoti bo'yicha pedagogik maxorat ya'ni tarbiya jarayoni xaqiqiy bo'lishi, tarbiyaviy o'quv xaqidagina aytish kerak, demak maxorat tarbiya jarayonini bilish uquvlari xaqida aytilb o'tish kerak. Pedagogik texnika shakllangan qobiliyati bo'ladi. Bu tarbiyalanuvchi tushinish degani munosabat psixologiyasini , pedagogika-psixologiyasi tushunchasini anglatadi.

Ko'pchilik vaqtlarda o'qituvchining ma'lumotlik bir tomonlilik vazmin bo'lib keldi. Bunday paytda munosabat yo'qoladi, o'zaro tushimovchiliklar kelib chiqadi. Maktab pedagogi teskari bog'lanishining psixologik axamiyatini xisobga olmaydi. Pedagog har bir raxbari eng asosiy yosh tanlay bilishi kerak. U tortinchoq yoki chaqon bo'lsa erinchoqni, u pedagogning bir og'iz so'zi bola umrida kata axamiyatga ega uni u butgil umr buyi yodda saqlab yuradi. Pedagog va o'quvchi munosabati jarayoniga bulgan talab olimlar tomonidan ishlab chiqilgan bolani tanglay bilish o'z-o'zini tushunishni oson qilib olish ishchanglik ta'sir kursatishdan o'zaro ta'sir etishga o'tish qobiliyati bunda o'quvchining o'z-o'zining munosabat bilan ximoyalash axamiyatli. Bolaga beriladigan bir vazifani biror suxbatni xar xilda berish mumkin. Pedagogik munosabatning axamiyatigin xisobga olish kerakdir. Sinfda ko'radigan pedagog vazifalar ishlab chiqiladi.

1. Bolalar bilan o'zingizning munosabatingiz bilan o'ylab ularni qayta ko'rib chiqing.

2. Pedagogik qatnashuvchilarni tashkillashtirish texnologiyasi. Pedagogik maqsad va vazifalarni bolaning asosan qiziquvchangligiga qaratamiz.

3. O'z gapingizni ochiqcha bolaga yoki guruxga yetqazing.

4. Faqat o'zingizning bilimingiz bilan cheklanmay bolani o'rganishga qatnashni tashkillashtirish lozim.

5. Munosabatni yuqoridan pastga qarab tuzmang, xatto kichkina bolaning munosabati erkin bo'lishini esdan chiqarmang.
6. Bolalar jamiyatdagi psixologig xaroratni tushinishga o'rgatib, bola bilan munosabatga yordam beradi.
7. Bolalar tinglay bilishni o'rgatishi.
8. Siz bilan munosabatda bo'lish borasida ularning kayfiyatini sezishga unting.
9. Bolalarning konflikti bo'ladigan siz o'zingizning pedagogik oqibatida ular ko'patirib yuborishni esdan chiqarmang.
10. Bolaning xatosini ko'rsatish bilan birga o'zingizni taktilkali bo'lishga intiling.
11. Bir qatoridagi javoblarning bo'lishi uchun savolda nega, nima uchun, qanday degan savollarni boshlang.
12. Munosabatda qizlarning o'zgachaligiga e'tibor bering, ular ko'proq sezishga berilgan.
13. Bolalar bilan ishlashga bir tomondan ko'ching.
14. Ayrim bolalarda yomon munosabatda bulishdan uzingizni engib chiqing.
15. Son, tana, konstruksiz boshlash foydasiz.
16. Bolalarga ko'proq kuling.
17. Maqtash, maqullash.
18. Bolalar sizning unga qanday munosabatda ekanligingizni anglashi kerak, uning xul-atvori sizning baxolashingizni, uning sizga bo'lgan munosabatingizni aniqlaydi.
19. Xar bir bolaga bo'lgan munosabatingizni esda saqlang. Sizning munosabatingiz o'zgartirishning bolaning xulq-atvori keltirib chiqaradi.
20. Xar bir bola suxbatingizga tayyorlanish zarur, suxbatingiz strategiyasini ishlab chiqaring.
21. Bolalarning dastabki xulq-atvorlari xulqlar bilan almashtirishni esda tuting.
22. O'qituvchi va sinf tarbiyalash va guruh orasida kelib chiqadigan sabablar bor ekanligini unutmang. Unda guruhdagi sinfdagi bolalar orasidagi psixologiyasining sharoitini xisobga olish zarur.

Maktab ochiq ijtimoiy tizim sifatida. Ochiq maktab-ko'p funktsiyali sifatga ega bo'lib, u har xil ishonchga ega. O'quvchilar

bilan ishlashishi insonlarda oraliq va guruxlarga ajratishida, oraliq qatnashni rivojlantiruvchi dialogga, to'g'ri ma'noda barcha bolalar uchun butun kun davomida ochiq hisoblanadi. Ular bu yerga xoxlagan vaqtda kelishiga imkon bo'ladi.

Ochiq maktabda uning umri bilan barcha ijtimoiy institutlar oila, korxona, ta'lim-tarbiya muassasalari, maxkamalari, jamiyatdagi tashkilotlari, xokimiyatlar bilan qalin o'zaro bog'lanishni kengaytirish va mustaxkamlash bo'ladi. Eng boshchi sifatida o'qitish ham tarbiyalashdagi eng avvalgi insonning yaratuvchilik ishchanligiga va quyidagi tamoiilar asosida quriladi. Bolalikni boyitish, bolaga xech qanday zo'rovonlik bo'lmastigi sheriklik, insoniylik qatnashlarning demokratiyalik stili, bolalar tanlashning erkinligi, o'quvchi va o'qituvchi aloqasining qarshiliksizligi, optimistik, xush ko'ngillik, shodlik, chidamlilik, o'zaro yordam ota-onalar va ijtimoiy oraliq bilan yaqin aloqaga, o'quvchilarning o'zini-o'zi tarbiyalashi, ijtimoiy javobgarlikni sezish ruxida tarbiyalash, kasbga yo'naltirish va ijtimoiy rivojlanishi bo'yicha yo'nalishning kengdan tanlanishi shunga bog'liq. Nemis pedagoglari tarafidan ishlab chiqilgan «bir butin maktab» rejasi qiziquvchanlik tug'diradi. Eng bosh vazifa maktabning kundalik vazifa maktabning kundalik turmushiga xar-xil o'zgarishlar kiritish, uning o'rtaligini ham barcha o'qish-tarbiya protsesini gumanizatsiyalashdan iborat. Maktab bolalari uchun shodlik o'rni, tinchlik olami, chidamlilik ham birga ishlashi amaliy maqsad keng, ijtimoiy kommunikativlik, intelligentlik ham xar kimning o'ziga-o'zi, atrofdagi insonlar ham tabiyatga javobgarlik bilan qatnashda bo'lishi ruxida tarbiyalash, uni kelajakda erkin va demokratik jamiyat qurishga, tinchlikni qoralashga ham planetani ekologik qo'riqlashga qobiliyati etib tarbiyalashdan iborat.

Muavafaqiyatning garovi maktabda yaratuvchilik ruxining ustunligi, tartibning

To'raligi, bolalar uchun ichki tinchlikning bo'lishi ekanligini boshqacha aytib o'tish kerak. Eng yaxshi usullar o'z ta'sirini o'tkaza olmaydi. O'quvchining o'zining o'sish va rivojlanishiga intiluvchanligining bo'lishi bosh vazifadir. Aniq ta'lim vazifalari quyidagilar: bilish sub'ekting to'liq rivojlanishi; xaqiqatga muxabbat; o'ylashning qulayligi; o'ylash va sezish; xarakatlarda

gavdalangan bilim; qobiliyati va ko'nikmalarni egallash; insonning ruhiy-fizik salomatligini mustaxkamlash; sportga havas uyg'otish, xunarmandchilik; ijtimoiy-madaniy intellektual va etik qobiliyatlarining erkin demokratik jamiyat qurishga javobgarlik va tayor bo'lishni rivojlantirish kabilardan iborat. Ta'lim mazmuniga qaraganda "bir butun maktab" bu sharoitda davlat ko'rsatmalaridan chekinmaydi, o'z fikrlarini muntazam qo'shadi. Unda bilim berishning yuqori bosqichida yoki klassifikatsiya berishni ko'zda tutadi. Aktual ijtimoiy siyosiy tematikani o'qitish yo'nalishlarini, yer yuzida tinchlikni saqlash, ekologik masalalar, jamiyatning a'zosi bo'lgan insonning salomatligi kabilarni kiritadi. Yakka shaxsni ijtimoiy tarbiyalashning integratsiyalashgan modeli sifatida ijtimoiy pedagogik markazlar (SPO)da ko'rsatib o'tishga bo'ladi, ular ochiq sistema tamoliga asoslangan. SPO vazifalari dam olish, yaratuvchilik, ishchanlik orqali oiladagi yashaydigan o'rin bo'yicha bolalarning ijtimoiy tarbiyasi va rivojlanishi uchun sharoit yaratish.

-mikrotsizmda ijtimoiy-bilm berish rejasini tuzish;

-oilada yakka rivojlanishi va bolaning qobiliyatining rivojlanishiga yordam berish;

-gurux oilalarida va bolalar bilan muommolari bo'lgan oilalar bilan korrektsiyon ishlar olib borish.

-o'ziga xos muammolarga ega bo'lgan bolalar (yetim, nogiron, xolsiz, fizik yoki psixologik sog'ligi yomon bo'lgan)ni ijtimoiy pedagogik qo'llash;

-xar-xil korxona mutaxassislarini(vrach, qo'shiqchi, murabbiy, psixoterapevt, psixolog pedagoglar). Maktabni oila, jamoatchilik, moddiy-tarbiya ob'ektari bilan birlashtirishdagi asosiy ma'nosi sotsialning tarbiyaviy potentsialini, uni maksimal pedagogizatsiyalash yo'li bilan amalga oshirishdan iborat.

Ko'plab sektsiya, to'garak, studiyalarida birlashgan markazlar modeli darsdan tashqari maktab ichki ishlarda bolalar bilan ishlashida qo'llaniladi.

Bolalar va o'spirinlar tarbiya markazlari ishlari xar-xil yosh guruxlarni tuzish, ularning erkin asosda yaratuvchanlik bilan birga ishlash uchun birlashadi. Maktab-kompleksining ijtimoiy pedagogik xizmati 4 xil tuzilishga bo'linadi.

-ijtimoiy pedagog tarafidan ishga oshiriladigan jamoatchilik, ijtimoiy pedagogik xizmat;

-sinf boshqari, kuni cho'ziladigan gurux tarbiyachilari, sinfdan tashqari ish tashkilotlari tarafidan ishga oshiriladigan maktab ichki ijtimoiy g'amxo'rlik xizmati;

-pedagog psixolog boshchiligidagi o'rinlanadigan psixologik xizmat. Bolalar xaqida sinf rahbarlari ijtimoiy g'amxo'rlik ijtimoiy qulaylik maxsus programma doirasida ishga oshiriladi.

Psixologik xizmat kompleksda butun o'qish-tarbiya protsesini psixologik tarafdin ta'minlaydi, uning natijasini psixologik rivojlanishning dinamikasi boshlaydi o'quvchining qiziqishi, qobiliyati va psixik masalalarini aniqlaydi devident bolalar bilan tuzatuvchi rivojlanuvchi ishlarni o'tkazadi. Krizisi sharoitlarda pedagoglar ham o'quvchilarga ongli ravishda yordam beradi, ijtimoiy pedagogik xizmatning asosiy vazifalari diagnostik, maslahat, qo'rg'ash, tashkil etish bo'lib bo'linadi. Tarbiya o'rtaligi faqat maktabdagina o'ta olmaydi. A.S.Makarenko xaqiqiy ko'rsatib o'tganday, yerning xar bir kvadrat metrida yurgiziladi. O'rtalik ta'siri yoqimli sifatga ham yoqimsiz sifatda ham maqsadga yo'naltirilgan xolda xalq psixologik xolda ham yakka insonning ijtimoiy faktori bo'lib xisoblanadi.

MUSTAXKAMLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. Ijtimoiy pedagogikada texnologiya tushunchasi nima?
2. Ijtimoiy pedagogik texnologiani ta'rif qanday?
3. Ijtimoiy pedagogikada krizis nima?

ADABIYOTLAR

1. Shul'gin V.N. «Osnovnie voprosi sotsial'nogo vospitaniya» M-1994
2. Shurkova «Novieologii vospitatel'nogo protsessas» M-1994
3. Galaguzova M.A. i dr «Sotsial'naya pedagogika» M-1994
- 4 M.V. Firsov Antologiya sotsial'noy raboti M-1994

IJTIMOIY - PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA STRUKTURASI VA

MAZMUNI

Ijtimoiy pedagog avallam bor qo'yidagilarni bilishi lozim: Ijtimoiy tarbiya, oila pedagogikasi, o'quvchi shaxsi deganda nimani tushinish kerak, bolaga ta'sir ko'rsatishning(o'tkazishning) va muamala metodlarining qanday turlari bor, tarbiyasi og'ir bolalar bilan ish olib borishning o'ziga xos xususiyatlari va xakozolar. Ijtimoiy pedagog faqatgina aloxida shaxs bilan bolalar bilan, o'smirlar bilan, agarda guruh bo'lib ishlashi kerak bo'lsa faqatgina kichkina guruh bilan, agar o'yla bilan esa faqat kichik oylalar bilan, lekin har biri bilan aloxida ish olib boradi.

Ijtimoiy pedagogning vazifasi bu bolalarni, o'smirlarni ijtimoiy muxafaqa qilish, ularga ijtimoiy yoki tibbiy yordam ko'rsatish, uning o'qishini tashkillashtira olish, shuningdek, ularning obro' e'tiborini tiklash va jamiyatga moslashtira olish o'quviga ega bo'lishi lozim. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun bolani xar tomonlama o'rganish, inqiroz darajasini va uni bartaraf etish yullarini rejalashtira olishi kerak. Buning uchun esa pedagog ijtimoiy xizmat faoliyati bilan shuningdek, ijtimoiy, muxofaza qilish ishlari bilan yaqindan-tanish bo'lishi kerak. Bu esa ijtimoiy pedagogning kasbiy tayyor-bulishini va yuqori darajadagi pedagogik maxoratga ega bo'lishini talab qiladi. Ijtimoiy pedagog qo'yidagi fanlar bo'yicha kasbiy bilimlarga ega bo'lishlari lozim: Pedagogika va psixologiya, bolaning rivojlanish, fiziologiyasini, tarbiya ishlari metodikasini va xakozo va bolalar bilan xamkorlik o'rnatish va tashkillashtira olishi lozim.

Shuningdek ijtimoiy pedagog pedagogik texnologiyani ham bilishi kerak bo'ladi. Demak, tarbiyalanuvchilarga ta'sir o'tkazish yo'llari, malaka va maxoratga ega bo'lishi kerak. Bularga quyidagilar kiradi: artist bo'la olish, chiroyli nutq, ritm, temp, tembr, mimika va imo-ishoralalar, alkogolik va narkoman, foxshahr bilan shaplashish tonini va tilini topa olish. Nafaqat gaplashish xatto ki ularga ta'sir utkazish va ishonitra olishlari kerak bo'ladi. Ijtimoiy pedagog muamala madaniyati va gaplashish texnikasiga e'tibor qaratishi lizim bo'ladi.

Xozirgi kunda ijtimoiy pedagog:

-maktabda sinfda nosog'lom oilalar bolalari bilan ishlashida:

228

-maktab-internatlarda, mexribonlik uylarda, bolalar uylarida:
-ijtimoiy-ta'lim markazlarda, ijtimoiy-psixologik xizmat markazlarida:

-reabilitatsion-korreksion markazlarda:

-madaniyat markazlari, yoshlar klublari:

-yozgi dam olish va mexnat lagerlarida ish olib boradilar.

Asosan bu maxkamalarda ijtimoiy pedagoglar bolalar va

oilalar bilan ish olib boradi va ular quyidagilardan iborat:

Faqatgina bolalarning(o'smirlarning) bilimlarigina ijtimoiy pedagogning ularga yordam berishi yoki qayta tarbiyalashda to'shri yo'l tanlashida yordam bera oladi. Ularning sogligini, oylasidagi o'zaro munosabatlarni, maktabga o'z teng qo'rlari bilan munosabatlarni, munosabatlari qanday ekanligini bilishi zarur.

Pedagog suxbat, anketa javoblari, tengdoshlari bilan bo'lgan munosabatlaridagi xulq-atvoridan, bolalar bilim saviyasidan bilib oladi. Ijtimoiy pedagogning olib boradigan ishini keyingi bosqichi bu bola(o'smir) bilan birgalikda uning xolatini, u tushib qolgan vaziyatni, "atrofdagilarning xammasi aybdor" deb qaramasdan bolaning o'zining xatti-xarakatiga e'tibor qaratishi orqali tushinib olish. Vaziyatni aniqlashtirib va unda ishtirok etish bilan inqirozdan chiqib ketish yo'lini topishi mumkin. Bolalar bilan munosabatda bo'lishi uchun ijtimoiy pedagogika pedagogik nazorat va maxorat kerak bo'ladi bu esa ularga bolalar bilan tarbiyaviy ish olib borish normasini belgilab beradi: agar me'yorida oshib ketsa yomon ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Ijtimoiy pedagogning tashkilotchilik qobiliyati bolalarni(o'smirlarni) faqat o'ziga o'z xayotini o'zgartira olishi va qiyin vaziyatdan chiqib keta olishini ishontrishda ko'rinadi. Ijtimoiy pedagogning tashkilotchilik faoliyati bolalar bilan jamiyat o'rtasidagi davlatchilik maxkamalari o'rtasidagi aloqasi, eng asosiysi esa bolaga yangicha xayotning talablariga moslashishiga yordam beradi.

Ijtimoiy pedagogning ishlash metodlari keng tarqalgan va tabiya metodlaridan biri bu kuzatish metodi. Pedagog bolaning muamalasini uning oiladagi, maktabdagi, dars jarayonidagi tengdoshlari bilan uning mexnat faoliyatini, xulq-atvorini kuzatadi.

229

Suxbat metodi - suxbat o'tkazishga tayorlanish uchun oldin anketa olinadi, oldidan savollar tuziladi komissiya natijalari bilan tanishadi.

